

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**«MASHINASOZLIK SANOATI IQTISODIYOTI»
O'QUV QO'LLANMA**

TOSHKENT 2010

Mashinasozlik sanoati iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. Isxoqov B.A., Hashimova S.N., Gaipova M.T. - Toshkent. ToshDTU, 2010.

Ushbu o'quv qo'llanmada mashinasozlik sanoati iqtisodiyotidagi asosiy tushuncha va ma'lumotlar keltirilgan. Unda mashinasozlik sanoati ishlab chiqarish fondlari, tannarx, foyda, narx masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

O'quv qo'llanma mashinasozlik sanoati bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashli qaroriga muvofiq chop etildi.

Taqribchilar: ToshDTU «Menejment» kafedrasi dotsenti Mirboboyev F.A.

TDYul «Iqtisodiy-gumanitar fanlar» kafedrasi dotsenti, i.f.n. Safarov T.A.

MUNDARIJA

Kirish.....	5
1-bob. Korxonalarning ta’rifi va turlari.....	7
1.1 Korxona va tadbirkorlikning mohiyati.....	7
1.2 Korxonaning asosiy tashkiliy-huquqiy shakllari.....	9
1.3 Mashinasozlik sanoat korxonalarini strukturasi.....	16
2-bob. Mashinasozlik sanoati korxonalarining ishlab chiqarish fondlari.....	19
2.1 Ishlab chiqarish fondlarining iqtisodiy mohiyati va ularning ta’rifi.....	19
2.2 Mashinasozlik sanoatining asosiy ishlab chiqarish fondlari. ularning iqtisodiy mazmuni va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishdagi ahamiyati.....	21
2.3 Mashinasozlik sanoati asosiy fondlarning tasnifi va ularning o’ziga xos xususiyatlari.....	22
2.4 Sanoat korxonalarida nomoddiv aktivlar.....	26
2.5 Asosiy ishlab chiqarish fondlarining yemirilishi va amortizatsiyasi.....	27
2.6 Asosiy fondlarning yemirilishi	29
2.7 Amortizatsiya me’yori va uning miqdorini belgilovchi omillar.....	31
2.8 Asosiy fondlardan foydalanish ko’rsatkichlari va ularni yaxshilash yo’llari.....	33
3-bob. Mashinasozlik sanoatining aylanma mablag’lari	38
3.1 Aylanma fondlar haqida tushunchalar, ularning tarkibi va strukturasi.....	38
3.2 Aylanma mablag’larning me’yori.....	42
3.3 Aylanma mablag’lardan foydalanish ko’rsatkichlari va mablag’lar aylanishini tezlashtirish.....	46
4-bob. Mashinasozlik korxonalarining mehnat resurslari va mehnatga haq to’lash.....	48
4.1 Mashinasozlik korxonasi personali va uning tavsifi..	48
4.2 Kadrlar strukturasi va ularni rejalashtirish.....	51
5-bob. Korxonalarda mehnatga haq to’lash.....	55
5.1 Ish haqi tushunchasi va mohiyati	55
5.2 Korxonada mehnatga haq to’lash tizimi.....	56

5.3	Ish haqining turlari va shakllari.....	59
6-bob.	Mehnat unumdarligi.....	62
6.1	Mehnat unumdarligi ko'rsatkichlari va hisoblash usullari.....	62
6.2	Mehnat unumdarligini oshirish imkoniyatlari	64
7-bob.	Mashinasozlik korxonalarini mahsulotining tannarxi	65
7.1	Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati	65
7.2	Mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash (hisoblash).....	66
7.3	Mahsulot tannarxini rejalashtirish.....	69
8-bob.	Foyda va rentabellik.....	71
8.1	Foyda ko'rinishlari va ularni hisoblash usullari.....	71
8.2	Foydani taqsimlash tartibi va ko'paytirish asosiy yo'nalishlari.....	73
8.3	Rentabellik ko'rinishlari va ularning iqtisodiy mohiyati.....	73
9-bob.	Mashinasozlik korxonalarida mahsulotlar baholarining shakllanishi.....	75
9.1	Korxonalarda mahsulot baholarining shakllanishi	75
9.2	Bahoni shakllantiruvchi omillar	76
9.3	Mashinasozlik korxonalar mahsulotlarining baho turlari	78
10-bob.	Korxonalarining investitsiya faoliyati	79
10.1	Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati.....	79
10.2	Investitsiya muhiti.....	81
10.3	Investitsiya turlari va shakllari.....	83
10.4	Korxonalarining investitsiya siyosati.....	86
10.5	Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash prinsipi.....	88
11-bob.	Lizing.....	89
11.1	Lizing tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati.....	89
11.2	Lizing turlari.....	91
11.3	Lizing to'lovlar.....	93
12-bob.	Soliqning iqtisodiy mohiyati va maqsadi.....	96
12.1	Soliqqa tortish tizimi.....	96
12.2	Soliq turlari va tasnifi.....	97
12.3	Soliqqa tortish - davlat byudjetining asosiy manbai ...	99
	Atamalar lug'ti.....	100
	Adabiyotlar	104

KIRISH

Mashinasozlik - sanoat tarmoqlari ichida yetakchi o'rinni egallaydi va uning rivojlanishi iqtisodiyot barcha tarmoqlari texnikaviy qurollantirish darajasini belgilaydi.

Mashinasozlik tarmog'i - mahsulot ishlab chiqaradigan, boshqa sanoat tarmoqlari uchun uskunalar ishlab chiqarayotgan va xizmat ko'rsatadigan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha xo'zalik yurituvchi subyektlarni o'z ichiga oladi. Moddiy-tehnika bazasining bir xilligi, ma'lum mehnat sharoiti va ishchi-xizmatchilar mutaxassisligi tarmoqning xarakterli xususiyatlari hisoblanadi.

Mashinasozlik sanoati tarkibiga quyidagi tarmoqlar kiradi:

- energetika va transport mashinasozligi;
- kimyoiv va neft-gaz mashinasozligi;
- asbobsozlik va uskunalar ishlab chiqarish;
- elektrotexnika;
- asbobsozlik;
- avtomobilsozlik;
- qishloq xo'jaligi mashinasozligi;
- yo'l qurilish mashinasozligi;
- yengil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi;
- aviasozlik va aloqa vositalari sanoati.

Yirik tarmoqlar o'z navbatida bir necha ixtisoslashtagan tarmoqlarni o'z ichiga oladi.

Masalan, asbobsozlik va uskunalar ishlab chiqarish tarmog'i tarkibiga metall qirquvchi uskunalar, temir presslovchi mashinalar, quyma uskunalar, asboblar va texnologik moslamalar kiradi.

Mashinasozlik tarmog'i iqtisodiyot sektoridagi barcha tarmoqlarga nisbatan yetakchi o'rinni egallaydi.

Bozor sharoitida mashinasozlikka doir quyidagi sektorlar istiqbolli hisoblanadi: avtomobilsozlik, energetika mashinasozligi, transport mashinasozligi, qishloq xo'jalik mashinasozligi, asbobsozlik, ayrim turdag'i xalq iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish.

Bozor iqtisodiy rivojlanishi respublikamiz mashinasozlik kompleksida ishlab chiqarishning susayishiga olib kelmoqda. Buning asosiy sababi investitsiya resurslari avvalo iqtisodning xomashyo

ishlab chiqaradigan sektorlariga sarflanganligi, ko‘p hollarda mahalliy mashinasozlik korxonalarining mahsulotlari xorijda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga nisbatan kam raqobatbardoshligi, yirik mashinasozlik korxonalari bozorning tez o‘zgaruvchan talablariga javob bermasligi tufayli sodir bo‘lmoqda.

Mahalliy mashinasozlik texnik darajasini rivojlangan davlatlar darajasiga yetkazish va mashinasozlik kompleksini innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazish uchun bir qator muammolarni yechish talab qilinadi. Bu muammolardan biri: asosiy fondlarning faol qismini yangilashdan iborat, chunki aksariyat mashinasozlik korxonalarida texnologik uskunalar parki jismoniy va ma’naviy eskirgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mashinasozlik korxonalarining asosiy fondlari 68,25%ni to‘la yemirilgan va uskunalar parkini yangilash uchun katta miqdorda investitsiyalar talab qilinadi.

Hozirgi kunda mashinasozlik sanoatining 15 tarmog‘i mavjud bo‘lib, ular tasarrufida 100 dan ortiq yirik korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda.

1-bob. KORXONALARING TA'RIFI VA TURLARI

1.1. Korxona va tadbirkorlikning mohiyati

Tabdirkorlik faoliyati iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy faktorlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolar kodeksiga muvofiq tadbirkorlik faoliyati -- bu mulkdan foydalanishdan, mahsulot sotishdan, ishlar bajarish va tadbirkor sifatida qonuniy tartibda ro'yxatga olingan shaxslarga xizmat ko'rsatishdan foyda olishga qaratilgan, shaxsiy tavakkalchilikka asoslangan mustaqil faoliyatdir.

Tadbirkorlikning muhim xususiyati - mustaqil faoliyat yuritish va xo'jalik yurituvchi subyektlarning ham o'z navbatida mustaqil bo'lishi, ularning ish faoliyatiga korxona boshqaruvchining iqtisodiy qiziqishlari va olingan natijalarga javobgar bo'lishi, shuningdek tavakkalchilikdan foydalanishdir.

Tadbirkorlik faoliyati yuridik shaxs tashkil qilish yoki yuridik shaxs tashkil qilmasdan amalga oshirilishi mumkin. Shunday qilib tadbirkorlik faoliyatining subyektlari-yuridik va jismoniy shaxslar hamda jismoniy va yuridik shaxslarning birlashmalaridir.

Tadbirkorning muvaffaqiyatlari faoliyat ko'rsatish quyidagilarni o'z ichiga oladi: ya'ni, xohlagan sohada ish yuritish; korxona ishlarini tashkillashtirish va boshqarish; material, mehnat, axborot, moliya va tabiiy resurslardan teng foydalanish; tadbirkorlik subyektining mulkini muhofaza qilish; nohalol raqobatdan himoyalash.

Tadbirkorlik faoliyati har xil sohada amalga oshiriladi, ya'ni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliya, tijorat va hokazo. Ishlab chiqarish sohasida korxona ishlarini tashkillashtirish xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega, chunki aynan shu sohada moddiy boyliklar yaratiladi. Qazib oluvchi sanoat kon sanoati va qayta ishlovchi sanoatga bo'linadi. Qayta ishlovchi sanoat metallurgiya, mashinasozlik, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati va boshqa sohalarga bo'linadi. Ishlab chiqarish sohasida, ayniqsa, mashinasozlik sohasida, tadbirkorlik faoliyati korxona miqqosida amalga oshiriladi.

Sanoat korxonalarini, shuningdek, mashinasozlik korxonalarini mahsulot ishlab chiqarish uchun moddiy, mehnat, moliya va axborot

resurslaridan foydalanadi. Agar korxona iste'molchilar talabiga binoan mahsulot ishlab Ächiqarsa, ularga xizmat qilsa, unda bu korxona ijtiroiy talablarni qondiradi va daromad oladi. Korxona soliq va majburiy to'lovlarni to'lagandan keyin daromaddan qilgan mablag'dan mustaqil foydalanadi.

Korxonani bozor munosabatining alohida subyekti sifatida turli ko'rsatkichlar bilan xarakterlash mumkin:

- ishlab chiqarish va texnik munosabati bo'yicha korxona ishlab chiqarish uchun texnik birligi, ya'ni chiqarilayotgan mahsulot miqdori va turiga qarab korxonalarda qo'llaniladigan jihozlar va texnologik jarayonlar majmuasining birligi bilan;

- tashkiliy-boshqarish munosabati bo'yicha korxonalarga tashkiliy birlik xosdir, bu degani o'z muammolarini hal qilishga xizmat qiladigan tashkiliy jamoadir;

- ma'muriy-huquqiy munosabat bo'yicha korxona yuridik shaxs bo'lib, u mulkiy va nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi va amalga oshirish huquqiga ega;

- moliya-iqtisodiy munosabat bo'yicha korxona xo'jalik subyekti bo'ib, qonunga muvofiq ravishda resurslardan mustaqil ravishda foydalanish huquqiga ega.

Korxonani muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun qonunchilik ta'minoti zarur bo'lib, u iqtisodiy rivojlanish darajasiga muvofiq bo'sishi kerak.

Korxonaning hayotiy siklining ko'p bosqichlari va ish faoliyati normativ-huquqiy aktlar bilan tartibga solinadi.

Tashkilotning ish faoliyati O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va boshqa qonunlar bilan tartibga solinadi.

Barcha normativ-huquqiy aktlar korxona faoliyatining quyidagi tomonlarini tartibga soladi.

- 1.Ro'yxatdan o'tkazish, korxonani qayta tashkillashtirish va likvidatsiya qilish.

2. Jamoaning korxona bilan munosabati.

3. O'z-o'zini boshqarish va mahalliy davlat hokimiyat organlari bilan munosabatlari.

4. Korxonaning bank, boshqa kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari bilan munosabatlari.

5. Korxonaning xo'jalik yurutuvchi subyektlar iste'molchilar xomashyo yetkazuvchilar, qurilish-montaj, transport, tashqi savdo tashkilotlari va hokazo bilan munosabatlari.

1.2. Korxonaning asosiy tashkiliy-huquqiy shakllari

Barcha tashkilotlar (muassasalar), yuridik shaxslardan iborat ish faoliyatida asosiy maqsadiga bog'liq bo'lgan holda: tijorat va notijorat tashkilotlarga ajratiladi. Notijorat tashkilotlarining asosiy maqsadi foyda-daromad olish emas. Bunday muassasalar iste'mol kooperativlari va muassasalar, jamoat tashkilotlari, fondlar, notijorat sheriklik va hokazolar hisoblanadi.


Sanoat korxonalari ko'pincha tijorat tashkiloti hisoblanadi. Barcha tijorat tashkilotlari o'z ish faoliyatini muayyan tashkiliy-huquqiy chegarada olib boradi.

Tijorat tashkilotlarining quyidagi shakllari mavjud:

- unitar korxonalar (davlat);
- xo'jalik shirkatlari;
- xo'lik jamiyatlari;
- ishlab chiqarish kooperativlari.

Unitar korxonalar bu tijorat tashkiloti bo'lib, unga muikka egalik huquqi berilmagan. Unitar korxonalarning ish faoliyati «Davlat unitar korxonalari to'g'risidagi Qonun»ga binoan boshqariladi. Unitar korxonalari nomiga mulk egasining nomi kiritilishi kerak.

Unitar korxona mulki boshqaruvi operativ boshqaruv huquqiga yoki xo'jalik yuritish huquqiga asosan amalga oshiriladi. Xo'jalik yuritish huquqiga ega bo'lgan unitar korxonalarning operativ boshqarish huquqiga asoslangan unitar korxonadan farqi qabul qilgan huquqlarning hajmi bilan davlatga qarashli federal tashkilotlar (masalan, davlatga qarashli mudofa zavodlari) saqat O'zbekiston Respublikasining hukumati qaroriga asosan ish faoliyati olib boradi. Xo'jalik yurutuvchi unitar korxonalarga nisbatan bunday korxonalar mulkdor tomonidan qat'iy nazorat ostida bo'ladi.



1-rasm. Tijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy shakllari

Unitar korxonalarning bir qismi operativ boshqaruvga asoslangan davlatga qarashli korxonalariga aylanishi rejalashtirildi, qolgan qismi esa xususiyashtiriladi va mashinasozlikda 70% korxonalar xususiyashtirilishi rejalashtirilmoqda. 2007-yil oxiriga *1,5 – 2 ming* ahamiyatga ega korxonalarning [elektroenergetika, temir yo‘l transporti, aloqa, harbiy sanoat kompleksi va boshqalar] davlat mulki hisobiga o‘tishi rejalashtirildi.

Zamonaviy davlat siyosati quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan:

- davlat mulkini samarali boshqarishda mablag‘ daromadini oshirish;

- iqtisodiy yuksalish uchun mustahkam zamin ta’minlash maqsadida (makro va mikrodarajadagi tenglik nuqtayi nazaridan) mulk tizimini optimallash;

- iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalarni jalg‘ qilish.

Xo‘jalik tashkiloti – tashkilot a’zolarining ulushi bo‘lingan, ustav sarmoyali tijorat tashkilotlaridir.

Ma’suliyati cheklangan jamiyat – bu bir yoki bir necha shaxslar tomonidan tuziladi va ustav sarmoyasi ulushlarga bo‘lingan bo‘lib, bu ulushlar o‘lchami hujjatlarda belgilangan bo‘ladi. Ma’suliyati cheklangan jamiyatning a’zolari o‘z kiritgan mablag‘ining qiymatiga asoslanib tijoratni olib boradilar.

Ma’suliyati cheklangan jamiyatning a’zolari soni «Ma’suliyati cheklangan jamiyat to‘grisida»gi Qonunda belgilangan sondan oshmasligi kerak (hozirgi kunda 1 dan 50 gacha qatnashuvchi). Ma’suliyati cheklangan jamiyatning ustav sarmoyasi a’zolari tomonidan belgilanadi va jamiyat mulkining minimal o‘lchami hisoblanadi va bu sarmoya kreditorlar uchun kafolat puli hisoblanadi.

«Ma’suliyati cheklangan jamiyat to‘grisida»gi Qonunda ustav sarmoyasining minimal kattaligi belgilangan va 100 ta minimal oylik maoshi o‘lchamidan kam bo‘imasligi kerak. Ma’suliyati cheklangan jamiyatning oliy boshqaruvi organi a’zolarning umumiy majlisи hisoblanadi va majlis a’zolarning qarorlariga binoan korxona boshqariladi va ustavga asosan jamiyatning daromadi tasdiqlanadi. Qo’shimcha ma’suliyatli jamiyatning ma’suliyati cheklangan

jamiyatdan farqi shuki, uning a'zolari tashkilot majburiyatiga - birgalikda javobgardir(subsidiar).

Subsidiar javobgarlik- bu tashkilotchilarning qo'shimcha [jamiyat mol-mulkidan tashqari] ma'suliysi, va uning o'lchamini ustavda belgilanadi va bu ko'rsatkich hamma tashkilotchilar uchun bir xil. Birgalik (solidar) dagi javobgarlikda ishtirokchilardan bittasi bankrotga uchrasa, uning tashkilotidagi javobgarligi boshqa ishtirokchilar tomonidan (ular kiritgan mablag'ga asoslanib) belgilanadi.

Aksionerlik jamiyatining – ustav sarmoyasi bir xil ulushlarga taqsimlanadi. Bu ulushlar aksiya bilan izohlanadi va barcha aksiyalar bir xil qiymatga ega. Aksionerlik jamiyatining ishtirokchilari (aksionerlar) aksionerlik jamiyatining majburiyatlariga javobgar emas va zarar aksionerlik jamiyati faoliyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Aksiya – bu ishlatish muddati belgilangan qimmatbaho qog'oz bo'lib, aksionerlik jamiyati sarmoyaga kiritilgan mablag'ini tasdiqlaydi va egasiga aksionerlik jamiyatining dividend ko'rinishidagi daromad ulushini olish huquqini beradi. Aksionerlik jamiyatining ish faoliyati to'xtagan holda aksioner jamiyat mulkining bir qismiga egalik qilish huquqiga ega bo'ladi. Aksionerlik jamiyatining asosiy hujjati ustav bo'lib, u jamiyat a'zolari tomonidan tasdiqlanadi va aksionerlar faoliyati uchun majburiy hisoblanadi. Aksionerlik jamiyati ochiq (OAJ) va yopiq (YoAJ) bo'lishi mumkin. OAJning aksionerlari soni cheklanmagan. YoAJda aksionerlik faqat ishchi va xizmatchilarga taqsimlanadi. YoAJda aksionerlar soni 50 tadan oshmasligi kerak.

Aksionerlar umumiy majlisining qaroriga binoan aksianing nominal qiymatini o'zgartirish hisobiga ustav sarmoyasini o'zgartirish huquqiga ega, ammov o'zgartirilgan ustav sarmoyasi davlat ruxsat bergen qiymatdan oshmasligi kerak.

Sarmoya birlashmasining afzalligi shuki, u tezda pul mablag'ini jaib qiladi, mulkdorlar mablag'ini oshiradi, bu katta ijtimoiy ahamiyatga ega.

Xo'jalik shirkati – to'plangan sarmoya ishtirokchilar ulushlariga (omonat) bo'lingan tijorat tashkilotidir. Shirkat jismoniy shaxslar birlashmasidan iborat. Shirkat xo'jaligi to'liq hamkorlik va ishonchga asoslangan hamkorlik shaklida bo'ladi.

Ishlab chiqarish kooperativi (artel) jismoniy shaxslarning birlashmasi bo'lib, ular o'z mablag'lariiga va shaxsiy mehnatiga tayangan holda faoliyat olib boradilar.

Ishlab chiqarish kooperativlarda a'zolar kiritgan mablag' o'lehamidan qat'iy nazar, ular korxona ishlarni boshqarishda bir xil huquqqa egalar, buning natijasida boshqarishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi va qaror qabul qilish operativlik darajasining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun mashinasozlikda bunday tashkiliy shakl kam qo'llaniladi.

Tashkilotlarni quyidagi ko'rsatkichlari bo'yicha klassifikatsiya qilinadi:

- asosiy ish faoliyati va sohalar bo'yicha;
- ishlab chiqarish turi va tuzilishi bo'yicha;
- korxona o'lehami bo'yicha;
- shakllar va mulkdorlik huquqi bo'yicha.

Asosiy ish faoliyat turiga qarab tashkilotlarni sanoan, qishloq xo'jaligi, savdo, xizmat ko'rsatish korxonalari va boshqalarga ajratish mumkin. O'zbekiston iqtisodiyotida sohalar bo'yicha ish faoliyati 2 ta shaklda qo'llaniladi: ma'muriy-tashkiliy va ishlab chiqarish. Ma'muriy tashkiliy nuqtayi nazardan shunday ish faoliyati nazarda tutiladiki, bunda u aniq bir yo'nalishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, qishloq xo'jaligi mashinalari ishlab chiqaradigan korxona qishloq xo'jaligi bilan ma'muriy bog'langan. Mahsulot ko'rsatkichiga asosan esa, barcha mashinasozlik korxonalari mashinasozlik, qurilish sohasi, energetika, transport va boshqalarga bo'linadi.

Ishlab chiqarish turiga qarab korxonalar: a) partiyali; b) seriyali; d) ommaviy ishlab chiqarish turiga bo'linadi.

Partiyali ishlab chiqarish keng amma kam takrorlanadigan yoki umuman takrorlanmaydigan mahsulot chiqarish nomenklaturasi bilan xarakterlanadi.

Seriyali ishlab chiqarish mayda, o'rta va yirik seriyali bo'lishi mumkin va mahsulot nomlanishi bilan cheklanadi, shuningdek, surli malakaviy mutaxassislarning zarurligi bilan xarakterlanadi.

Ommaviy ishlab chiqarishda bir xil mahsulot ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarish turli ishlab chiqarish strukturasi va mutaxassislar ma'lumoti bilan farqlanadi.

Ishlab chiqarish strukturasiga binoan korxonalar: a) tor doirada maxsuslashtirilgan, ya'ni chegaralangan assortimentli mahsulot ishlab chiqaradigan va keng doirada, ya'ni turli assortimentli mahsulotlarni ishlab chiqaradigan korxonalarga bo`linadi.

Korxonani o`fchamiga qarab: kichik, o`rta va yirik korxonalarga ajratish mumkin. Bunda quyidagi ko`rsatkichlar inobatga olinadi:

- korxonadagi ishchilar soni;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi;
- asosiy ishlab chiqarish fondining qiymati;

O`zbekiston Respublikasining qonunlariga binoan kichik korxonalar tijorat tashkiloti bo`lib, sanoat, qurilish va transportda 100 kishi; qishloq xo`jaligi va ilmiy-texnika sohasida 60 kishi; aholiga maishiy xizmat qilish va savdoda 30 kishigacha va qolgan sohalarda 50 kishi xizmat qilishi kerak.

Kichik korxonalarni boshqarishda to`sinqinlik qiladigan faktorlarga (investitsiya va kredit resurslarini ja`lb qilishning murakkabligi, soliq to`lash tizimining tez o`zgarishi, huquqiy himoyaning kamligi) qaramasdan kichik korxonalarning soni oshmoqda.

Kichik korxonalarning afzalligi: egiluvchanligi, yangi mahsulot turiga tez o`tishi va ishlab chiqarishga kam investitsiyatalabligi.

500 dan ortiq kishidan iborat bo`lgan korxona yirik korxona hisoblanadi.

Yirik korxona ko`p tarmoqli hisoblanib, massali talabga javoban standart tovar chiqarishni ta`minlaydi. Bunga avtomobil ishlab chiqaradigan zavodlar, traktorsozlik, kombaynsozlik va boshqalar kiradi.

Korxonaga egalik qilish shakliga qarab korxonalar quyidagi turlarga ajratiladi.

• xususiy korxonalar fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan ta`sis etilgan:

- munitsipalitet va davlat korxonalari (munitsipalitet, hukumat organi, mahalliy va organlari tomonidan ta`sis etilgan);

- mulkka aralash egali (davlat va yuridik shaxslar tomonida tasdiqlangan);

Sarmoyalarning boshqarilishiga qarab korxonalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- milliy;
- xorijiy;
- qo'shma.

Kartel, konsorsium, sindikat, trest, konsern, konglomerat, holding, moliya-sanoat guruhi xo'jalik yurituvchi subyektlar birlashmasining tipik shakllaridir.

Kartel - har bir a'zoning xo'jalik va yuridik mustaqilligi saqlangan korxonalar birlashmasi. Bu birlashmaning barcha a'zolari kartel shartnomasini tuzadilar va bu hujjatda xo'jalik yuritish faoliyatining majburiy shartlari kiritiladi (masalan, har bir a'zo uchun ishlab chiqarish hajmi, mahsulot narxi va hokazo.).

Konsorsium - moliya tashkilotlari (bank) va sanoat korxonalarining o'z navbatida qurilish yoki yirik sanoat loyihalarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi. A'zolarining yuridik va xo'jalik yuritish mustaqilligi saqlanadi, lekin konsorsium boshqaruvi maqsadida bitta rahbarga bo'y sunadi.

Pul - kartel asosida tashkilotlarning turli birlashmasi. A'zolarning mustaqilligi saqlanadi va kvotaga binoan foyda tasdiqlanadi. Pul rivojlangan davlatlarda keng tarqalgan.

Sindikat -- bir nechta korxonalarining birlashmasi bo'lib, a'zolari ishlab chiqarish va yuridik mustaqillikka ega, ammoye tijorat mustaqilligini yo'qotadilar. Unda korxonalararo kelishilgan munosabatlarga binoan, mahsulotni ishlab chiqarishda resurslar (xomashyo) bilan ta'minlash markazlashtiriladi.

Trest - tashkilotlaring birlashmasi bo'lib, a'zolari xo'jalik mustaqilligiga ega bo'lmaydi va markazlashtirilgan boshqaruvgaga bo'y sunadi.

Konsern - tashkilotlar birlashmasining shakli bo'lib, mulkka egalik va boshqaruvi birgalikda amalga oshirilishi bilan xarakterlanadi. A'zolari yuridik jihatdan mustaqil, lekin xo'jalik jihatdan mustaqil bo'lmaydi. Konsernga ko'pgina bank, sanoat korxonalari, transport va savdo kompaniyalari birlashadi. Hozirgi kunda «konsern» atamasi tashkilotlar guruhi bo'lib, bosh korxona aksiyalarni birlashtirgan asosiy va umga qarashli jamiyat shaklida faoliyat olib boradi.

Moliyaviy-sanoat guruhini (MSG) tashkillashtirishdan maqsad investitsion va boshqa toyihalar va programmalarni realizatsiya qilish uchun moliya va savdo kompaniyalari, ilmiy-izlanish tashkilotlari va sancat korxonalarini integratsiyalashdir. Mashinasozlik sohasida moliya-sanoat guruhi misol qilib Voljsko-Kamskaya FPGni (FPG, ya'ni moliya sanoati guruhi) aytilishimiz mumkin.

1.3. Mashinasozlik sanoat korxonalari strukturasи

Mashinasozlik sanoati – xalq xo'jaligi uchun mashina va mexanizmlar, jihozlar, agregat va apparatlar, asbob-uskunalar, madaniy-maishiy mollar, shuningdek, mudofaa ahamiyatiga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari majmuidir. Mashinasozlik sanoati butun xalq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashda moddiy asos hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti, xalqning moddiy-madaniy farovonligi va mamlakat quvvati mashinasozlik sanoati taraqqiyotiga bog'liq. Uning ahamiyati, eng avvalo, fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga va insonlar hayotining barcha sohalariga joriy etish asosida qo'l mehnatinini mashina mehnatiga aylantirish, yengillashtirish, mashinani mashina bilan yaratish, tejamkorlikni ta'minlash va mehnatning mazmuni va xarakterini o'zgartirishdan iborat. Mashinasozlik sanoati mahsulot sisatini yaxshilash, ishlab chiqarishning samaradorligini yuqori darajaga ko'tarishga imkoniyatlar yaratadi. Mashinasozlik sanoatining asosiy vazifasi milliy iqtisodning barcha sohalarini yuqori unumli mehnat qurollari bilan ta'minlashdan iborat. Ular turli tarmoq va korxonalarda tayyorlanadi.

Mustaqillik yillarda mashinasozlik sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning turlari keskin o'zgardi. Uni 1- jadvalda keltirilgan raqamlardan ham ko'rish mumkin. (1-jadval).

Mashinasozlik sanoati tarkibida metall ishlash sohasi ham mavjud bo'lib, bu soha o'z navbatida, metall buyumlar tayyorlash, metall konstruktsiyalar hamda mashina va asbob-uskunalar ta'miri tarmoqlaridan iborat. Bunday faoliyat bilan 2,5 mingdan ortiq korxona shug'ullanmoqda.

O'zbekiston mashinasozligiga: avtomobilsozlik, samolyotsozlik, traktorsozlik va qishloq xo'jalik mashinasozligi, elektrotexnikasozlik va motorsozlik, asbobsozlik va kabelsozlik kabi yirik tarmoqlar kiradi.

Mashinasozlik sanoatida ishlab chiqariladigan mahsuletlar hajmi, asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati va xodimlari soni jihatidan

1- jaoval

**Mashinasozlik sanoati korxonalari tomonidan ishlab
chiqarilayotgan mahsulotlarning turlari**

	2004-y	2005 y	2007-y	2008-y
Mahsulot hajmi, <i>mld.so'm</i>	993,1	1432,5	2839,4	3840,2
Mahsulot hajmi oshishi, <i>foiz-larda o'tgan yilga nisbatan</i>	132,1	131,1	129,5	124,2
Tarmoqda ishlovchilar soni, <i>ming kishi</i>	96,8	94,5	93,2	90,3
<i>foizlarda o'tgan yilga nisbatan</i>	92,8	97,6	99,1	96,9
<i>Asosiy turdagji mahsulottar ishlab chiqarish hajmi</i>				
Transformatorlar, <i>ming. kV</i>	324,6	786,3	1423,7	1901,5
<i>foizlarda o'tgan yilga nisbatan</i>	166,5	2,0	156,2	133,6
Traktorlar, <i>dona</i>	3015	2956	2551	2537
<i>foizlarda o'tgan yilga nisbatan</i>	104,3	98,0	87,6	99,5
Avtobuslar, <i>dona</i>	187	199	1116	1556
<i>foizlarda o'tgan yilga nisbatan</i>	79,6	106,4	10,3	139,4
Markazlashgan nasoslar, <i>ming dona</i>	1,0	1,0	2,0	2,4
<i>foizlarda o'tgan yilga nisbatan</i>	53,0	124,4	176,8	121,9
Paxta terish mashinlari, <i>dona</i>	21	16	-	-
<i>foizlarda o'tgan yilga nisbatan</i>	161,5	47,6	-	-

<i>Payvand qilingan metall konstruksiyalar, ming dona foizlarda o'tgan yilga nisbatan</i>	14,5	10,5	18,5	23,6	
<i>Qo'rg'oshin bilan ishlangan akkumulyatorlar, ming dona foizlarda o'tgan yilga nisbatan</i>	72,1	72,1	140,7	127,4	
<i>Avtomobillar, ming dona foizlarda o'tgan yilga nisbatan</i>	87,0	173,7	445	550	
<i>Avtomobillar, ming dona foizlarda o'tgan yilga nisbatan</i>	97,8	199,7	118,7	123,6	
<i>Avtomobil sanoati</i> – mashinasozlikning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning korxonalarida yengil va yuk avtomobili, tirkama (pritsep) va yarim tirkama yuk tashish moslamalari, avtomobilarga ehtiyoq qismlar, agregatlar va boshqa ehtiyoq qismlar ishlab chiqariladi. Shuningdek, mototsikllar, motorollerlar, mopedlar, velosiped ishlab chiqarish korxonalari ham avtomobil sanoati tarkibiga kiradi.	70,3	101,3	173,3	197,0	
<i>Avtomobil sanoati</i> – mashinasozlikning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning korxonalarida yengil va yuk avtomobili, tirkama (pritsep) va yarim tirkama yuk tashish moslamalari, avtomobilarga ehtiyoq qismlar, agregatlar va boshqa ehtiyoq qismlar ishlab chiqariladi. Shuningdek, mototsikllar, motorollerlar, mopedlar, velosiped ishlab chiqarish korxonalari ham avtomobil sanoati tarkibiga kiradi.	172,6	144,0	123,6	113,7	

O'zbekiston sanoat tarmoqlari majmuasida yuqori o'rindarda turadi.

Samolyotsozlik korxonasida II. va TU rusumli samolyotlar ishlab chiqariladi.

Qishloq xo'jaligi mashinasozligi 1931-yil «Toshqishloqmash» zavodining birinchi navbatni ishga tushirildi. Zavod paxtachilik uchun xilma-xil texnikalar ishlab chiqara boshladi. Hozirgi paytda bu tarmoq korxonalari qishloq xo'jaligi uchun mashinalar tizimiga tegishli bareha mashina-mezhanizmlarni yetarli darajada ishlab chiqarmoqda.

Paxta tozalash sanoati mashinasozligi «O'zbekpaxtamash» birlashmasida jamlangan. Uning tarkibida Toshkent mashinasozlik zavodi (bosh korxona), Andijon «Tojmetall» zavodi va Kattaqo'rg'on «Paxtamash», Chustdagi «Olmospaxtamash» zavodlari, Toshkent davlat maxsus paxta tozalash uskulalari konstrukturlik byurolari bor. Bu sohaning asosiy mahsulotlari – paxta tayyorlash punktlari, paxta tozalash zavodlari uchun texnologik qurilmalar, arrali va jo'vali (valikli) paxta tolasi ajratish (jun) mashinalari, linterlar, tola tozalagichlar, chigit saralash va tozalash mashinalari, transportyorlar,

karam buzgichlar, tunnel ochish mashinalari, chang tutish mashinalari, shuningdek, kanopni qayta ishlash mashina va qurilmalari – jami 50 xil dan ortiq mahsulot turlarini o‘z ichiga oladi.

MAVZU BO‘YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. Tadbirkorlik faoliyati nimadan iborat va uning xususiyatlari?
2. Tashkilot bu bozor munosabatining alohida subyekti deganda nimani tushunasiz?
3. Tashkilotning qaysi faoliyat tomonlari normativ-huquqiy aktlar bilan tartibga solinadi?
4. Tashkilot ish faoliyatini tartibga soladigan qonun chiqaruvchi aktlarga misol keltiring.
5. Tashkilotlarning asosiy tashkiliy-huquqiy shakllari.
6. Xo‘jalik yuritish huquqiga va operativ boshqarish huquqiga asoslangan davlat qo‘shma tashkilotlarining asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
7. Ma’suliyati cheklangan jamiyatning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Aksionerlik jamiyatining xususiyatlariaga nimalar kiradi?
9. Tashkilotlarni klassifikatsiyalashtirishda asosiy ko‘rsatkich nimadan iborat?
10. Qaysi mashinasozlik korxonalari kichik, o‘rta va yirik kiradi?
11. Birlashgan korxona (tashkilot) larning asosiy shakllari qaysilar?

2-bob. MASHINASOZLIK SANOATI KORXONALARING ISHLAB CHIQARISH FONDLARI

2.1. Ishlab chiqarish fondlarining iqtisodiy mohiyati va ularning ta’rifsi

Ishlab chiqarish jarayonida uning muhim elementlari - ishlab chiqarish vositalari va ish kuchi o‘rtasida o‘zarlo aloqalar sodir bo‘ladi. Ishlab chiqarish vositalari o‘zining ish jarayonida bajaradigan roliga qarab, mehnat vositalari va mehnat buyumlariga bo‘linadi.

Mehnat vositalari - inson mehnat buyumlariga ta'sir qiladigan va ularni o'zgartiradigan moddiy vositalar majmui Ishlab chiqarish jarayonida inson moddiy boylik yaratish maqsadida ta'sir qiladigan barcha narsalar mehnat buyumlaridir.

Mehnat vositalari - asosiy fondlarni, mehnat buyumlari esa aylanma fondlarni tashkil etadi.

Asosiy va aylanma fondlar korxona, tarmoq va butun xalq xo'jaligining ishlab chiqarish fondlarini tashkil etadi.

Ishlab chiqarish fondlarining tasnifi

Ishlab chiqarish fondlarining asosiy va aylanma fondlarga bo'linishi asosida ishlab chiqarish vositalarining mehnat vositalariga hamda mehnat buyumlariga bo'linishi va ularning ishlab chiqarish jarayonlarida turlicha qatnashuvi yotadi.

Asosiy va aylanma fondlarning sifat ta'riti quyidagi jadvalda keltirilgan.

2- jadval

Asosiy va aylanma fondlarning sifat ta'riti

Farqlovchi belgilari	Asosiy fondlar	Aylanma fondlar
1. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashish turi	Mehnat vositasi sifatida	Mehnat buyumlari sifatida
2. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashish xususiyati	Ishlab chiqarish jarayonida ko'p marta qatnashadi	Ishlab chiqarishning har bir yangi siklida to'la iste'mol qilinadi (bir marta qatnashadi)
3. Tayyor mahsulotga qiy-matini o'tkazish usuli	Tayyor mahsulotga butun xizmat muddati davomida yemirilgan qiymatini ayrim qismlarga bo'lib o'tkazadi	Tayyor mahsulotga o'z qiymatini to'la va bir yo'la o'tkazadi
4. Natural shaklining	Xizmat mud-	Natural shaklini

o'zgarishi	datining oxiri-gacha o'z natu-ral shaklini saq-lab qoladi	saqlab qolmaydi. O'zining jismoniy shaklini, ko'pincha moddiy tarkibini ham bir yo'la o'zgartiradi
------------	---	--

Sanoatning asosiy fondlari mehnat vositalari bo'lib, ular ishlab chiqarish jarayonida ko'p marta qatnashadi va sekin-asta yemirilgan sayin o'z qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotga o'tkazib boradi hamda o'z natural shaklini saqlab qoladi. Xizmat muddati bir yildan kam bo'lgan mehnat vositalari asosiy fondlarga kiritilmaydi. Aylanma ishlab chiqarish fondlari bir ishlab chiqarish jarayonida o'z qiymatini tayyor mahsulotga to'la-to'kis o'tkazadi hamda o'zining moddiy shaklini batamom o'zgartiradi.

Mashinasozlik sanoati korxonalarida turli mehnat vositalaridan foydalilanadi. Ular yordamida mehnat buyumiga ta'sir qilinadi va mehnat buyumlari inson talablarini qondiradigan holga keltiriladi.

2.2. Mashinasozlik sanoatining asosiy ishlab chiqarish fondlari, ularning iqtisodiy mazmuni va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishdagi ahamiyati

Ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashadigan yoki uning amalga oshishi uchun yaxshi sharoit yaratib beruvchi melnat vositalariga ishlab chiqarish asosiy fondlari deyiladi. Ishlab chiqarishda qatnashmaydigan mehnat vositalariga noishlab chiqarish asosiy fondlari deyiladi. Ularga turai joy binolari, klublar, bolalar bog'chalari, maktabgacha muassasalar, mакtablar, sog'liqni saqlash obyektlari va boshqalar kiradi.

Mashinasozlik korxonalariga qarashli ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlari shu korxonalarning asosiy fondlarini hosil qiladi. Hozirgi vaqtida respublikamizning xalq xo'jaligida ishlab turgan asosiy fondlarni 100% deb qarasak, shundan ishlab chiqarish fondlarining ulushi 68 % ni va noishlab chiqarish fondlarining ulushi esa 32% ni tashkil qiladi.

Mashinasozlik sanoatida noishlab chiqarish asosiy fondlarining korxonalar asosiy fondlari summasidagi salmog'i ham ancha katta. Noishlab chiqarish fondlarining muttasil o'sib borishi - jamiyatning moddiy va madaniy turmush darajasi oshishining eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

2.3. Mashinasozlik sanoati asosiy fondlarning tasnifi va ularning o'ziga xos xususiyatlari

Ishlab chiqarish asosiy fondlarining yangilanish va takomillashuviga sanoat korxonalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kengaytirishda yangi asosiy fondlarni yanada yuqoriq texnik darajada yaratish yo'li bilan, shuningdek ishlab turgan korxonalarning sanoat uskunalarini modernizatsiyalash, yemirilgan hamda ma'naviy eskirgan ishlab chiqarish fondlarini yangilash asosida erishiladi.

Ishlab chiqarish jarayonida, turli mehnat vositalari, turlicha rol o'ynaydi. Kengaytirilgan ishlab chiqarishni rejalashtirish, amortizatsiya jamgarmalarini hisobga olish va ularni aniqlash uchun asosiy ishlab chiqarish fondlari tur va guruhlarga bo'linadi.

Asosiy fondlar ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Egalik bo'yicha: davlatniki, xususiy, qo'shma, xorijiy
2. Foydalanish bo'yicha: faoliyatdagি, harakatsiz, konservatsiya qilingan, ijara berilgan va rezervdagи fondlar.
3. Ishlab chiqarishda qatnashishi bo'yicha: ishlab chiqarishda bevosita qatnashuvchi (sanoat ishlab chiqarish) asosiy fondlar va ishlab chiqarishda qatnashmaydigan (nosanoat) asosiy fondlar.

4. Sanoatda qabul qilingan yagona tasnif bo'yicha asosiy fondlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Binolar, qurilish obyektlari texnologik jarayonlarning maromli o'tishini ta'minlaydi. Bu guruhga: sexlarning ishlab chiqarish binolari, ma'muriy-maishiy kombinatlarning binolari, ishlab chiqarish laboratoriyalari, omborlar kiradi.

2. Inshootlar - mehnat buyumini o'zgartirish bilan bog'liq bo'limgan texnik vazifalarni bajarishga mo'ljallangan muhandislik obyektlari. Bular tarkibiga tonnellar, ko'priklar kiradi.

3. Uzatish qurilmalari - bu qurilmalar yordamida elektr, issiqlik va mexanik energiya, shuningdek, turli moddalar bir obyektdan boshqasiga uzatiladi.

4. Mashina va uskunalar; a) ish mashinalari va uskunalar; bular mehnat buyumlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi (metall qirquvchi va ishlov beruvchi stanoklar, quyuvchi mashinalar, termik pechlar, galvanik, ko'taruvcchi transportlar).

b) kuch mashinalari va uskunalar - energiya ishlab chiqaruvchi va hosil qiluvchi elektrosvigatellar, generatorlar, dizel uskunalar.

d) o'lechov va boshqarish asboblari va qurilmalari hamda laboratoriya uskunalari; hisoblash texnikasi va boshqa mashina hamda uskunalar.

5. Transport vositalaridan ishlab chiqarishning ayrim bog'intlari o'rtaсидagi aloqalarni amalga oshirishda foydalilanadi. Ulardan korxonalar ichida hamda ulardan tashqarida odam va yuklarni tashishda foydalilanadi. Bu guruhg'a elektrovozlar, vagonlar, avtomobillar, traktorlar, tyagachlar, avtokaralar, elektrokaralar va hokazolar kiradi.

6. Instrument va moslamalar.

Barcha turdag'i asboblar-mexanizatsiyalashtirilgan va mexanizatsiyalashtirilmagan asboblar: mehnat buyumlariga ishlov berishga mo'ljallangan mehnat qurollari va moslamalar kiradi.

7. Ishlab chiqarish va xo'jalik inventari.

Ishlab chiqarish inventari - texnik maqsadlarga mo'ljallangan, suyuqliknii saqlashga mo'ljallangan buyumlar, tara, mebellar, xo'jalik inventari, idora buyumlari, veshalkalar, garderobler, stollar, shkaflar, yozuv mashinalari, hujjatlarni ko'paytiruv apparatlari, o't o'chirish buyumlari.

8. Xo'jalik ichidagi yo'llar.

9. Boshqa asosiy fondlar.

Ijaraga olingan binolar uchun kapital mablag'lar, uskunalar va boshqa obyektlar.

Asosiy fondlarning tasnifi doimiy emas va u vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Asosiy ishlab chiqarish fondlari mashinasozlik korxonasining ishlab chiqarish jarayonida bajaradigan roliga qarab faol va nofaol asosiy fondlarga bo'linadi.

Faol asosiy ishlab chiqarish fondlari: mehnat buyumining tayyor mahsulotga aylanishiда bevosita qatnashadi. Mashinasozlik sanoatida bu fondlarga mashinalar va uskunalar, instrument va moslamalar, transport vositalari kiradi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining nosaol qismi- ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirot etmaydi, lekin ishlab chiqarish jarayonining me'yorda olib borish uchun shart-sharoit yaratib beradi (inshootlar, binolar, xo'jalik inventari va hokazolar).

Korxonaning asosiy fondlarini tahlil qilishda ularning strukturasi alohida o'rinn tutadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining strukturasi deb uni tashkil etuvchi har bir guruhning umumiyligi qiymatidagi foizlarda ulushiga aytildi. Asosiy fondlarning strukturasi faol qismning ulushi nosaol qismiga nisbatan oshib borsa, bu asosiy fondlar strukturasining yaxshilanib borishini ko'rsatadi.

3- jadval

Sanoat tarmoqlari bo'yicha asosiy ishlab chiqarish fondlarining turlari bo'yicha strukturasi (foizlarda yil oxiriga nisbatan)

Yillar	<i>Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlari</i>	Shuningdek:						
		Binolar	Inshootlar	Uzatuvchi qurilmalar	Mashina va uskunalar	Transport vositalari	Boshqa asosiy fondlar	
<i>Jami sanoat tarmoqlari</i>								
2005	100	16,2	15,9	12,6	47,2	6,8	1,3	
2006	100	15,9	18,3	13,0	45,0	6,5	1,3	
2007	100	14,9	21,1	12,3	44,0	6,5	1,2	
2008	100	14,7	22,8	12,0	43,0	6,2	1,3	
<i>Elektroenergetika</i>								
2005	100	10,7	14,5	34,9	37,9	1,5	0,5	
2006	100	10,4	14,3	36,7	36,6	1,6	0,4	
2007	100	11,2	14,7	34,3	37,9	1,5	0,4	
2008	100	10,6	14,0	36,6	37,0	1,4	0,4	
<i>Yoqilg'i</i>								

2005	100	10,2	39,2	19,9	27,1	2,8	0,8
2006	100	8,2	46,1	20,0	22,1	2,9	0,7
2007	100	7,2	50,3	17,4	21,6	2,9	0,6
2008	100	6,9	53,9	15,7	19,7	2,8	1,0
Qora metallurgiya							
2005	100	26,2	6,7	0,9	62,3	3,4	0,5
2006	100	25,8	6,8	0,8	62,3	3,9	0,4
2007	100	24,6	7,0	0,7	62,6	4,6	0,5
2008	100	26,2	6,7	0,9	62,3	3,4	0,5
Rangli metallurgiya							
2005	100	11,4	11,0	7,7	49,6	19,7	0,6
2006	100	11,7	11,7	7,5	49,9	18,7	0,5
2007	100	17,6	11,7	7,4	49,8	19,0	0,5
2008	100	11,2	12,9	7,0	51,0	17,4	0,5
Kimyo va neftkimyo							
2005	100	31,7	10,8	8,1	44,3	4,3	0,8
2006	100	31,9	9,7	10,8	42,9	3,8	0,9
2007	100	30,5	10,4	13,6	43,6	4,1	0,8
2008	100	30,9	10,1	10,4	43,7	3,9	1,0
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash							
2005	100	19,3	2,1	0,9	74,1	2,5	1,1
2006	100	19,6	1,9	0,9	74,1	2,6	0,9
2007	100	19,3	2,9	0,8	73,2	2,8	1,0
2008	100	20,4	3,0	0,8	71,8	2,9	1,1
Qurilish materiallari sanoati							
2005	100	17,7	14,2	3,0	51,1	10,9	3,1
2006	100	16,6	14,0	3,2	51,3	11,3	3,6
2007	100	16,3	14,4	3,6	50,0	12,2	3,5
2008	100	16,6	14,8	3,4	50,6	11,7	2,9
Yengil sanoat							
2005	100	26,9	5,2	2,0	60,1	3,6	2,2
2006	100	28,8	4,7	1,7	59,3	3,1	2,4
2007	100	29,4	4,8	2,0	52,4	4,8	6,6
2008	100	27,4	5,2	1,8	60,8	2,5	2,3
Oziq-ovqat sanoati							
2005	100	30,4	4,6	1,8	52,0	4,7	6,5

2006	100	29,9	4,2	1,8	52,3	4,7	7,1
2007	100	29,4	4,8	2,0	52,4	4,8	6,6
2008	100	29,2	4,2	1,9	54,1	4,6	6,0
Boshqa sanoat tarmoqlari							
2005	100	24,7	6,3	2,7	60,0	3,2	3,1
2006	100	26,0	9,0	2,5	57,5	2,8	2,2
2007	100	24,7	9,8	2,3	57,0	3,5	2,7
2008	100	25,4	9,9	2,1	56,6	3,7	2,3

O'zbekiston sanoatida asosiy fondlarning faol va nofaol qismlarining salmog'i tarmoqlar bo'yicha turlichadir.

Asosiy fondlar strukturasi ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ulardan muhimlari sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarishga oid xususiyatlaridir.

Sanoat tarmoqlari bo'yicha asosiy ishlab chiqarish fondlarining taxminiy strukturasi 3-jadvalda berilgan.

O'zbekiston sanoatida asosiy fondlarning faol qismi ulushi 50,5% bo'lgan holda, qurilish materiallari sanoatida 65,2% ni, mashinasozlik sanoati majmuida 75,80% ni tashkil qiladi.

2.4. Sanoat korxonalarida nomoddiy aktivlar

Bozor munosabatlariiga o'tishi davrida iqtisodiy yangi ko'rsatkichlar paydo bo'lmoqda: nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli investitsiyalar, gudvill, lizing, qimmatli qog'ozlar bozori, ish va bozor faolligi va boshqalar.

Korxona rahbarlari, iqtisodchilar va moliviyyi menejerlar ushbu tushunchi va atamalar haqida tasavvurcha ega bo'lishi, ishlab chiqarish va tijorat faoliyatida ularni qo'llashi, o'z vaqtida zarur qarorlarni chiqarishlari shart. Mazkur bobda nomoddiy aktivlarning har xil turlari, taysisi va baholash usullari ko'rib chiqilgan.

Nomoddiy aktivlar – bu huquqiy va nomoddiy resurslar bo'lib, ular bozor sharoitida korxonalar faoliyatining o'sib borishida ustunlik beradi.

Bu aktivlarga:

- muassislik huquqi;

- patentlar;
- savdo belgilari;
- firma nufuzi;
- kompyuter dasturlari;
- reklama xarajatlari;
- tashkiliy xarajatlari;
- litsenziyalar;
- ijara shartnomalari;
- franchayzing va boshqalar kiradi.

Amaliyotda nomoddiy aktivlar quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

- tijorat maqsadida – ustav sarmoyaga badal sifatida, oldi-sotdi jarayonida foydalanish uchun, ehtimoliy zararlarini qoplash uchun; korxona balansini hisoblashda.

2.5. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining yemirilishi va amortizatsiyasi

Asosiy fondlarni saqlash va ulardan foydalanish samaradorlik darajasini nazorat qilish uchun mashinasozlik korxonalariga tegishli barcha asosiy fondlarni pul va natural formada hisobga olish, asosiy uchastkalar, sexlar va korxonalar bo'yicha ishlab chiqarish dasturini tuzish va ularning ish natijalarini tablit qilish uchun zarurdir. Asosiy fondlarning pul shakli ularning umumiy qiymatini aniqlash, amortizatsiya ajratmalar miqdorini va qayta tiklash uchun kerakli mablag'larini aniqlash uchun kerak.

Asosiy fondlarning pul hisobidagi qiymati asosiy mablag'lar deb yuritiladi. Asosiy fondlarning uzoq vaqtgacha asta-sekin yemirilib xizmat qilishi ma'lum. Bu vaqt davomida asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish sharoitlari ham o'zgaradi. Bu hol asosiy fondlarni pul bilan baholashning maxsus usullaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi.

Korxona ishlab chiqarish jarayonining moddiy manbaini ishlab chiqarish vositalari tashkil qiladi. Korxonaning asosiy va aylanma fondlari ana shunday ishlab chiqarish vositalariga kiradi.

Asosiy fondlar tabiiy ravishda turli birliklarda ifodalanishi mumkin. Masalan, binolar – kub metr (m^3), texnologik asbob-uskuna, pribor, apparatlar – dona, kuch mashinalari (dvigatellar) – quvvatlarda ifodalanadi.

Asosiy fondlarning har qaysi birligi ma'lum (baho) qiymatga ega bo'лади. Ularning umumiy qiymati asosiy fondlarning narxlarini aniqlashda: dastlabki, to'liq tiklangan, qoldiq va ishlab chiqarishdan olingen paytdagi narx turlari qo'llaniladi.

Asosiy fondlarning dastlabki to'liq narxi ($N_{to:t}$), asosiy fondlarni qurish, sotib olish, korxonaga keltirish, ularni o'rnatish uchun sarflangan xarajatlardan tashkil topadi va u quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$N_{to:t} = X_{qs} + X_{tr} + X_{yo}.$$

bunda:

$N_{to:t}$ — asosiy fondlarning dastlabki to'liq narxi, so'm;

X_{qs} — asosiy fondlarni qurish, sotib olish uchun sarflangan xarajatlар, so'm;

X_{tr} — asosiy fondlarni korxonaga keltirish uchun ketgan transport xarajatlari, so'm;

X_{yo} — asosiy fondlarni yig'ishi va o'rnatish uchun sarflangan xarajatlар, so'm.

Asosiy fondlarning qoldiq narxi uning dastlabki to'liq narxidan qo'yilgan qiymatni olib tashlangandan keyingi narx hisoblanadi va u quyidagi tenglama orqali topiladi:

$$N_q = N_{to:t} - (A_{um} + A_{mt}) \cdot t$$

bunda:

N_q — asosiy fondlarning qoldiq narxi, so'm;

$N_{to:t}$ — asosiy fondlarning dastlabki to'liq narxi, so'm;

A_{um} — asosiy fondlar amortizatsiya ajratmasining umumiy yillik qiymati, so'm;

A_{mt} — asosiy fondlarning mukammal ta'mirlash va yangilash uchun yillik amortizatsiya ajratmalari, so'm;

t - asosiy fondlarning veyilgan qiymati aniqlanishi kerak bo'lgan davr, yil.

Asosiy fondlarning tiklanish qivmati (F_{nk}) quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$F_{nk} = (N_{tot} - X_{main}) \cdot K_{int}$$

bunda:

N_{tot} - asosiy fondlarning dastlabki to'liq narxi, so'm;

K_{int} - inflyatsiya tempi;

X_{main} - asosiy fondning ma'naviy yemirilish hajmi.

Asosiy fondlarning amortizatsiya ajratmalari miqdori quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$A = \frac{N_{tot} + K_t + M - L}{t}$$

bunda:

N_{tot} - asosiy fondlarning dastlabki to'liq narxi, so'm;

K_t - kapital tamir sarfi, so'm.

M - modernizatsiya uchun sarf, so'm;

L - asosiy fondning qoldiq qiymati yoki lom, so'm;

t - asosiy fondning normativ bo'yicha xizmat qilish muddati.

2.6. Asosiy fondlarning yemirilishi

Asosiy fondlarning yemirilishi ulardan foydalanish davrida qiymatini tayyorlangan mahsulotga o'tib borishi natijasida asta-sekin o'z qiymatlarini yo'qotib borishlari demakdir. Asosiy fondlar jismoniy va ma'naviy yemiriladi.

Masalan, asosiy fondlarni ishlatishdagi aniqligi yoki unumdorligida kamchiliklar kelib chiqsa, ular jismoniy yemirilgan hisoblanadi.

Jismoniy yemirilishning ikki shakli mavjud:

Asosiy fondlarni ishlatish natijasida va tabiiy sharoitlar ta'siida sodir bo'ladigan yemirilish.

Masalan: jismoniy yemirilish asosiy fondlarni ishlash vaqtida ham, ular bekor turganda ham (materiallar tarkibining atmosfera sharoitlari ta'sirida yemirilishi) sodir bo'lishi mumkin.

Jismoniy yemirilish sodir bo'layotgan qismi ta'mirlash orqali yo'qotiladi. To'liq jismoniy yemirilish asosiy vositalarni yangilash orqali tugatiladi.

Quyidagi 4- jadvalda sanoat tarmoqlari bo'yicha asosiy ishlab chiqarish fondlarining yemirilish darajasi keltirilgan.

4- jadval ma'lumotlariga ko'ra, mashinasozlik sanoatida asosiy fondlarning yemirilish darajasi 2007-yilda 72,0 %, 2008-yilda 68,2 %ni tashkil etdi.

Asosiy fondlarning foizlarda aniqlangan yemirilish darajasi ularning haqiqiy xizmat muddatini me'yoriylig muddatga taqsimlab hisoblanadi.

Jismoniy yemirilishni aniqlash asosiy fondlar qoldiq qiymatini aniqlash va eskirib qolgan mashinalarning yangilariga almashtirishni rejalashtirish uchun zarur.

Mashina va uskunalar va boshqa asosiy fondlar jismoniy yemirilishdan tashqari ma'naviy yemiriladi, o'zining texnik o'lehamlari va iqtisodiy samaradorligi jihatidan orqada qoladi.

4- jadval
Sanoat tarmoqlari bo'yicha asosiy ishlab chiqarish fondlarining yemirilishi
 (asosiy fondlarning umumiy qiymatidan yil oxiriga nisbatan foizlarda)

	2005-y	2006-y	2007-y	2008-y
Jami sanoat tarmoqlari:	49,8	48,1	48,0	47,1
<i>Shuningdek:</i>				
<i>Elektroenergetika</i>	48,3	53,0	55,5	55,4
<i>Yoqilg'i</i>	31,4	30,5	30,5	31,8
<i>Qora metallurgiya</i>	56,2	47,1	52,4	53,8
<i>Rangli metallurgiya</i>	62,1	60,5	59,5	58,8
<i>Kimyo va neftkimyo</i>	63,1	56,8	58,6	59,7
<i>Mashinasozlik va metallni</i>	71,2	73,1	72,0	68,2

<i>qayta ishslash</i>				
<i>O'rmon, yog'ochni qayta ishslash va sellyulzoza-qog'oz</i>	35,9	40,4	43,3	43,2
<i>Qurilish materiallari sanoati</i>	56,7	52,4	48,5	44,6
<i>Yengil sanoat</i>	30,7	24,5	25,2	24,6
<i>Oziq-ovqat sanoati</i>	59,3	60,1	61,5	52,8
<i>Boshqa sanoat tarmoglari</i>	33,1	32,2	36,8	39,5

2.7. Amortizatsiya me'yori va uning miqdorini belgilovchi omillar

Asosiy fondlardan foydalanish davrida yemirilish hisobiga o'z qiymatini asta-sekin tayyorlangan mahsulotga o'tkazib borish jarayoni asosiy fondlarning amortizatsiyasi deyiladi.

Korxona mulkidan foydalanish muddatlari bo'yicha amortizatsiya guruhlariga bo'linadi.

Foydalanish muddatini aniqlashda quyidagi omillar e'tiborga olinadi:

- asosiy vositalardan foydalanish muddati uni ishlab chiqarishda kutiladigan unumдорлиги yoki foydalanish quvvatiga muvofiqligi;

- foydalanish tartibi, tabiiy sharoit va agressiv muhit ta'siridan kutiladigan jismoniy yemirilish

- ushbu obyektning foydalanish me'yoriy-huquqiy cheklanmalarini

Korxona mulki quyidagi amortizatsiya guruhlariga birlashtirilgan:

1-guruh - 1-2 yilgacha xizmat qiladigan, arzon narxli va tez yemiriladigan mulk;

2-guruh - 3 yilgacha (muddatga ega bo'lgan mulk) xizmat qiladigan mulk;

3-guruh - 3-5 yilgacha (muddatgacha ega bo'lgan mulk) xizmat qiladigan mulk;

4-guruh - 5-7 yilgacha (muddatgacha ega bo'lgan mulk) xizmat qiladigan mulk;

5-guruh - 7-10 yilgacha (muddatgacha ega bo'lgan mulk);

6-guruh - 10-15 yilgacha (muddatgacha ega bo'lgan mulk);

7-guruh - 15-20 yilgacha (muddatgacha ega bo'lgan mulk);

8-guruh - 20-25 yilgacha (muddatgacha ega bo'lgan mulk);

9-guruh - 25-30 yilgacha (muddatgacha ega bo'lgan mulk);

10-guruh - 30 yilgacha (muddatgacha ega bo'lgan mulk).

$$A_{\text{v}} = N_{\text{v},y} \cdot \frac{1}{100}$$

bunda:

$N_{\text{v},y}$ - asosiy fondlarning dastlabki to'sliq narxi.

Korxona bo'yicha amortizatsiya ajratmalarining jamini aniqlash uchun ularning amortizatsiya me'yorlari va tonna stavkasi orqali hisoblangan miqdorlari qo'shiladi.

Mashinasozlik korxonalarida asosiy vositalarning shakllanishi uarni sotib olish yoki yaratish yo'li orqali amalga oshiriladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalarda bino va inshooatlarning qurilishi va uskunalarni sotib olish orqali shakllangan asosiy vositalarning texnik xarakteristikasi mahsulot ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarga mos kelishi kerak.

Yangi tashkil etiladigan korxonalarda asosiy fondlarni sotib olish va yaratish uchun moliyaviy resurslar manbai bo'lib ta'sischiarning xususiy mablag'lari, uzoq muddati kreditlar va boshqa moliyaviy manbalar hisoblanadi. Faoliyatdagi korxonalar uchun amortizatsiya ajratmalarni va korxona hisobida qoladigan foyda asosiy manba hisoblanadi.

Mahsulotni sotish korxona uchun ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash uchun imkoniyat yaratadi. Amortizatsiya ajratmalariga teng bo'lgan tushumning bir qismi korxona hisobida qoladigan foyda qismi bo'lib hisoblanadi. Jamg'arma fondi asosiy vositalarni tiklash ko'rsatkichlari:

a) Asosiy fondlarning yangilanish koefitsienti bir yil ichida joriy etilgan asosiy fondlar qiymatining yil oxiridagi asosiy fondlar umumiy qiymatiga nisbati ko'rinishida ifodalanadi.

b) Asosiy fondlarning yemirilish koefitsienti ularning yemirilish qiymatining dastlabki qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi.

d) Asosiy fondlarning butunlay ishdan chiqish koefitsienti bir yil ichida ishdan chiqqan asosiy fondlar qiymatining yil boshidagi fondlar qiymatiga nisbati ko'rinishida hisoblanadi.

2.8. Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari va ularni yaxshilash yo'llari

Ishlab chiqarishdagi ijtimoiy mehnat unumdonligining o'sib borishi: mahsulot miqdorining ortishi, moddiylashtirilgan mehnat sarfining qisqarishi, yangi asosiy fondlar uchun kapital mablag'larning iqtisod qilib qolish, bular natijasi sifatida ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxining pasayishi va ishlab chiqarish rentabelligining ortishi orqali asosiy fondlar samaradorligini ifodalaydi.

Ishlab chiqarishda asosiy fondlardan qay darajada foydalanganligini tavsiflash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalilanadi.

- Fond samaradorligi. Bu ko'rsatkich asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatining bir so'miga to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini ko'rsatadi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$F_{sm} = M / F_a$$

bunda:

M - - yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, so'm;

F_a --- asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymati, so'm.

Fond sig'imi - fondning samaradorligiga teskari ko'rsatkich bo'lib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$F_{sig.} = \frac{F_a}{M}$$

Ishlab chiqarishning fond bilan ta minlanganlik ko'rsatkichi:

$$F_k = F_a / n$$

bunda:

n --- ishchilarning soni.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi ekstensiv, intersiv va integral ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi:

1. Asosiy fondlarning ekstensiv bandlik ko'rsatkichi ularдан vaqt bo'yicha foydalanish darajasini ko'rsatadi va quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{et} = T_{b,q} / T_{rej}$$

bunda:

$T_{b,q}$ --- dastgohlarning haqiqiy ishlagan vaqt;

T_{rej} — dastgohlarning rejada ko'rsatilgan ishlash vaqtı.

2. Asosiy fondlarning intensiv bandlik ko'rsatkichi asosiy fondlardan quvvati bo'yicha foydalanishni ko'rsatadi, u quyidagicha ar iqlanadi:

$$K_m = M_{haq} / M_{rej}$$

bunda:

M_{haq} — vaqt birligida ma'lum dastgohda haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori;

M_{rej} — rejaga asosan vaqt birligida mazkur dastgohda ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori.

Asosiy fondlarning integral bandligining ko'rsatkichi bu ekstensiv va intensiv bandlik ko'rsatkichlarining ko'paytmasiga teng bo'ladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{int} = K_{ek} * K_m$$

Asosiy fondlarning smenalik koeffitsientini oshirish samaradorlikni oshirishning eng muhim rezervi hisoblanadi. U quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{sm} = \frac{N_{I,II} + N_{III}}{N_{int}}$$

bu yerda:

N_I, N_{II}, N_{III} — birinchi, ikkinchi, uchinchi smenada ishlagan dastgochlari soni; N_{int} — korxona, sex, uchastkaga o'rnatilgan dastgohlarning umumiyyoti.

Ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanish ko'rsatkichi ishlab chiqarish bir kvadrat metr ($1m^2$) maydonidan olingan mahsulot miqdorini ko'rsatadi va quyidagicha ifodalanadi:

$$d = M / S,$$

bunda:

M — ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (kg, tonna, dona)

S — ishlab chiqarish maydoni (m^2)

Asosiy fondlarni rejalashtirish va ularidan foydalanish amaliyotida ma'lum korxona yoki tarmoq uskunalaridan foydalanishni ifodalaydigan boshqa ko'rsatkichlardan ham foydalaniлади.

- Ishlab turgan uskunalaridan foydalanish koeffitsienti shu turdag'i uskunalar sonining korxonadagi uskunalar umumiy soniga nisbati orqali aniqlanadi.

Korxonada mavjud bo'lgan asosiy fondlarning miqqori mehnatning fondlar bilan ta'minlanganlik darajasi asosiy fondlarning yemirilish, ishdan chiqish va yangilanish koeffitsientlarini ifodalashi mumkin.

- Mehnatning fondlar bilan ta'minlanganlik darajasi bir yilda ishlab chiqarishda band bo'lgan bir xodimga yoki korxonaning bir ishechisi hisobiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish asosiy fondlarining qiymatini ko'rsatadi.

- Asosiy fondlarning yemirilish koeffitsienti ularning yemirilish qiymatining dastlabki qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi.

- Asosiy fondlarning butunlay ishdan chiqish koeffitsienti bir yil ichida ishdan chiqqan asosiy fondlar qiymatining yil boshidagi fondlar qiymatiga nisbati ko'rinishida hisoblanadi.

- Asosiy fondlarning yangilanish koeffitsienti bir yil ichida kiritilgan asosiy fondlar qiymatining yil oxiridagi asosiy fonclar umumiy qiymatiga nisbati ko'rinishida ifodalananadi.

Asosiy fondler samaradorligini aniqlashda ulardan ekstensiv va intensiv ravishda foydalanish yo'llari mavjud:

1. Ekstensiv yo'llar quyidagilarga bog'liq:

- harakatdagi uskunani kalendar davrdagi ish vaqtini oshirish va ishlab chiqarish maydonlarining yuklanishini ko'paytirish;

- korxonadagi barcha uskunalar tarkibida harakatdagi uskunalar sonini oshirish.

Harakatdagi uskunalar ish vaqtini oshirishning quyidagi yo'llari mavjud:

- smenalar orasidagi uskunalarning to'xtab turish vaqtlanini qisqartirish, texnik xizmat ko'rsatishni takomillashtirish va ishlab chiqarishni o'z vaqtida xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yarim fabrikatlar bilan ta'minlash, rejalashtirish va dispatcherlik xizmatini yaxshilash;

- uskunalarning yuklanish darajasini oshirish;

-yordamchi xo'jaliklardagi ishlarni takomillashtirish hisobiga uskunalarning foydalanish koeffitsienti oshirish.

-ta'mirlash ishlarni tashkil etishni takomillashtirish va muddatlarini qisqartirish;

-ishlab chiqarishga zatur bo'lgan, o'rnatilmagan uskunalarni jalg etish;

- harakatsiz uskunalarni yo'qotish (ro'yxatdan chiqarish, arenadaga berish, lizingga berish, sotish).

2. Mahsulot miqdori va ma'lum vaqt birligida ish hajmini ko'paytirish intensiv ravishda foydalanish bilan ta'minlanadi va quyidagilardan iborat:

- asosiy vositalarni texnik takomillashtirish va yangilash, eskirgan texnikani yangisiga almashtirish;

- yuqori sifatli va samarali asosiy vositalarni kiritish;

- mexanizatsiya va avtomatzatsiya darajasini ko'tarish;

- egiluvchan ishlab chiqarish tizimlarini qo'llash;

-yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi ishlarni mexanizatsiyalash-tirish;

- progressiv texnologik jarayonlar, maxsus moslamalar va asobablarni tatbiq etish;

- texnik tayyorgarlikni takomillashtirish;

- uskunalarning optimal ish tartiblaridan foydalanish;

- texnologik jarayonlar va ishlab chiqariladigan mahsulot sifat lablariiga muvofiq keladigan sifatli xomashyo, material va yarim fabrikatlar bilan ta'minlash;

- ishechi-xodimlarning malakasi va kasb mahoratini oshirish.

Mashinasozlik korxonalarida asosiy vositalarning samarali foydalanish darajasini oshirishda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish alohida o'r'in tutadi. Bu quyida ko'rsatilgan yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi:

- asosiy vositalarni optimal ishlab chiqarish va texnologik tuzilmasini shakllantirish;

- ishlab chiqarish ritmini muvofiqlashtirish;

- ishlab chiqarishda rejalashtirishni takomillashtirish; uskuna va ishlab chiqarish maydonchalarini to'liq yuklash; mehnatni ilmiy tashkil etish usullaridan faol foydalanish;

- ishlab chiqarishni boshqarishda zamонавиу техник ва programmalashtirilgan dasturlardan foydalanish;

- ishchi-xodimlar uchun iqtisodiy rag`batlantirish tizimlarini rivojlantirish va ulardan to`g`ri foydalanish;

- korxona muayyan sharoitlaridan kelib chiqqan holda va ko`rsatkichlarni to`g`ri tahlil qilish asosida asosiy vositalardan foydalanishning eng maqbul yo`llari tanlanadi.

MAVZU BO`YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. Mahsulot ishlab chiqarishda ishlab chiqarish fondlarining ahamiyati.
2. Ishlab chiqarish fondlarining iqtisodiy mohiyati va ularning tasnifini tushuntirib bering.
3. Mashinasozlik sanoatining asosiy ishlab chiqarish fondlari va kengaytirilgan ishlab chiqarishda ularning ahamiyati nimadaligini tushuntirib bering.
4. Mashinasozlik sanoatining asosiy ishlab chiqarish fondlarining tuzilishi va ularning o`ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo`ladi?
5. Asosiy ishlab chiqarish fondlari strukturasini yaxshilashning qanday yo`llarini bilasiz?
6. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining yemirilishini qanday turari mayjud va bu yemirilishni oldini olishda qanday tadbirlar o`tkaziladi?
7. Asosiy fond va asosiy mablag`lar bir-biridan qanday farqlanadi?
8. Korxonalarda qanday maqsadda amortizatsiya siyosati olib boriladi?
9. Asosiy fondlar uchun amortizatsiya ajratmalari qanday usullar bilan aniqlanadi?
10. Asosiy fondlardan foydalanishning texnik va iqtisodiy ko`rsatkichlari mohiyatini yoritib bering.

3-bob. MASHINASOZLIK SANOATINING AYLANMA MABLAG'LARI

3.1. Aylanma fondlar haqida tushunchalar, ularning tarkibi va strukturası

Mashinasozlik sanoat korxonalari asosiy fondlar bilan bir qatorda aylanma fondlarga ham egadir. Aylanma fondlar tayyor mahsulotning moddiy asosini tashkil qiladi yoki ishlab chiqarish jarayonining borishiga yordam beradi.

Korxona faoliyati normal shakllanishi uchun yetarli darajada aylanma mablag'larga ega bo'lish kerak.

Mahsulot ishlab chiqarishning moddiy asosini tashkil qiladigan aylanma fondlar korxonalarda xomashyo yoki yordamchi materiallar ja'ng'armalari shaklida tashkil topadilar. Keyinchalik ular ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etilib, tayyor mahsulotga aylanadilar yoki mahsulot ishlab chiqarishga yordam beradilar, ya'ni ishlab chiqarish jarayonidan muomala jarayoniga va aksincha, muomala jarayonidan ishlab chiqarish jarayoniga o'tib turadilar. Shuning uchun aylanma fondlar ishlab chiqarish va muomala jarayonida qatnashuvchi ikki qismga bo'linadilar.

Aylanma ishlab chiqarish fondlari mashinasozlik korxonalari ishlab chiqarish fondlarining ma'lum bir qismini tashkil etib, ishlab chiqarish jabhasida harakat qiladi. U quyidagi xususiyatlarga ega:

- ishlab chiqarish jvarayonida bir marta ishtirot etib, o'zining natural shaklini va fizik-kimyoiy xususiyatlarini o'zgartiradi;

- ishlab chiqarilgan mahsulotga o'z qiymatini to'liq o'tkazadi.

Demak, **sanoatning aylanma fondlari** deb, har bir ishlab chiqarish jarayonida to'la ishlatalib, o'z qiymatini tayyor mahsulotga bir yo'la o'tkazadigan va o'zlarining moddiy shakllarini butunlay o'zgartiradigan mehnat buyumlariga aytildi, ular ishlab chiqarish uzluksizligi va bir maromiyligini ta'minlaydi.

Aylanma fondlar hisobga olish va rejalashtirish maqsadida uch guruhga bo'linadi:

1. Ishlab chiqarish zaxiralari - ishlab chiqarish jarayonlari uchun tayyorlangan mehnat buyumlari bo'lib, bular tarkibiga :

- xomashyo va asosiy materiallar;
- yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar;
- yordamchi materiallar;
- yoqilg'i;
- tara va o'rov materiallari;
- asosiy fondlarni joriy ta'mirlash uchun ehtiyoj qismlari;
- ishlab chiqarish va xo'jalik inventari.

2. Tugallanmagan ishlab chiqarish - ma'lum sexda mahsulotga to'la aylanmagan, ishlab chiqarishi jarayonidagi yoki texnik nazoratdagi mahsulot.

Ishlab chiqarish zaxiralari va tugallanmagan ishlab chiqarish ishlab chiqarish fondlarining moddiy asosini tashkil etadi.

3. Kelgusi davr xarajatlari - aylanma fondlarning elementi bo'lib, nomoddiy shaklga ega bo'lgan ishlab chiqarishni tayyorlash, yangi mahsulotni o'zlashtirish xarajatlari bo'lishi mumkin.

Aylanma fondlar natural va qiymat ko'rinishida hisobga olinadi.

Aylanma fondlarning moddiy buyum elementlarini tejash mahsulotning material sig'iminini tejab ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Mashinasozlik korxonalarida moddiy resurslarni tejashning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

1. Ishlab chiqarish-texnikaviy yo'nalish natijasida ma'lum mahsulotning material sig'iminini kamaytirish.
 - yaratilyotgan mashina va mexanizmlarning texnologik sifatini saqlab qolgan holda material sig'iminini kamaytirish;
 - tcamkor texnologiya va uskunatlarni qo'llash;
 - kam chiqimli va chiqindisiz texnologiyalardan foydalanish; (quyma va metallni bosim bilan ishlash va boshqa samarali metodlarni qo'llash);
 - metallarning maqsadga muvofiq turlaridan foydalanish;
 - an'anaviy konstruksion materiallar o'rniiga yangi o'rindosh materiallardan foydalanish.

Hozirgi vaqtida mashinasozlik sanoatida polimer materiallar va kukun metallurgiya buyumlari keng qo'llanilmoqda. Plastik materallarni ishlatish mashina va mexanizmlar og'irligini kamaytib

o‘z navbatida ularni ishlatish jarayonida yoqilg‘i va energiya resurslarini tejashta imkon beradi.

Bundan tashqari polimer materialar va metall kukunlari mahsulot mehnat sig‘imini kamaytiradi va ishlab chiqarishda ma‘lum miqdorda metall qirquvchi uskunalarini ozod qiladi.

2. Tashkiliy-iqtisodiy yo‘nalish - bu korxonada moddiy resurslarni iqtisod qilishni ta‘minlaydigan yo‘nalish.

- moddiy-texnika ta‘minotining progressiv shakllarini qo‘llash;
- moddiy resurslarni transportirovka qilish va saqlashdagi nobudgarchiliklarni yo‘qotish;
- ombor xo‘jaligi ishini samarali tashkil etish;
- xomashyo, materiallar, yoqilg‘i va energiya sarfi me’yorini ishlab chiqarish va texnik jihatdan asoslab berish;
- brakli mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish.

Aylanma mablag‘larning umumiy miqdorini tashkil qiluvchi har bir guruh yoki moddaning foiz hisobidagi ulushi ularning strukturاسını ifedalaydi

Korxona aylanma mablag‘lari tarkibida ishlab chiqarish za‘iralari ulushi salmoqli qismni tashkil etadi.

Aylanma fondlar strukturasiga ishlab chiqarishning turkumligi, ishning mavsumiyligi, korxonaning materiallar bilan ta‘minlanish shartlari, hisob-kitoblar shakli va boshqalar ta’sir ko‘rsatadi.

Korxonaning aylanma mablag‘lari strukturasi o‘zgarishini tahlil etish uning moliyaviy holati va resurslarni boshqarish sifatini baholash imkoniyatini beradi.


Masalan, tugallanmagan ishlab chiqarish ulushining ortib borishi ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va boshqarishdagi kamchiliklarini ko‘rsatadi.

Debitorlik qarzlar ulushini ko‘payishi korxona moliyaviy holatining yomonlashishiga olib keladi.

Aylanma mablag‘lar tarkibi:

Aylanma ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlarini pul shaklidagi yig‘indisi korxonaning aylanma mablag‘lарини tashkil qiladi.

Aylanma mablag‘larning ishlab chiqarish aylanma fondlari va muomala fondlariga taqsimlanishidan tashqari ular yana



2- rasm. Aylanma mablag'lar tarkibi

me'yorlashtiriladigan va me'yorlashtilmaydigan aylanma mablag'larga bo'linadi.

- Me'yorlashtiriladigan aylanma mablag'lar (ishlab chiqarish jarayonida band bo'lgan ishlab chiqarish jamg'armalari, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davrlar xarajatlari) va korxona omboridagi tayyor mahsulotga sarflangan xarajatlar kiradi.

- Me'yorlashtirilmaydigan aylanma mablag'larga jo'natilgan - tayyor mahsulot, pul mablag'lari va debitorlik qarzları kiradi. Me'yorlashtiriladigan aylanma mablag'larning sanoat bo'yicha o'rtacha miqdori barcha aylanma mablag'larning 80 %ga yaqinini tashkil qiladi.

3.2. Aylanma mablag'larning me'yori

Aylanma mablag'larni me'yorlashtirish - moddiy resurslarning turlari me'yorlarini ishlab chiqishdir. Me'yoriylik miqdori past darajada bo'lishi korxona ishlab chiqarish uzlusizligini ta'minlash uchun zarur jamg'armalar yarata olmaslik, material yetkazib beruvchi korxonalar bilan hisob-kitob qilish uchun yetarli mablag'larga ega bo'lmaslik va mehnatkashlarga ish haqini to'la to'lay olmaslikka olib ke'radi.

Ortiqcha moddiy jamg'armalar hosil bo'lishi va ularning uzoq muddat ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etmasligi korxona zarar ko'rishga sabab bo'ladi.

Aylanma mablag'larni me'yorlashtirish - xomashyo, asosiy materiallar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va boshqa moddiy hamda pul resurslari jamg'armalari bo'yicha me'yorlarini belgilashdan iborat.

Ishlab chiqarish va mahsulotni sotish bilan bog'liq bo'lgan aylanma mablag'lar jamg'armalari ikki xil o'lehamda me'yorlashtiriladi - vaqt (kun) va pul birliklarida.

Vaqt_(kun)_birligida belgilangan jamg'armalar ishlab chiqarishning u yoki bu tovar-materiallar bilan ta'min etilganlik darajasini ifodalaydi.

Pul birligida belgilangan jamg'armalar ishlab chiqarishning u yoki bu tovar-materiallar bilan ta'min etilganlik darajasini ifodalaydi.

Pul birligida belgilangan jamg'armalar ishlab chiqarishning aylanma mablag'larga bo'lgan haqiqiy talabini aniqlash bilan bir qatorda, ta'minot, moliyaviy rejalarini va ishlab chiqarish xarajatlari smetasini o'zaro bog'lashga imkoniyat yaratadi.

Vaqt (kun) va pul birliklarida xomashyo, asosiy materiallar, yordamchi materiallar, yonilg'i, shuningdek, korxona omboridagi tayyor mahsulot qoldiqlari va tugallanmagan ishlab chiqarish jamgarmalarining har biri alohida-alohida me'yorlashtiriladi. Me'yorlashtiriluvchi aylanma mablag'larning qolgan turlari saqat pul birligida me'yorlashtiriladi.

Korxonaning aylanma mablag'lari mehnat ashyolari va pul mablag'lardan tashkil topadi. Korxonaning me'yorlashtirilgan aylanma mablag'larini aniqlash uchun dastlab barcha turdag'i mehnat ashyolariga bo'lgan o'rtacha kunlik talab aniqlanib, so'ng ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan jami me'yoriy materiallar hisoblanadi:

- Muayyan rejalaشتirilgan yil uchun o'rtacha kunlik zarur normativ material turlari quyidaga ifoda orqali aniqlanadi:

$$M_k = M_v / T_r$$

bu yerda: M_k - kunlik zarur normativ;

M_v - yillik ishlab chiqarish uchun zarur material hajmi;

T_r - rejalaشتirilgan davr, kun (yil).

- Ishlab chiqarishni zarur me'yoriy materiallar turlari ($T_{me'yor}$ - me'yor) bilan ta'nninlash, kunlarda quyidagi ifoda orqali topiladi

$$T_{me'yor} = T_k + T_z + T_{ta}$$

bu yerda:

T_k - materiallarni olib kelish oraliq'idagi vaqt;

T_z - zaxiraviy (qo'shimcha) vaqt;

T_{ta} - ishlab chiqarishga tushurishdan oldin materiallarni tayyorlash-ga ketgan vaqt.

- Materiallarning zaxira me'yori quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$Z_m = M_k \cdot T_{me'yor}$$

- Aylanma mablag'larning tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$IC_{im} = \frac{N}{T_r} \cdot T_s \cdot K_w$$

bu yerda:

ICh_{im} – tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi;

T_r – rejalashtirilgan davr;

N_v – yillik ishlab chiqarish dasturi;

T_s – ishlab chiqarish siklining o'rtacha davomiyligi;

K_{xo} — tugallanmagan ishlab chiqarishda xarajatlarning o'sish koefitsienti.

- Tayyor mahsulot qoldig'idagi aylanma mablag'larning pul ko'rinishida quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$TM = \frac{N}{T_n}$$

bunda:

T_n - zaxiraning kunlik normasi.

Korxonalarda ishlab chiqarish jamg'armalari joriy, ehtiyoj (yoki kafolat), tayyorlash va transport jamg'armalariga ajratiladi. Joriy jamg'armalar ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlash uchun me'yorashtiriladi va aylanma mablag'lar me'yorining asosiy qismini tashkil qiladi. Joriy jamg'armaning miqdori u yoki bu moddiy ishlab chiqarish vositasining bir kecha kunlik sarfi va uning korxona omboriga keltirish masofalarini hisobga olish orqali aniqlanadi:

$$M_{j,max} = d \cdot t_m$$

bunda: $M_{j,max}$ – joriy jamg'armaning eng yuqori miqdori, kun;

d - muayyan materialning bir kunlik sarfi;

t_m - muayyan materialni korxona omboriga keltirish vaqt.

Biroq amalda materiallar korxona omboriga bir vaqtida bir yo'la keltirilmaydi va ularning sarfi ham har xil vaqtida bo'ladi. Shuning uchun moddiy vositalarning o'rtacha me'yorini ($M_{o'rtacha}$) maksimal jamg'armaning yarmiga teng qilib belgilanadi.

$$M_{o'rtacha} = 0,5 \cdot M_{j,max}$$

Ta'minotni tasodifan uzilib qolishi mumkinligini hisobga olib, korxonalarda ehtiyoj qismlari jamg'armalari yaratiladi. Bu

jamg'armalarning miqdori odatda joriy jamg'arma miqdorining yarmiga teng qilib belgilanadi yoki quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$M_{\text{ch}} = d \cdot (t_{\text{ov}} + t_{\text{yo}} + t_q + t_{\text{ch}})$$

bunda:

M_{ch} - ehtiyyot jamg'arma;

t_{ov} - materialni ortish uchun sarflanadigan vaqt, kun;

t_{yo} - materialning yo'lda bo'lish vaqt, kun;

t_q - materialni qabul qilib olish vaqt, kun;

t_{ch} - materialni ishlab chiqishga tayyorlash vaqt, kun.

- Transport jamg'armasi puli to'langan materiallarning yo'lda bo'lish vaqt (t_{yo}) va hisob-to'lov hujjatlari aylanish vaqt (t_b) o'rtaqidagi tafovut orqali aniqlanadi.

$$M_{\text{tr}} = d \cdot (t_{\text{yo}} + t_b)$$

- Tayyorlash jamg'armasi, agar korxonaga keltirilgan materialni ishlab chiqarishga kiritish uchun uni tavyorlash lozim bo'lgan taqdirda me'yorashtiriladi va quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$M_{\text{trav}} = d \cdot t_{\text{ch}}$$

Ishlab chiqarish jamg'armalarining umumiy me'yori yuqorida ilova qilingan jaung'armalarning yig'indisiga teng bo'ladi. Ma'lum turdag'i aylanma vositalar jamg'armalarini yaratish uchun zarur bo'lgan mablag' miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$S_{\text{reja}} = S_{\text{kun}} \cdot M_j T_k$$

bunda: S_{reja} - rejalaشتirilayotgan davr uchun me'yorashtirilgan material sarfi summasi, so'm;

S_{kun} - muayyan materialning kunlik sarfi;

T_k - rejalaشتirilgan davrdagi kalender kunlar soni;

M_j - shu materialning jamg'arma me'yori, kun.

Aylanma mablag'larni korxonalarda me'yorashtirishda ikki masala hal etiladi birinchidan, iqtisodiy asoslangan me'yorlar ishlab chiqiladi; ikkinchidan, korxona faoliyatining turli tomonlari tanlit qilinadi, moddiy-texnika ta'minoti, mahsulot sotish va hisob-kitoblarni yaxshilashga yo'naltirilgan tadbirlar belgilanadi.

3.3. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari va mablag'lar aylanishini tezlashtirish

Mashinasozlik korxonalarida aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ikki ko'rsatkich bilan ifodalanadi: aylanish tezligi va ularning nisbiy mutlaq miqdorining kamayishi.

Aylanma mablag'larning ma'lum davr ichida ishlab chiqarish jarayonidan muomala jarayoniga va muomala jarayonidan ishlab chiqarish jarayoniga o'tish soni aylanma mablag'lar aylanish ko'effitsienti deb ataladi. Aylanma mablag'larning aylanish ko'effitsienti (K_a) korxonaning sotilgan mahsuloti yillik qiymatini ($M_{yil,q}$) shu mahsulotni yaratishda ishtirot etgan aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qoldiq'iga (U_0) taqsimlanib, hisoblab chiqiladi.

$$K_a = \frac{M_{yil,q}}{U_0}$$

bunda:

$M_{yil,q}$ — rejalashtirilgan yilda sotilgan mahsulot qiymati, so'm;

U_0 — aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qoldiq' qiymati, so'm.

Aylanma mablag'larning bir aylanish davomiyligi kunlar bo'yicha quyidagicha aniqlanadi:

$$D_a = \frac{U_0 \cdot K_a}{M_{yil,q}}$$

bunda:

K_a — ma'lum davming davomiyligini aniqlash uchun bir yil — 360 kun, chorak — 90 kun, oy — 30 kun deb qabul qilinadi.

Aylanma mablag'larning aylanishini jadallashtirish natijasida bo'shatib olinadigan aylanma mablag'larning hajmi (B_m) quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$B_m = \frac{M_{yil,q}}{360} (D_{1,a} - D_{2,a})$$

bunda:

D_{t_0} va D_{s_0} aylanuvchanlikni jadallashtirishdan oldingi va keyingi mos ravishda aylanish davomiyligi.

Aylanma mablag'lar aylanishini tezlashtirishning quyidagi yo'llari mavjud:

a) Ishlab chiqarish jarayonida:

- ishlab chiqarish siklining davomiyligini qisqartirish;
- mahsulot ishlab chiqarish maromiyligini oshirish;
- progressiv texnologik jarayonlarni va uskunalarini qo'llash;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va rejalashtirishni takomillashtirish;

- mehnattalablilikni kamaytirish;

- aylanma mablag'lar sarfini kamaytirish.

b) Muomala jarayonida:

- ta'minotni oqilona tashkil etish;

- hisoblar tizimini takomillashtirish.

Aylanma mablag'lardan foydalanish darajasini ifodalaydigan barcha ko'rsatkichlar, korxonaning tannarx, foya, rentabellik kabi asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan bog'langan.

Aylanma fondlar, moddiy buyum elementlarini tejash mahsulotning material sig'imiini tejab qolish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Mashinasozlik korxonalarida moddiy resurslarni tejashining quyidagi yo'nalishlari mavjud:

I. Yaratilayotgan mashina va mexanizmlarini loyihalashtirish bosqichlarida sifatni saqlab qolgan holda material sig'imiini nisbatan kamaytirish:

- resurstejamkor texnologiya va uskunalarini qo'llash;

- kam chiqimli va chiqindisiz texnologiyadan foydalanish;

(quyma va metallni bosim bilan ishlash)

- po'latning maqsadga muvofiq turlaridan foydalanish;

- an'anaviy konstruksion materiallar o'rniiga yangi o'rindosh

materiallardan foydalanish (polimer materiallar va kukun metallurgiya buyumlari). Plastik materialarni ishlatalishda ishlab chiqariladigan mashina va mexanizmlarning og'irligini kamaytirish (ularni ishlatalish jarayonida yoqilg'i va energiya resurslarini tejash).

Bundan tashqari polimer materiallar va metall kukunlari mahsulot mehnat sig'imiini kamaytiradi (ishlab chiqarishda ba'zi bish metall qirquvchi uskunalarni ozod qiladi).

2. Tashkiliy-iqtisodiy yo'nalish korxonada moddiy resurslarni iqtisod qilishni ta'minlaydi:

- moddiy-texnika ta'minotining progressiv shakllarini qo'llash;
- moddiy resurslarni transportirovka qilish va saqlashdagi nobudgarchiliklarni yo'qotish;
- ombor xo'jaligining samarali ishini tashkil etish;
- xomashyo, materiallar, yoqilg'i va energiya sarfini kamaytirish;
- brakli mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish.

MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. Aylanma mablag'lar tarkibi va tuzilishini tushuntirib bering.
2. Aylanma fondlar tarkibiga kiruvchi kelgusi davr xacajatlari ma'nosini tushuntirib bering.
3. Aylanma fondlar qanday me'yortashtiriladi?
4. Aylanish koeffitsientining iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering.
5. Aylanma mablag'lar aylanishini tezlashtirish yo'llari.

4-bob. MASHINASOZLIK KORXONALARINING MEHNAT RESURSLARI VA MEHNATGA HAQ TO'LASHI

4.1. Mashinasozlik korxonasi personali va uning taysifi

Kadrlarning kasbiy malakasi qanchalik yuqori bo'lsa, korxonalarning iqtisodiy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari shunchalik yaxshi bo'ladi.

Korxona kadrlari deganda, korxonada mehnat bilan band bo'lgan hamda korxona shaxsiy tarkibiga kiruvchi turli **kasbiy-malakaviy guruhlardagi xodimlar majmuasi tushuniladi**.

Korxonaning «Mehnat resurslari», «kadrlar», «personal» tushunchalari, kadrlar salohiyatini shakllantirish va ularidan foydalanishda bir xilda qo'llanilsada, bir-biridan farqlashlo lozim.

Mehnat resurslari mamlakat aholisining ma'lum qismi bo'lib, o'zining asab-fiziologik va intellektual sifatlari bilan moddiy boyliklar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lgan, **16-55 yoshdag'i ayollar**, **16-59** yoshgacha bo'lgan erkaklar hisoblanadi.

Korxonalarda mehnat resurslarini xarakterlovchi tushuncha sifatida «kadrlar», «personal» tushunchasidan foydalaniлади.

Korxona kadrlari yoki personali deganda ishlovelilar majmui tushunilib, ular tarkibiga yollanma ishehilar va shaxsiy tarkibdagi ishehilar kiradi.

Korxona personali sifat va miqdor jihatidan quyidagi belgilari bo'yicha tasniflanadi:

- ishlab chiqarish jarayoni xarakteriga qarab;
- mehnat vazifalari xarakteriga qarab;
- mehnatni taqsimlashga asosan turli ish turlariga qarab;
- malaka darajasiga qarab;
- kadrlar shaxsiy xarakteristikasiga qarab.

Ishlab chiqarish jarayonida ishtirek etishiga qarab korxona personalini 2 kategoriyaga bo'linadi: sanoat ishlab chiqarish va noishlab chiqarish personali.

Mashinasozlik korxonalarining asosiy faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan, uy-joy, kommunal va yordamchi xo'jaliklarda, sog'lniqni saqlash, profilaktika tizimida faoliyat yurituvchi xodimlar noishlab chiqarish personafini tarkibiga kiradi.

Mashinasozlik korxonalarini sanoat-ishlab chiqarish personali tarkibiga quyidagi xodimlar kiradilar:

- mahsulot ishlab chiqarishni tayyorlash, xizmat ko'rsat sh, sotish bilan shug'ullanuvechi;
- asosiy va yordamchi sexlar, zavod boshqaruvi, laboratoriya, ilmiy-tadqiqot va tajriba-loyihalashtirish bo'limlari, hisoblash markazi xodimlari.

Sanoat-ishlab chiqash personali mehnat vazifalari xususiyatiga ko'ra quyidagi kategoriyalarga bo'linadi

Ishehilar - moddiy ne'matlar yaratish va ishlab chiqarishiga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvechi ishlovelilar. Ishehilar asosiy va yordamchi ishehilarga bo'linadi.

Mashinasozlik korxonalarida asosiy ishchilar texnologik jürayonlarda detallar, buyumlar ishlab chiqishda ishtirok etadilar. Yordamchi ishchilar tayyor mahsulotni va mehnat buyumlarini transport qilish, mashina va uskunalarini ta'mirlash ishlari bilan shug'ullanadilar.

Mutaxassislar - injener-texnik, iqtisodiy, huquqiy vazifalar bilan shug'ullanuvchi xodimlar. Masalan, injener- texnologlar, buxgalterlar, iqtisodchilar.

- **xizmatchilar** - hujjatlarni tayyorlash, hisob-kitob va nazorat qilish, xo'jalik xizmati xodimlari (agentlar, g'aznachilar, ish yurituvchilar, kotiblar, statistlar va hokazo).
- **rahbarlar** – korxona boshqarish vazifasini bajaruvchi - direktor, direktor o'rinnbosarlari, bosh mutaxassislar, bo'lim va xizmat boshliqlari, ya'ni muhandis-texnik personal.

Korxonada personalning asosiy va ko'p sonli qismini **ishchilar** tashkil qilib, ular mahsulot ishlab chiqarish(xizmat ko'rsatish, ish bajarish), ta'mirlash va uskunalarga xizmat ko'rsatishda (*ta'mirlovchi ishchilar*) qatnashadi, mehnat predmetlarini tashishni amalga osdiradilar (*transport ishchilari*), qurilish-ta'mirlash ishlarini bajaradilar (*quruvchi-ishi*chilar).

Korxona xodimlarining sisfat jihatidan ishlab chiqarishga kasbiy va malakaviy jihatdan yaroqlilik darajasi «mutaxassislik», «kasb» tushunchalaridan kelib chiqadi.

Kasb – faoliyatning maxsus va tor ko'rinishdag'i turi bo'lib, mutaxassislik kabi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini talab qilsada, mutaxassislikdan farqli ravishda ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib qo'shimcha ko'nikmalarini ham talab qiladi.

Masalan, injener-mexanik, injener-elektrik, iqtisodechi.

Mutaxassislik insonda ma'lum bir turdag'i ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmuasining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Kasb ichida mutaxassislik shakllanib, ishni bajarishda maxsus bilim va malaka talab etiladi. Masalan, iqtisodchi, mutaxassisligi - buhgalter, moliyachi.

Korxona personalining kasbiy strukturasi deganda turli kasb va mutaxassislikdagi ishlovchilar o'rtasidagi munosabat tushuniladi. Har bir kasb va mutaxassislik malaka darajasi bilan farqlanadi.

Malaka deganda, biron-bir kasb yoki mutaxassislik bo'yicha murakkab ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan mehnat ko'nikmalari va bilimlar darajasi tushuniladi. Ishchilar malakasi darajasini baholashda o'rtacha tarif koeffitsienti va o'rtacha tarif razryadi hisoblanadi. Tarif razryadlari va koeffitsientlari bir vaqtning o'zida bajarilayotgan ishlar murakkabligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi. Mashinasozlik korxonalarida yangi texnikani o'zlashtirgan ishchilar uchun 8 razryadli tizim, qolgan ishchilar uchun 6 razryadli tizim qo'llaniladi. Xizmatchilar uchun 15 -18 razryad tizim qo'llaniladi.

Har bir razryad bilim, malaka va iayyorgarlik darajasiga berilgan talab orqali aniqlanadi.

Xizmatchilarni kasb-malakaviy tuzilishi shtat jadvali orqali aniqlanadi. Korxona shtat jadvali rahbar tomonidan har yili tasdiqlanib, unda har bir razryaddagi (kategoriyadagi) xizmatchini bo'lmalar bo'yicha mansab maoshlar ko'rsatilgan hujjatlar to'plami hisoblanadi.

4.2. Kadrlar strukturasi va ularni rejalashtirish

Korxonada kadrlar strukturasi turli omillar ta'sirida doira y ravishda o'zgarib turadi. Mashinasozlik korxonalarida asosiy ishlab ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, mahsulot ishlab chiqarishni murakkablashganligi natijasida asosiy ishchilarning ulushi kamaya borib, mutaxassislar soni oshib boradi.

Korxona ishlab chiqarish personali jinsi, yoshi, ma'lumoti, ish staji bo'yicha taqsimlanib, tahlil qilinadi.

Korxona faoliyatini rejalashtirishi va tahlil qilishda, ayniqsa, mehnat unumдорлиги, о'ртача исх баги, кадрлар аylanishi va oqimini hisoblashda **o'rtacha ro'yxat** soni ko'rsatkichi qo'llaniladi. Bu ko'rsatkichni to'g'ri aniqlash uchun xodimlarni ishga qabul qilish, boshqa ishga o'tkazish va mehnat shartnomasini bekor qilishni

inobatga olgan holda har kuni hisobga olib borishni yo'lga qo'yish zarur.

Kadrlarning korxonada harakatlanishini tavsiflash uchun kadrlar oqimi koeffitsienti ko'rsatkichidan foydalaniladi.

Kadrlar oqimi koeffitsienti (K_{oq}) quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{oq} = X_{v,b} / X_{o,t}$$

bunda:

$X_{v,b}$ - o'z xohishiga ko'ra va mehnat intizomini buzgantlik uchun ishdan bo'shagan xodimlar soni;

$X_{o,t}$ - personalning o'rtacha ro'yxat soni.

Mashinasozlik korxonalari ishini samarali tashkil etish kasbiy malaka tuzilishi va ishchilar sonining muvofiqligi bilan tasniflanadi. Turli kategoriyadagi ishchilar soni bajaradigan ishi, uskunaga xizmat ko'rsatishi me'yori orqali aniqlanadi.

Korxona personalini miqdor jihatidan tasniflashda umumiylari ro'yxatdagi, ishga kelgan va shtatdagi ishchilar soni ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Ishlab chiqaruvchi va noishlab chiqaruvchi ishchilar soni yig'indisini ishchilarning umumiy ro'yxatdagi soni deyiladi.

$$\Delta_{um} = A_{t,cb} + A_{n,t,cb}$$

bunda:

$A_{t,cb}$ - ishlab chiqaruvchi ishchilar soni;

$A_{n,t,cb}$ - noishlab chiqaruvchi ishchilar soni

Mashinasozlik korxonalari sexidagi ishchilar sonini aniqlashda ishlab chiqarish jarayonlarida ishtiroy etadigan agregatlar soni va ish joyiga xizmat ko'rsatish alohida ahamiyatga ega. Har bir ish joyidagi xizmat ko'rsatish me'yorini aniqlashda korxona tomonidan belgilangan kasb va malaka bo'yicha ma'lumotlardan foydalananish mumkin.

1. Ishlab chiqarish rejasini bajarish uchun zarur asosiy ishchilar soni (A_n) quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$A_n = \frac{N \cdot T}{F \cdot K}$$

bunda:

N -- ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, dona;
 T -- mahsulot birligining mehnat sarfi, soat;
 F -- bitta ishchining yillik foydali ish vaqtini fondi (hisob uchun
 F = 1840 / 1860 soat qabul qilinadi);

K -- normani ortig'i bilan bajarish koefitsienti.

2. Tayyorlanayotgan mahsulotning mehnat hajmini kamaytirish natijasida mehnat unumdorligining o'sishi normasi quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

3.

$$U_{\text{mash}} = \frac{100 \cdot a}{100 - a}$$

bunda:

a -- tayyorlanayotgan mahsulot mehnat hajmining kamaygan normasi, foiz.

3. Chiqitni qisqartirish hisobiga mehnat unumdorligining o'sishi quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$U_{\text{mash}} = \frac{100 - B_r}{100 - B_h} \cdot 100 - 100\%$$

bunda:

B_r va B_h -- rejali va hisobot davrida (brakni) yaroqsiz mahsulotni yo'qotish foizi.

4. Chiqitni qisqartirish natijasida ishchilar sonining kamayishi quyidagi tenglamadan topiladi:

$$Q_{\text{kamayishi}} = \frac{B_h - B_r}{100} \cdot Q_{\text{um}}$$

bunda:

Q_{um} -- ishlochilarining umumiy soni.

5. Ishlab chiqarish hajmi va ishlochilar sonining o'zgarishi natijasida mehnat unumdorligining oshish normasi (%) quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$U_{\text{mash}} = \frac{100 + R_u}{100 + I_{r,j}} \cdot 100 - 100\%$$

bunda:

R_{v} --- ishlab chiqarish hajmining rejada ko'rsatilgan o'sish normasi, foiz;

$I_{\text{r.v.}}$ --- reja bo'yicha ishlovchilarning o'sishi, foiz.

6. Mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish natijasida mehnat unumtdorligining ortishi quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$U_{\text{oroshi}} = \frac{100 + S_k}{M_k} \cdot 100\%$$

bunda:

S_k --- ishlovchilar normasining ko'payishi, foiz;

M_k --- mahsulot normasining ko'payishi, foiz.

7. Ishga chiqadigan yordamchi ishchilar soni quyidagi tenglama orqali topiladi:

$$N_{\text{yordamchi}} = \frac{J_u}{J_b} \cdot S$$

bunda:

J_u --- yordamchi ishchilar xizmat qiladigan umumiyl ish joylarining soni,

J_b --- bitta ishchining norma bo'yicha xizmat qiladigan ish joyi;

S --- ishlab chiqarish uchastkasidagi smenalar soni.

8. Ro'yxatdagi yordamchi ishchilarning soni quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$N_{\text{yordamchi}} = \frac{J_u}{J_b \cdot K} \cdot S$$

bu yerda:

K --- ish fondidan foydalanishni hisobga oluvchi koefitsienti.

Korxona faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilishda, ayniqsa, mehnat unumtdorligi, o'rtacha ish hajmi, kadrlar aylanishi va oqimini hisoblashda o'rtacha ro'yxat soni ko'rsatkichi qo'llaniladi. Bu ko'rsatkichni to'g'ri aniqlash uchun xodimlarni ishga qabul qilish, boshqa ishga o'tkazish va mehnat shartnomasini bekor qilishni

inobatga olgan holda har kuni hisobga olib borishni yo'lga qo'yish zarur.

MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. Bozor munosabatlari sharoitlarida korxonaning kadrlar siyosatini qay tarzda tasavvur qilasiz?
2. Kadrlar tuzilmasi deganda nima tushuniladi va uni belgilab beruvchi omillar qanday?
3. Kadrlar faoliyatini rejalashtirish deganda nimani tushunasiz?

5-bob. KORXONALARDA MEHNATGA HAQ TO'LASH

5.1. Ish haqi tushunchasi va mohiyati

Korxonalarda mehnatga haq to'lashni oqilona tashkil qilish xodimlar faoliyatini rag'batlantirish, tayyor mahsulot va mehnat bozorida raqobatchilikni, rentabellik va mahsulotlarning daromadliligini ta'minlashi lozim. Mehnatga haq to'lashni oqilona tashkil etishdan maqsad – uning hajmi va xodimning korxona xo'jalik faoliyatiga mehnat faoliyatida qo'shgan hissasiga mos kelishini ta'minlash, ya'ni mehnat o'lchami va iste'mol o'lchami o'rtaсидagi mutanosiblikni ta'minlashdir.

Ish haqi - har bir xodimning sarflagan mehnati miqdori va sisatiga mos ravishda taqsimlanuvchi va xodim tasarrufiga pul shaklida kelib tushuvchi milliy daromadning bir qisimidir. Ish haqi - bu mehnat uchun mukofotdir.

Xodimlar mehnatiga haq to'lash ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan mehnat resurslarining bahosidir. Boshqacha qilib aytganda, ish haqi – bu, mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining korxona xodimlari mehnatiga haq to'lash uchun sarflanuvchi qismidir.

Ish haqining *nominal* va *real* turlari mavjud.

Nominal ish haqi – bu xodimning ma'lum bir vaqt mobaynida bajargan mehnati uchun hisoblangan va to'langan ish haqidir.

Real ish haqi – nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo’lgan tovar va xizmatlar miqdori; real ish haqi – bu, nominal ish haqining «iste’mol qobiliyati»dir.

mehnat unumdorligi sur’atini o’rtacha ish haqining o’sish sur’atlariga nisbatan tezroq ko’tarish;

ish haqi miqdorini inflyatsiya sur’atlariga mos ravishda muvofiqlashtirish;

mehnatga haq to’lashning korxona ehtiyojlariga to’liq javob beruvchi ilg’or shakl va tizimlarini qo’llash.

5.2. Korxonada mehnatga haq to’lash tizimi

Sanoat korxonalarida, jumladan mashinasozlik korxonalarida hozirgi vaqtida mehnatni tashkil etishning bir necha tizimlaridan foydalantilmoqda.

-tarif tizimi

-tarifsiz tizim

-aralash tizim

Tarif tizimi – mehnatning sifati va sharoiti, ishlab chiqarish tarmog’ining xalq xo’jaligidagi ahamiyati hamda korxonalarning territorial joylashuviga binoan ishehilarning ish haqini tartibga soluvechi normativlar majmuasidan iboratdir.

Ishehilarga mehnatga ko’ra haq to’lashda qo’llanadigan tarif tizimi – tarif malaka ma’lumotnomasi, ta’rif stavkaları va tarif setkalaridan tashkil topadi.

Mehnatga haq to’lashning tarif tizimi ish haqini rejalashtirish asosiy vositasi sisfatida xalq xo’jaligi birligini, ya’ni jamiyat miqyosida teng mehnatga haq to’lash prinsipi joriy etilishini, ish haqining asosiy qismini, ishning murakkabligi, og’irligi, ish sharoitiga ko’ra differentsiallash, mehnat unumdorligining o’sishiga binoan ish haqini uzlusiz o’sishini ta’minlashi lozim.

Tarif- malaka ma’lumotnomasi ishehilarning malaka darajasidagi ma’lumotini aniqlash uchun qo’llaniladi. Kasblar - ishning og’ir va yengilligiga binoan bir necha razryadlarga bo’linadilar.

Xodimlar va ularning oila a’zolari huquqlarini himoya qilish maqsadida ish haqining eng kam miqdori belgilab qo’yiladi va bu

miqdor narx-navoning oshib borishiga mutanosib ravishda indeksatsiyalanib, oshirib boriladi.

2009-yil 1-dekabrdan O'zbekiston Respublikasi hududida minimal ish haqi miqdori -37680 so'mni tashkil etdi.

Mehnatga haq to'lashda hozirgi paytda amalda bo'lgan yagona tarif jadvalining ahamiyati katta bo'lib, uning vositasida bir xil miqdorda va sifatga ega bo'lgan mehnat uchun bir xil haq to'lash, ish haqi sohasida yagona siyosatni amalga oshirish, ijtimoiy adolatni ta'minlashga erishiladi. Xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida mehnatga haq to'lashda hech narsa bilan asoslanmagan tengsizliklarning oldi olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-iyundagi «Ish haqi, pensiyalar va stipendiyalarning miqdorini oshirish» to'g'risidagi farmonida hamda ushbu Farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 12-iyundagi «Mehnatga haq to'lash bo'yicha yagona tarif jadvalini yanada takomillashtirish haqidagi» 247-sonli qarori bilan xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida «0»dan «22»gacha tarif razryadlari (23ta) joriy etilgan bo'lib, barcha kasblar, ishlar, lavozimlar ushbu razryadlar shkalasiga muvofiq tarifikatsiya qilinadi. Bunda hech qanday malaka talab qilmaydigan eng oddiy ish «0» razryad bilan tarifikatsiya qilingan bo'lib, unda ish haqi eng kam oylik ish haqiga teng bo'ladi. Bunday ortib borish «0» razryadga nisbatan amalga oshadi.

Mehnatga haq to'lashning shartlari qanday tartibda o'matilgan bo'lsa (davlat yo'li bilanmi, jamoa shartnomasi yoki kelishuvli orqalimi yoki boshqa usul), ana shunday tartibda o'zgartirilishi mumkin.

Mehnatga haq to'lashning yakka shartlari xodim uchun noqulay tomonga o'zgartirilishiga faqat uning roziligi bilangina yo'l qo'yilishi mumkin.

Teknologiyada, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishda o'zgarishlar yuz berishi tufayli mehnatga haq to'lashning avvalgi shartlarini saqlab qolish mumkin bo'lmaganda hamda qonunda ko'zda tutilgan boshqa hollarda xodimning roziligesiz ham mehnatga haq to'lash shartlari ish beruvchi tomondan o'zgartirilishi mumkin.

Hozirgi davrda sanoat tarmoqlarida ishlar 1-8-razryadga bo'linadi. Eng sodda ishlar birinchi razryad, eng murakkabları esa 6-8-razryadlaridir.

Mehnatga haq to'lashni tashkil etish ishehilarning malaka tarkibini belgilab, mehnatni tashkil etishning ilg'or usullarini o'z ichiga olib, ishlovchilarning mulohaza yurita olishini ham e'tiborga oladi.

Qo'llanmalarda malakalar bo'yicha zarur talablar ko'rsatilgan, u ma'lum malakali ishchining kasbi doirasidagi bilim darajasi va bajariladigan ishning tarifi bilan izohlangan. Shuningdek, ma'lumotnomalarda ma'lum kasbdagi malakali ishehilarning bajaradigan muhim va keng tarqalgan rasmiy ishlariiga misol keltirilgan. Sanoatning barcha tarmoqlarida qo'llaniladigan yagona ish haqi qo'llanmasi ishlarning murakkabligi hamda ishehilarning malakalariga ko'ra belgilanadi.

Ish haqining tarif tizimiga binoan mehnatga to'lanadigan haqning miqdori soat, kun va oyga ko'ra belgilanadi. Sanoat korxonalarida ish haqining miqdori avvalo birinchi razryadli ishchining haqi, sharoiti, ish haqining shakli va ishlab chiqarishning intensivligiga bilan muvofiqlashtiriladi. Og'ir sanoat tarmoqlarida va zararli mehnat sharoitida ishlovchi ishlarga qo'shimeha 16-24% dan yuqori ish haqi belgilanadi.

Ish haqini tarif tizimi yordamida ishchilarga malakalari darajasiga muvosiq haq to'lashdagi zarur ma'lumotlar aniqlanadi.

Tarif tizimi bo'yicha barcha razryadlar uchun ish haqi tarif koefitsienti orqali belgilanadi. Tarif setkasining qolgan barcha qismlaridan tarif ish haqini belgilash va uning tarkibini tahlil qilishda foydalaniadi.

Tarif setkasidagi razryadlar soni ularning tarif malaka qo'llanmasi soniga muvofiqlashtiradi.

Tarif setkalarida ish haqining tashkil etishning asosiy tamoyillarini to'la saqlagan holda, mutaxassislarning malakalarini oshirishdan manfaatdorlik, mehnatga haq to'lashda asossiz tengsizlikka, yuqori va quyi razryaddagi ishehilarning ish haqlari orasida tafovutga yo'l qo'yilmaslik lozim.

Sanoat tarmoqlarining texnikaviy qurollanishidagi keskin farqning kamayishi natijasida oxirgi yillarda tarif setkalarida koeffitsient, razryadlar hamda setkalar kengaytirildi. Texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish natijasida malakasiz mehnat qisqarib bormoqda, texnika yordamida bajariladigan yangi-yangi ish turlari joriy etilmoqda.

5.3. Ish haqining turlari va shakllari

Zamonaviy mashinasozlik korxonalarida mehnatga haq to'lashning turli tizim va shakllari qo'llanilib, ulardan eng ko'p tarqalganlari sifatida ishbay va vaqtbay usulini ko'rsatish mumkin.

Mehnatga ishbay haq to'lash ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat) uchun to'lanadigan haqni anglatadi.

Mashinasozlik korxonalarida ko'pincha faqat ishbay emas, balki ishbay-mukofotli haq to'lashdan foydalilanadi.

Mehnatga ishbay-mukofotli haq to'lashda ishchi bajargan ishiga haq olishdan tashqari, mukofotga ham ega bo'ladi. Mukofot asosan ma'lum bir ko'rsatkichlarga erishish - mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarish, mahsulot sifatini oshirish, xomashyo va materiallarni tejash va shu kabilar uchun beriladi.

Mehnatga vaqtbay haq to'lash tarif tizimida ko'zda tutilgan ishlab berilgan vaqt - kalender vaqt emas, balki normativ vaqt uchun to'lanadigan haqni anglatadi.

Vaqtbay-mukofotli haq to'lashda ishchi ishlab bergan vaqtiga haq olishdan tashqari, ushbu ish haqiga ma'lum bir foiz hisobida mukofot ham oladi.

Vaqtbay ishchilarning tarif ish haqi fondi (F_v) quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$F_v = S_t \cdot E_t \cdot n$$

bunda:

S_t -- ishchining soatl tarif stavkasi, so'm;

E_t -- bitta ishchining hisobot davridagi foydali ish vaqt fondi, kun;

n -- ma'lum razryaddagi ishchilar soni, kishi.

Bevosita ishbay narx bo'yicha ish haqi fondi (F_{bin}) quyidagicha topiladi:

$$F_{bin} = N_m \cdot I$$

bunda:

N_m - mahsulot birligining ishbay narxi, so'm;

I --- ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.

Ish haqining soatli fondi (F_s) quyidagicha hisoblanadi:

$$F_s = F_{bin} \cdot M \cdot X_k$$

bunda:

M --- mukofot miqdori;

X_k --- bayram kunlari, tunda ishlaganligi, shogirdlarni o'rgatganligi uchun ishchilarga to'lanadigan qo'shimcha haq.

Ish haqining kunlik fondi (F_k) quyidagi tenglama orqali hisoblanadi:

$$F_k = F_s \cdot X_{k_e}$$

bunda:

X_{k_e} - emizikli onalar, voyaga yetmaganlarning qisqartirilgan ish vaqt, bayram kunlari ishlaganligi uchun ishchilarga to'lanadigan qo'shimcha haq.

Oylik, chorak va yillik (to'liq) ish haqi fondi (F_t) quyidagacha topiladi:

$$F_t = F_k \cdot X_q \cdot X_M$$

bunda:

X_q - davlat va jamoat ishlarini bajarganligi uchun beriladigan qo'shimcha haq;

X_M - navbatdagi va qo'shimcha ta'tillarga beriladigan qo'shimcha haq.

O'rtacha ish haqi miqdori quyidagi tenglamadan hisoblanadi:

$$III_o = \frac{F}{n}$$

bunda:

III_o --- soatlik, kunlik, oylik yoki yillik ish haqi fondi;

F --- ish haqi fondi;

n --- ishchilar soni.

To'xtovsiz ishlab chiqarishda tunda ishlagani uchun qo'shimcha haq quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$IH_{qo'sh} = F_{ur} \cdot \frac{1}{7} \cdot \frac{1}{3}$$

bunda:

$\frac{1}{7}$ - normadan ortiq ishlagan soat uchun qo'shimcha haq;

$\frac{1}{3}$ - yil davomida tungi smenalar ulushi.

Mehnatga akkord haq to'lash tizimi. Mehnatga ishbay haq to'lashning bir turi bo'lib, uning mohiyatiga ko'ra, bunda bajarilishi kerak bo'lgan ishlarni muddatini ko'rsatgan holda baholash amalga oshiriladi.

Korxonada quyidagi hollarda akkord haq to'lash tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- korxona biron-bir buyurtmani o'z vaqtida bajara olmasa va buning uchun shartnomaga asosan yirik miqdorda jarima to'laydigan bo'lsa;
- korxonaning to'xtab qolishiga sabab bo'lувчи favqulodda vaziyatlar (yong'in, sel, zilzila, suv toshqini yoki jiddiy sabablarga ko'ra asosiy texnologik liniyalarning ishdan chiqish hollari) ro'y berganda;
- alohida ishlarni bajarishga o'ta zarurat tug'ilganda yoki korxonada yangi asbob-uskunalar ishga tushirilganda.

MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. Ish haqi tushunchasi va mohiyati.
2. Real ish haqi nominal ish haqidan nimasi bilan farq qiladi?
3. Mehnatga haq to'lashning qanday tizim va shakllarini bilasiz?
4. Qaysi hollarda vaqtbay va ishbay haq to'lashdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi?

6-bob. MEHNAT UNUMDORLIGI

6.1. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari va hisoblash usullari

Mehnat unumdorligining tez sur'atlarda o'sishiga erishish iqtisodiyot taraqqiyotining asosiy vazifalaridan biri va mehnatkashlarning moddiy farovonligini oshirishning muhim shartidir. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichi mehnatning normal sharoitida, vaqt birligida ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmini ifodalaydi va mutaxassislarning maqsadga muvofiq faoliyatining natijasini tasvirlaydi.

Mehnat unumdorligining o'sib borishi milliy daromadning ortishi, mahsulot tannarxining pasayishi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosidir.

Ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga, ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning mehnat unumdorligini oshirish, shuningdek, sanoatga qo'shimcha ish kuchini jalb qilish yo'li bilan erishitadi. Ammo xodimlar sonini ko'paytirish hisobiga ishlab chiqarishni rivojlantirish imkoniyati muayyan chegaraga egadir.

Faqat mehnat unumdorligini oshirish evaziga jon boshiga shunday moddiy ne'mat ishlab chiqarishga erishish mumkin va yuqori mehnat unumdorligiga erishish natijasida boshqa iqtisodiy muammolarni ham hal qilish mumkin.

Mehnat unumdorligi deganda jonli mehnatdan maqsadga muvofiq foydalanish bilan bir qatorda, ishlab chiqarish vositalaridan va ishchilardan samarali foydalanish darajasi ham tushuniladi. Ishlab chiqarish vositalari va buyumlashgan mehnatning behuda sarflanishini bartaraf etish mahsulot tannarxining pasayishiga va ijtimoiy mehnat unumdorligining oshirilishiga imkon beradi. Demak, ijtimoiy mehnat unumdorligining oshishi mahsulot birligiga sarflanadigan jonli va buyumlashgan mehnatning kamaytirilishini umumlashtiruvchi ko'rsatkichdir.

Mehnat unumdorligi xodimni ish vaqtı birligi davomida (soat, smena, yil) ishlab chiqargan mahsulotlar miqdori (M_{ik}) yoki mahsulot birligini ishlab chiqarishga ketgan vaqt miqdori T_{ina} , bilan ifodalanadi:


$$M_U \cdot M_{ik}/T_{ish} \text{ yoki } T_{max} = T_{ish}/M_{ik}$$

Demak, mehnat unumdorligining o'sishi mahsulot birligini ishlab chiqarishga ketgan mehnat sarfining kamayishi, har bir xodimning ko'proq mahsulot ishlab chiqarishini anglatadi.

Mehnat unumdorligini hisoblab chiqishda natural, mehnat va qiymat (pul) usullari qo'llaniladi.

Natural usulda har bir ishehi yoki ishlab chiqargan mahsulotning miqdori natural o'lechov (dona) bilan aniqlanadi. Bunda jonli mehnat sarfini bildiruvchi kishi-soat, kishi-kun, kishi-oy, kishi-yil, ish vaqtı birliklaridan foydaniladi.

Mehnat unumdorligini oshirish rezervlari



3-rasm. Mehnat unumdorligini oshirish rezervlari

Mehnat usulida kishi-soat, ya'ni ma'lum vaqt birligi ichida mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan ish vaqt sarf (bir dona mahsulotning mehnat sarfi) umumiy o'lechov birligi bo'lib hisoblanadi, qiymat usuli mehnat unumdorligini aniqlashda keng qo'llaniladigan asosiy usullardan biri hisoblanadi. Bu usul bo'yicha korxonada ishlab chiqaralayotgan barcha turdag'i mahsulotlar hajmining qiymat ko'rsatkichi (ulgurji baho, normativ soz mahsulot) ifodalanadi. Bu esa ishlab chiqaralayotgan mahsulotning miqdorigina emas, balki uning

sifatiga xos o'zgarishlarni hisobga olish imkonini beradi.

6.2. Mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlari

Tajribaga binoan mehnat unumdorligini oshirishning ichki imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz:

1.Mahsulot ishlab chiqarish jarayonining mehnat talablilikini pasaytirish bilan bog'liq imkoniyatlar:

- yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilish;

- ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish.

2.Mehnatni tashkil etishni va ish kuchidan foydalanishni yangilash bilan bog'liq imkoniyatlar:

- ishlab chiqarishda nuqsonni qisqartirish evaziga mahsulot birligiga sarflanadigan mehnatni kamaytirish;

- ish vaqtida ishchi va xizmatchilarning ishga chiqmasligini qisqartirish hisobiga ish vaqtidan foydalanishni yaxshilash;

- normal mehnat sharoitining buzilishi natijasida sarflanadigan mehnatni bartaraf etish;

- evaziga mahsulot ishlab chiqarish normasini bajarmaydigan ishchilar sonini kamaytirish;

- ilg'or ish tajribalarini qo'llash;

- ishchilarning malakasini oshirish;

- ishni yaxshi tashkil etish;

- ishlab chiqarishni boshqarish jarayonini takomillashtirish va tarkibini yaxshilash natijasida boshqarish xodimlarning sonini qisqartirish va boshqalar.

MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida mehnat unumdorligini oshirishning ahamiyati qanday?

2. Nima uchun mehnat unumdorligi hisoblab chiqilganda natural va qiyomat ko'rinishida aniqlanadi?

3. Mehnat unumdorligi va mehnat talablilik tushunchasi bir-biri bilan qanday bog'liq?

4. Mehnat unumdorligini oshirishda korxonalarни ixtisoslashtirishning qanday ahamiyati bor?

7-bob. MASHINASOZLIK KORXONALARI MAHSULOTINING TANNARXI

7.1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati

Mashinasozlik korxonalarida mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari, umumlashtirilgan holda, mehnat xarajatlari deb yuritiladi.

Mehnat xarajatlari ikki xil bo'ladi:

1. Jonli mehnat xarajatlari: ayni vaqtda bajarilayotgan mehnat xarajatlari, bu xarajatlar ish haqi va ish haqi ajratmalarida aks ettirilgan bo'ladi.

2. Buyumlashtirilgan (ilgari sarflangan) mehnat xarajatlari, bu xarajatlar: xomashyo, materiallar, xarid qilingan mahsulotlar, energiya, amortizatsiya ajratmalarida aks ettirilgan.

Bu xarajatlarning pul ko'rinishidagi yig'indisi ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini tashkil etadi. ya'ni mahsulotni tayyorlash uchun sarflangan ishlab chiqarish vositalari, ishchi-xizmatchilarining ish haqi, boshqa korxonalar ko'rsatgan xizmati, ishlab chiqarishni boshqarish, xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarning pul birligidagi yig'indisi mahsulot tannarxini tashkil etadi.

Mahsulot tannarxining strukturasi (tizimi) o'zgarmas ko'rsatkich emas, unga quyidagi faktorlar ta'sir etadi:

- ishlab chiqarishning iqtisodiy -- texnikaviy xususiyatlari;
- mehnat sarf qiladigan ishlab chiqarish (mahsulot tannarxining asosiy qismini ish haqi tashkil etadi);
- material sarf qiladigan ishlab chiqarish (mahsulot tannarxida material sarfi ko'p);
- fond sarf qiladigan ishlab chiqarish (energiya va yoqilg'i xarajatlari sarfi).

Mashinasozlik korxonalarini mahsulotini tayyorlash texnologik jihatdan murakkab bo'lganligi uchun, bunday mahsulotni ishlab

chiqarish jarayonida ish haqi fondining salmog'i ko'p, shuning uchun ular ko'p mehnat sarf qiladigan mahsulot deb hisoblanadi.

- fan va texnika yutuqlarining ta'siri. Bunda mahsulot tannarxida jonli mehnat hajmi kainayib boradi, buyumlashtirilgan mehnat hajmi (amortizatsiya ajratmalari va moddiy xarajatlar) ko'payib boradi. Bundan tashqari hozirgi vaqtida ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish darajasi oshib borishi va mahsulot tayyorlashda intellektual mulk salohiyati ortib borishi natijasida mashinasozlik sanoati mahsulotlarining tannarxi sezilarli darajada oshib bormoqda.

-markazlashtirish, ixtisoslashtirish, kooperatsiyalash, kombinatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash;

- korxonaning geografik joylashishi;

- manbalar narxining darajasi, inflyatsiya va bank kreditlariga qo'yilgan foiz stavkasi.

Mashinasozlik korxonalarining xarajatlar tuzilishining tahlili xarajatlarni kamaytirish rezervlari va samarali boshqarish uchun ahamiyatga ega.

7.2.Mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash (hisoblash)

Xarajatlarni kalkulyatsiyalash xarajatlarni moddalar bo'yicha guruhlash, ma'lum bir mahsulot tannarxini aniqlash uchun qo'llaniladi, ya'ni (mahsulot ulgurji narxi rentabelligini, ishlab chiqarish samaradorligini aniqlash uchun zarur).

Mashinasozlik korxonalarida moddalar bo'yicha xarajatlarni kalkulyatsiyalash quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

1-modda. Xomashyo va materiallar.

2-modda. Xarid qilingan komplekt buyum, yarim fabrikatlar va boshqa korxonalar xizmatlari.

3-modda. Qaytariladigan chiqindilar (ayriladi).

4-modda. Texnologik maqsadlar uchun yoqilg'i va energiya.

5-modda. Ishlab chiqarish ishchilarining asosiy ish haqi.

6-modda. Ishlab chiqarish ishchilarining qo'shimcha ish haqi.

7-modda. Yagona ijtimoiy soliq. (Ishlab chiqarish ishchilarining asosiy ish haqidan olinadi).

8-modda. Ishlab chiqarishni tayyorlash va takomillashtirish xarajatlari.

9-modda. Ishlab chiqarishda foydalanilgan asbob va dastgohlar yemirilishi

10-modda. Ishlab chiqarish umumiy xarajatlari.

10.1-modda. Uskunalarini saqlash va ekspluatatsiya qilish xarajatlari.

10.2-modda. Sex xarajatlari.

11-modda. Xo'jalik unumiy xarajatlari.

12-modda. Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari.

13-modda. Brakdan kelgan yo'qotishlar.

14-modda. Tijorat (ishlab chiqarishdan tashqari) xarajatlar.

Bu yerda 1-10 moddagacha bo'lgan xarajatlar mahsulotning **sex tannarxini** tashkil etadi. 1-13 moddagacha bo'lgan xarajatlar korxonaning ishlab chiqarish **tannarxi** deb hisoblanadi.

Barcha moddalar 1-14 gacha bo'lgan xarajatlar **to'la (tijorat) tannarxini** tashkil qiladi.

Sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalashda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- to'gridan - to'gri hisob metodi;
- normativlar bo'yicha hisoblash;
- hisoblash - analitik metodi;
- solishtirma ko'rsatkichlar metodi;
- ballar bo'yicha hisoblash;
- parametrik ko'rsatkichlar metodikasi.

- To'gridan-to'gri hisob metodi eng sodda va qulay metod. Bunda mahsulot tannarxi barcha xarajatlar yig'indisini ishlab chiqarilgan mahsulot soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

- Normativ metodni qo'llash uchun - korxonada mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar normasi va normativlari, mehnat, materiallar va moliyaviy xarajatlar aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

- Hisoblash-analitik metod - korxonada mahsulot tannarxiga ta'sir etadigan barcha omillarni (ishlab chiqarish, texnikaviy, iqtisodiy va tashkiliy) tahlil qilish lozim.

- Solishtirma -ko'rsatkichlar metodi bo'yicha tannarxni aniqlashda - mahsulot og'irligini quvvat birligiga va yuk ko'tarish birligiga taqqoslash kerak.

- Ballar bo'yicha mahsulot tannarxini hisoblashda - mahsulotning texnik parametrlarini ballar bo'yicha hisoblash kerak.

- Parametrik metod - bu mahsulot tannarxi va texnik parametrlari o'rtaсидagi uzviy bog'liqlikni korrelyatsiya qismiga asoslanadi.

- Xarajatlarni kalkulyatsiyalash moddalarini bo'yicha ular quvidagi jihatiga asosan guruhanadi:

1. Tarkibiy qismi bo'yicha xarajatlar:

- bir elementli (xomashyo, materiallar, ish haqi va boshqalar);
- kompleksli (umumxo'jalik, umumkorxona xarajatlari).

2. Ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan:

a) asosiy - ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq xarajatlar (yoqilg'i, energiya, materiallar);

b) qo'shimcha - boshqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq (sex va korxona) xarajatlari;

3. Xarajatlarni bir dona mahsulot tannarxiga nisbatan va hisoblash metodi bo'yicha xarajatlar:

a) bevosita xarajatlar;

b) bilvosita xarajatlar;

- bevosita xarajatlar - mahsulot tannarxida bevosita hisoblash mumkin bo'lgan, bu xarajatlar vaqt, tarif, narxlar norma va normativlari asosida hisoblanadi.

- bilvosita xarajatlar sex va korxona ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq va ularni konkret mahsulot tannarxida hisoblash qiyin (uskunalarini saqlash va ekspluatatsiya qilish, sex, umumxo'jalik xarajatlari).

4. Uskunalarini saqlash va ekspluatatsiya qilish xarajatlari mahsulot tannarxida ikki usul orqali hisoblanadi.

1-usul. Ishlab chiqarish ishchilarining asosiy ish haqiga proporsional ravishda;

2-usul. Mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarf bo'lgan mashina - soatlar soniga proporsional ravishda.

5. Sex va umumxo'jalik xarajatlar mahsulot tannarxida uchta usul bilan hisoblanadi:

1-usul. Ishlab chiqarish ishchilarining asosiy ish haqini bir dona mahsulot tannarxiga proporsional ravishda.

2-usul. Mehnat sig'imiiga proporsional ravishda.

3-usul. Ishlab chiqarish ishchilarining asosiy ish haqi va uskunalarini saqlash va ekspluatatsiya qilish xarajatlari yig'indisiga proporsional ravishda – tijorat xarajatlari asosan mahsulot turlari bo'yicha ishlab chiqarish tannarxiga asosan taqsimlanadi.

7.3. Mahsulot tannarxini rejalashtirish

Mahsulot tannarxini rejalashtirish uchun quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlash zarur:

- natural va qiymat ko'rsatkichlarida ishlab chiqarilgan mahsulot soni, manbalar narxi va normasi, tariflar, soliq stavkasi, amartizatsion ajratmalar normasi, sug'urta normasi, ishlab chiqarishni qayta jihozlash to'g'risida ma'lumot.

Tannarxni rejalashtirish mahsulotni reja asosida kalkulyatsiyasiga bog'liq va quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblash ko'zda тутилади: yalpi, tovar va realizatsiya qilingan mahsulot tannarxini aniqlash va mahsulot turiga qarab tannarxini hisoblash.

Mahsulot tannarxi darajasiga ta'si, ko'rsatadigan asosiy texnik - iqtisodiy ko'rsatkichlar quyidagi to'rtta guruhga bo'linadi:

1. Ishlab chiqarishning texnik darajasiga bog'liq faktorlar;

2. Ishlab chiqarish, mehnat va boshqarish darajasiga bog'liq faktorlar;

3. Mahsulot hajmi va nomenklaturasini o'zgartirishga bog'liq faktorlar;

4. Xalq xo'jaligidagi va boshqa o'zgarishlarga bog'liq faktorlar.

I-guruh faktorlar mahsulot tannarxi kamayishiga fan va texnik progress ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni yangi texnikani o'rnatish, zamonaviy texnologiya va resurslarni tejaydigan uskunalarini qo'llash, ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, mahsulotning konstruktiv va texnik ko'rsatkichlarini mukammallashtirish, xomashyolar, materiallar, yoqilg'i va energiyalarning

yangi samarali turlarini qo'llash, mehnat umumdarligini oshirish, materiallar sarf qilish normasini kamaytirish zarur.

2-guruh faktorlar mahsulot tannarxining pasayishiga quyidagi omillar orqali ta'sir qiladi: mehnat va ishlab chiqarishni tashkiliy qismini takomillashtirish, ish vaqtidan samarali foydalanish, mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish vaqtini qisqartirish, korxonani boshqarishni takomillashtirish asosida boshqarov xarajatlarini kamaytirish. Bu guruh faktorlari tahlil qilinganda ishlab chiqarish asosiy fondlaridan samarali foydalanish asosida amartizatsion xarajatlar kamayishi kutiladi.

3-guruh faktorlar masulot tannarxiga ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi va assortimenti ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni korxonada bor ishlab chiqarish maydoni va uskunalarda ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi oshgan taqdirda mahsulot tannarxi kamayishiga asos bo'ladi.

4-guruh faktorlar mahsulot tannarxiga quyidagi omillar orqali ta'sir ko'rsatadi: narxlar, tarif stavkalari, transport tariflari, soliq stavkalari, inflyatsiya darajasi, bank kreditlariga stavka foizi va ularning o'zgarishi.

Korxonada mahsulot tannarxini kamaytirish maqsadida kompleks programma ishlab chiqish zarur, bunda tannarxga ta'sir etadigan barcha faktorlarni tahlil qilish va ular tannarxi kamayishini rejalashtirishda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xomashyo, material va energetika manbalaridan ratsional ravishda foydalanish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish;

- asosiy ishlab chiqarish fondlaridan ratsional ravishda foydalanish tadbirlari;

- mehnat resurslaridan samarali foydalanish tadbirlari;

- ishlab chiqarish, mehnat va boshqarishni takomillashtirish bo'yicha tadbirlarni joriy etish.

Yuqorida ko'rsatilgan tatbirlami tatbiq etish mahsulot tannarxining kamayishiga va korxona moliyaviy ahvolini yaxshilashga asos bo'ladi.

MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi deganda nimani tushunasiz?
2. Tannarxning strukturasi.
3. Mahsulot tannarxini pasaytirish yo'llari.

8-bob. FOYDA VA RENTABELLIK

8.1. Foyda ko'rinishlari va ularni hisoblash usullari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mashinasozlik korxonalarining asosiy maqsadi foyda olish hisoblanadi. Korxona ishlab chiqargan mahsulotiga mustaqil narx belgilab, iste'molchiga yetkazib berish va mahsulotni sotishdan korxona hisobiga tushgan pul mablag'lari kirim hisoblanadi. Kirim mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlaridan oshib ketsa, korxona moliyaviy faoliyati natijasida foydasi shakllanadi, ya'ni korxonaning daromadlari xarajatlaridan yuqori bo'lsa, foyda olinadi.

Foyda qo'shimcha mahsulotning bir qismi bo'lib, korxonalar xo'jalik faoliyatining eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichi hisoblanadi va korxona ishining samaradorligini ko'rsatadi. Foydada xo'jalikni boshqarish va ishlab chiqarish manbalaridan foydalananish darajasi, ularning sifati va realizatsiya qilish muddatlari o'z aksini topadi.

Korxonaning (birlashmaning) umumiy (jami) foydasi balans (F_b) foyda deb ataladi va quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$F_b = F_1 + F_2 + F_3$$

bunda: F_1 - tovar mahsulotini sotishdan tushadigan foyda;

F_2 - boshqa faoliyatdan olinadigan foyda deb ataluvchi nosanoat tushidagi mahsulot, ijara va xizmat ko'rsatishlardan tushadigan foyda;

F_3 - realizatsiya qilinmaydigan operatsiyalar natijalaridan tushadigan tushumlar.

Korxonaning foydasi quyidagicha farqlanadi:

I.Mahsulot sotishdan olingan foyda - (F_s) bu foyda turi quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$F_s = N_{n,n} \cdot T_n$$

bunda:

N_{un} - mahsulotning ulgurji narxi, so'm;

T_u - mahsulotning to'la tannarxi, so'm

2. Balans bo'yicha olingan (umumiy) foyda. Bu foyda quyidagi-cha aniqlanadi:

$$F_{\text{bal}} = F_{\text{un}} - Z_{\text{un}}$$

bunda: Z_u - mahsulot ishlab chiqarish jarayonida ko'rilgan jami zarar, so'm.

3. Hisobiy foyda quyidagicha topiladi:

$$F_{\text{his}}$$
 = F_{un} + T_u

bunda:

T_i - yer, suv va boshqa jami to'lovlar yig'indisi.

O'zbekiston Respublikasi narxlar qo'mitasining qaroriga binoan foyda (ziyon) mahsulot, tovar, ko'rsatiladigan xizmatlarni shartnoma ulgurji narxlarida realizatsiya qilishdan tushadigan pul bilan (qo'shimcha qiymat solig'i va aksizlarsiz) ularning to'la tannarxiga kiradigan barcha sarf-xarajatlarning ayirmasi orqali aniqlanadi. Ushbu qarordagi ko'rsatmaga binoan mahsulotni realizatsiya qilishdan olinadigan foydani quyidagi ifoda bilan aniqlash mumkin.

$$F_{\text{un}} + \sum_{i=1}^n (N_i - T_i) Q_i$$

bunda:

N_i va T_i - mos ravishda korxonaning i turidagi mahsulot birligining shartnoma ulgurji bahosi va to'la tannarxi, so'm;

Q_i - realizatsiya qilinadigan i turidagi mahsulot hajmi, natural birliklarda, $i=1,2,3,\dots,n$ - chiqariladigan mahsulot turi

Boshqa mahsulotlar yoki xizmatlar realizatsiyasidan olinadigan foyda korxona asosiy ishlab chiqarishga xos bo'lmagan o'zga mahsulotlar (xalq iste'mol mollarini) sotish, korxona balansidagi avtoxo'jalik faoliyati, yordamchi xo'jalik mahsulotlarini sotish, o'zga korxonalarga elektr energiya, issiqlik, bug', suv va boshqalarini sotish evaziga hosil bo'ladi.

Realizatsiya qilinmaydigan operatsiyalar natijasida keladigan foyda korxona hisobiga iste'molchilar qarzlarini, jarima va boshqa to'lovlarining kelib tushishidan tashkil topadi.

Yuqorida keltirilgan formula va fikrlardan ko'rinish turibdiki, narxlarning muayyan darajasida mahsulot tannarxi qanchalik kam va uni ishlab chiqarish hajmi qanchalik ko'p bo'lsa, korxona foydasining miqdori shunchalik yuqori bo'ladi. Aksincha, tannarxning oshishi yoki mahsulot chiqarish hajmi qisqarishi foyda miqdorini kamaytiradi.

Korxona foydasining hajmi chiqariladigan mahsulot sifatiga ham bog'liqidir. Chunki yuqori sifatli mahsulot odatda xiyla yuqori ulgurji baholar bilan realizatsiya qilinadi.

8.2. Foydani taqsimlash tartibi va ko'paytirish asosiy yo'nalishlari

Islohotga qadar korxonalarga mahsulot tannarxini kamaytirish va foyda olish yuzasidan topshiriq belgilanar edi. Hozir esa, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida mahsulot tannarxini kamaytirish, realizatsiya qilinadigan mahsulotni ko'paytirish va uning sifatini oshirish hisobiga olinadigan foyda miqdorini korxonaning o'zi belgilaydi. Bu hol korxonaning xo'jalik mustaqilligini ta'minlaydi. uning o'z xo'jalik faoliyatining natijalarini yaxshilashga majbur qiladi, ularga foydani ko'paytirishning eng samarali yo'llarini tanlash imkonini beradi.

Foydaning mutlaq (umumiy) hajmi korxona ishlab chiqarishi samaradorligining muhim ko'rsatkichidir. Biroq u ishlab chiqarish quvvati kattaligi turlicha bo'lgan korxonalarning, ishlab chiqarish samaradorligini taqqoslab ko'rishga imkon bermaydi, chunki olinadigan foyda hajmi sezilarli darajada mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog'liq.

8.3. Rentabellik ko'rinishlari va ularning iqtisodiy mohiyati

Ayrim korxonalarning ishlab chiqarish samaradorligini baholash uchun foydaning nisbiy ko'rsatkichi bo'lmish rentabellikdan foydalaniлади.

Sanoatda rentabellik ikki ko'rinishda ifodalanadi: mahsulot rentabelligi va ishlab chiqarish fondlarining rentabelligi.

Mahsulot rentabelligi (P) mahsulotni sotishdan tushadigan foyda bilan uni ishlab chiqarish va sotish surʼat-xarajatlari (tannarx) orasidagi bogʼliqlikni aks ettiradi: u joriy xarajatlarning har bir soʼmiga toʼgʼri keladigan soydaning nisbiy (%) miqdorini koʼrsatadi. Bunday koʼrsatkichning qulayligi shundan iboratki, uni barcha mahsulotlar (sotilgan va ishlab chiqarilgan) boʼyicha hamda ayrim mahsulotlarning tannarxi aniq boʼlganligi sababli ularning turlari boʼyicha aniqlash mumkin. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$R_{\text{m}} = \frac{F_s}{T} \times 100 \%$$

bunda:

R_{m} - mahsulot rentabeligi;

F_s - mahsulotni sotishdan tushgan foyda;

T - mahsulotni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari.

Biroq bu usul qulayligiga qaramay shu mahsulotni yaratishda faol qatnashgan ishlab chiqarish fondlari hajmini oʼzida aks ettirmaydi Shuning uchun sanoatda korxonaning rentabelligini (foyda miqdorining ishlab chiqarish fondlarining oʼrtacha yillik miqdoriga nisbati) ishlab chiqarish fondlarining rentabelligi (R_f) orqali aniqlanadi:

$$R_f = \frac{F_b}{(A_{\text{as}} + A_{\text{ay}})} \times 100 \%$$

bunda:

F_b - balans foyda miqdori, soʼm;

A_{as} - asosiy fondlarning yillik oʼrtacha miqdori, soʼm;

A_{ay} - aylamma mablagʼlarning meʼyorlanuvchi qismi, soʼm.

Rentabellik darajasining oshishi korxona ishlari yaxshilanganligi va ishlab chiqarish samaradorligi oshganligini bildiradi. Korxonalarda rentabellik darajasini oshirishning bir qator usullari bor boʼlib, ularidan eng asosiyları quyidagilar:

- mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish;
- mehnat haqi va ishlab chiqarishni takomillashtirish;

- oqilona xo'jalik yuritish, ya'ni mahsulot birligida mehnat va moddiy resurslar sarf-xarajatlarini muttasil kamaytirib borish;
- ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilash va boshqalar.

MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. Foydaning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.
2. Foyda turlari.
3. Mashinasozlik korxonalarida foydani taqsimlash.
4. Rentabellik tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati.
5. Mahsulot rentabelligi deganda nimani tushunasiz?
6. Rentabellikni oshirish yo'llari.

9- bob. MASHINASOZLIK KORXONALARIDA MAHSULOTLAR BAHOLARINING SHAKLLANISHI

9.1. Korxonalarda mahsulot baholarining shakllanishi

Baho bozor kategoriyasi bo'lib, tovarlar ayirboshlanganda yuz beradigan munosabatlarni anglatadi. Oqilona, ilmiy jihatdan asoslangan baho va baholash iqtisodiyotning ilmiy va amaliy vositalaridan biri hisoblanadi.

Baho bamisoli barometr kabi bozor holatini ko'rsatib turadi, u pasayib ketsa, tovar bozori kasodga uchraydi, tovar nafsiz bo'lib, uni boshqa tovar bilan almashtirish yoki sifatini yaxshilash zarurligi kun tartibiga qo'yiladi.

Bahoni shakllantiradigan asosiy omillar:

1. Iqtisodiy xarajat darajasi;
2. Tovarlarning naflilik darajasi;
3. Tovarga bo'lgan talab va uning taklifi;
4. Raqobat shakllari va usullari;
5. Tovarni iste'mol qilish vaqtisi.

Bahoning iqtisodiy mazmunini uning funksiyalari yaqqol ko'rsatib beradi. Baho nimaga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar (tovar, xizmat, ish kuchi, kreditlar narxi) – beshta asosiy funksiyani bajaradi:

1. Bozor muvozanatini ta'minlash funksiyasi. Bunda baho bozordagi talab va taklifning hajmi va tarkibiga ta'sir etish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi.

2. Hisob – kitob, o'chov funksiyasi. Baho qiyamatning puldag'i ifodasi, chunki bajarilgan ish hajmi, foyda-zararning barchasi baho asosida hisob-kitob qilinadi.

3. Iqtisodiy regulyator funksiyasi. Baho bozor iqtisodiyotining asosiy vositalaridan biridir. Undagi o'zgarish bozor holati (konyunkturasi) ni bildiradi.

4. Raqobat vositasi funksiyasi. Raqobat bozor iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi kuch, baho vositasida bellashuv raqobatning asosiy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Firmalar o'z raqiblarini yengish, ularni bozordan siqib chiqarish uchun bahoni o'zgartirib turadilar.

5. Ijtimoiy himoya funksiyasi. Baho ayrim aholi toifalarini kambag'allikdan saqlash vazifasini o'taydi. Odatda, aholining nochor va muhtoj qatlamlariga tovarlar arzonlashtirilgan baholarda sotiladi. Bular ijtimoiy dotatsiyalangan baholar bo'lib, ularni moliyaviy jihatdan davlat byudjeti yoki byudjetdan tashqari mablag'lar ta'minlaydi. Dotatsiyalangan baholarni davlat belgilaydi.

9.2. Bahoni shakllantiruvchi omillar

Tovar bahosi quyidagi omillar ta'siri natijasida yuzaga keladi:

- talab va taklifa asosan;
- ishlab chiqarish xarajatlariga asosan;
- davlat iqtisodiy siyosatini ifodalovchi omillarga asosan;
- inflyatsiya darajasi va valyuta kursiga asosan;
- raqobatga asosan;

- boshqa omillar (masalan, buyumning yashash davomiyligi, mahsulot sisfati).

Mashina va mexanizmlarning salmoqli qismi (stanoklar, avtomobillar, qishloq xo'jalik mashinalari, energetik uskunalar) oligopolija bozorida sotiladi. Bu bozorning quyidagi belgilari mavjud:

- yirik va o'rta kompaniyalar mavjudligi;
- baholar ustidan nazorat cheklanganligi;

- agar bozorda yangi ishlab chiqaruvchi paydo bo'lsa, unga qarshiliklar va to'siqlar mavjudligi;
- narxsiz raqobatning ustunligi.

Bozor sharoitida baholar talab va taklifga asosan shakllanadi. Talab ehtiyojning pul bilan ta'minlangan qismi bo'lib, bahoning maksimal chegarasini belgilaydi. Talab qonuniga asosan baho va talab bir biri bilan teskari bog'liqlikda bo'lib, baho qanchalik yuqori bo'lsa, talab shunehalik past bo'ladi.

Bahoning minimal chegarasi mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan o'rta ishlab chiqarish xarajatlari orqali aniqlanadi. Mahsulot bahosi ishlab chiqarish xarajatlari va foydani ta'minlashi kerak. Mashinasozlik korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari tarmoqning keng iste'mol tovarlari (avtomobil, uskuna, instrument) bahosiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Davlat iqtisodiy siyosatini aniqlovchi omillar (soliqlar, aksizlar, kreditlar) uchun davlat narxlarni tartibga keltirish uchun foizlarni belgilab beradi. Valyuta kursining o'zgarishi, ya'ni milliy valyuta kursining o'zgarishi natijasida eksportchi korxonalar eksport qiluvchi tovarlar narxlarini pasaytirishga erishadilar. Bu esa o'z naybatida eksportga yo'naltirilgan tovar mahsulotini raqobatbardoshligini oshiradi. Agar milliy valyuta kursi oshsa, tabiiy ravishda mahsulot narxi oshadi.

Bahoning shakllanishiga shuningdek mashina va uskunalarning xususiyatlari ta'sir ko'rsatadi. Mashina va uskunalarning quyidagi unumiy xususiyatlari mavjud:

1. Ma'lum bir qismdagi mashina va mexanizmlar (stanoklar, qurilish texnikasi, energetik uskunalar) ishlab chiqarish texnik maqsadlari uchun mo'ljallangan tovarlar bo'lib, bularga talab tarmoqning rivojlanishiga bog'liq. Masalan, metall qirquvchi stanok va uskunalar avtomobil sanoati va qishloq xo'jalik mashinasozligi, aviatsiya sanoati rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi. Qurilish va mebel sanoati rivojlanishidan yog'ochni qayta ishlovchi uskunalarga bo'lgan talab oshib boradi.

2. Mashina va uskunalar uzoq muddatga mo'ljallangan tovarlar guruhiga kirib, ularda bahoning shakllanishiga energiya sig'imi, ekologik xarakteristikalari kiradi.

3. Mashina va mexanizmlar turli darajadagi universalligi bilan ajralib turadi.

9.3. Mashisozlik korxonalarini mahsulotlarining baho turlari

Baholar ishlab chiqarishning rivojlanishiga o'z vazifalari orqali ta'sir etadi. Bozorda turli mehnat sarflari umumiyligi, ya'ni ijtimoiy zarur mehnat sarfiga keltiriladi va shu sarfning pulda isfodalanishi bahoni hosil qiladi. Bozorda sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi iqtisodiy munosabat ta'sirida narxning shakllanishida har ikki tomon ishtirok etadi. Xaridor deganda, biz tovar va xizmatlarni iste'mol etuvchilar fuqarolar, ishlab chiqarishni yurgizish uchun resurslarni sotib oluvechi firmalarni tushunamiz. Baholarning shakllanishida tovarni ishlab chiqarishdan tortib, iste'molga yetgungacha bo'lgan mehnat sarflari ishtirok etadi. Jamiki xarajatlardan baho tarkibiga kiradi.

Baholarning asosiy turlariga quyidagilari kiradi:

1. Ulgurji baholar. Tovarlar ko'tarasiga katta miqdorda sotilganda bu baholardan foydalaniladi. Bunday bahoni asosan ulgurji savdo-sotiq olib boriladigan savdo markazlarida uchratish mumkin.

2. Chakana baholar. Tovarlar bevosita iste'molchilarga sotilganda foydalaniladi. Bu baho o'z ichiga tovar ulgurji narxini, chakana savdo tashkilotchilarining xarajati va foydasini oladi.

3. Nufuzli baholar. Bu baholardan obro'talab iste'molchilarga tovarlar sotilganda va xizmatlar ko'rsatilganda foydalaniladi.

4. Dotatsiyali baholar. Bunda tovarlar davlat byudjeti hisobidan arzonlashtirilgan baholar orqali sotiladi.

5. Davlat baholari. Ishlab chiqaruvchilarga davlat tomonidan buyurtma berilganda qo'llaniladigan baholar.

6. Mavsumiy baholar. Mavsumiy ishlab chiqariladigan tovarlarga belgilanadi.

7. Milliy va jahon baholari - alohida tovarning baynalminal xarajatlari. Bunda jahon bozoridagi talab va taklif nisbati hisobga olinadi.

8. Standart baholar. Xaridor cho'ntagidagi pulga qarab, ma'lum davrgacha o'zgarmaydigan qat'iy standart narxlar qo'llaniladi.

9. Preyskurator baholar. Bu baholar sotuvchi uchun mo'ljal baho, xaridor uchun bildirishlik yoki ma'lumot baho hisoblanadi.

10. Korxonaning ulgurji bahosi - bunda korxonalar o'z mahsulotlarini sotadigan narx tushunilib, uning tarkibiga tannarx va foyda kiradi. Bu baho korxona ishlab chiqarish xarajatlarini ko'plab, foyda olishni ta'minlaydi.

MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. Baho tushunchasi ta'rifini keltiring.
2. Baho qanday vazifalarni bajaradi?.
3. Qanday baho turlarini bilasiz?
4. Ulgurji baho deganda nimani tushunasiz?

10-bob. KORXONALARING INVESTITSIYA FAOLIYATI

10.1. Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining bozor munosabatlariiga o'tishi jarayonida hal qilinishi kerak bo'lgan ayrim muammolar paydo bo'lmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan paydo bo'lgan vazifalardan biri - bozor tuzilmasining eng asosiy qismi investitsiya bozorini tashkil etish, uni shakllantirish va rivojlantirish. Rivojlangan davlatlarda iqtisodiy barqarorlikning asosi bu investitsiya bozori. Bu bozor murakkab, harakatchan va o'z-o'zini takomillashtirib boruvchi tizim va o'z faoliyatida investitsiya, intelektual mulk, qimmatli qog'ozlar, tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish bozoriga bo'linadi.

O'zbekiston iqtisodiyotining, umuman jahon iqtisodiyotining taraqqiyoti investitsiyalarga bog'liqligini nazarga tutsak, hozirgi kunda iqtisodiyotimizga investitsiyalarni, xususan, chet el investitsiyalarini kengroq jalb etish mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarni samarali ijrosini ta'minlashning muhim asosi bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov "Vatanimizning kelajagi, uning jahon iqtisodiy aloqalari tizimidagi

o'rni investitsiyalarga bog'liq bo'lib turibdi", - deb bejiz ta'kidlamagan edilar. Shunga ko'ra, iqtisodiyotni faol rivojlantirish keng miqyosdagi investitsiyalarni talab qiladi.

Investitsiya siyosati har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi va ishlab chiqarishni kengaytirishning eng asosiy yo'nalishlaridan biridir. Shu bois investitsiya faoliyati to'g'risida so'z yurutishdan avval bu sohaga oid ba'zi bir atamalar (investitsiya, kapital qo'yilma, xorijiy investitsiya) mohiyatini aniqlab olish kerak.

«Investitsiya» tushunchasi ayrim iqtisodchilar tomonidan «tadbirkorlik faoliyatiga daromad olish maqsadida safarbar etilgan barcha turdag'i boylik» deb talqin qilinadi. Demak, investitsiya deganda, daromad keltiruvchi kapital aktivlarini yaratish maqsadida sarflangan yalpi milliy mahsulotning bir qismi va makroiqtisodiyot darajasida kengroq ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun sarflangan chiqimlar tushuniladi.

Investitsiya milliy iqtisodiy tizimning barcha sohalariga qo'yilgan kapitalni saqlashni, uni miqdor va sifat jihatidan o'stirishni, daromad keltirishni ta'minlaydigan kapital joylashtirish usulidir.

Investitsiyalarning ko'rinishlari va shakllari

1. Pul mablag'lari, bankdagi maqsadli jamg'armalar (aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar).
2. Harakatdag'i va ko'chmas mulklari.
3. Huquqiy, ixtirolardan kelgan mablag'lar, mulkdorlik huquqlari (nou-xau).
4. Yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish natijasida vujudga kelgan moliyaviy mablag'lar.
5. Boshqa daromad yoki ijtimoiy samara beruvchi boyliklar.

Investitsiyalar maqsadi va sarflanishiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi:

1. Real investitsiya - milliy iqtisodiyotda yoki xorijiy davlatda ishlab chiqarish (sanoat, qishloq xo'jalik, qurilish yoki boshqa sohalarda) kapital qo'yish shaklida amalga oshiriladi.
2. Moliyaviy investitsiya - aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olishga va bank depozitlariga uzoq muddatga qo'yilgan mablag'lardan iborat.

Investitsiyalar – boshqarish huquqini berish, muddati, tavakkalchilik darajasi, kelib chiqishiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi.

1. Boshqarish huquqini berish bo'yicha:
 - to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita investitsiyalar;
 - portfel investitsiyalar.
2. Amal qilish muddati bo'yicha:
 - qisqa muddatli;
 - uzoq muddatli.
3. Tavakkalchilik darajasi bo'yicha:
 - tavakkalchiligi, past ishonchli;
 - tavakkalchiligi yuqori .
4. Kelib chiqishiga qarab:
 - milliy ichki (davlat, xususiy);
 - xorijiy (davlat, xususiy).

10.2. Investitsiya muhiti

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida har bir mustaqil davlat xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar olib borishga harakat qiladi. O'zbekiston ham o'z iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishda boshqa davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni o'rnatishga harakat qilmoqda. Buning uchun jahon tajribasini hisobga olgan holda iqtisodiy islohotlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish ahamiyat kasb etadi, aniqroq aytganda investitsiya siyosatini to'g'ri olib borish lozim. Investitsiya sohasida muvaffaqiyatga erishish shu davlatda investitsiya muhiti qay darajada rivojlanganligiga bevosita bog'liq.

Investitsiya muhitini to'g'ri tashkil etish birinchi navbatda tashqi iqtisodiy munosabatlarga doir qonunlar, farmoishlar va boshqa huquqiy me'yorlar qabul qilshga bog'liq, chunki tashqi iqtisodiy aloqalar milliy iqtisodiyotni qayta shakllantirishga va xalqaro huquq va kelishuvlar asosida iqtisodiyotni yangi bosqichga olib chiqishga asos bo'ladi.

Investitsiya muhiti, uni tashkil etish va rivojlantirish, jahon iqtisodiy aloqalarida yangilik emas, ammo bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarning bu sohada tajribasi yetarli bo'lmasligi

mumkin. Shuning uchun milliy mamlakatlar investitsiya muhitini yaratishda bir qator tadbirlarni ishlab chiqishlari zarur.

Investitsiya muhiti keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investorlar inobatga oladigan barcha muammo va masalalarni o'z ichiga oladi, ya'ni uni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar tashkil qiladi.

Investorlar investitsiya muhitini o'rgangan holda sarmoya kiritmoqchi bo'lgan davlatning iqtisodiy siyosati, imkoniyati, investitsiyalarni himoya qilishga qaratilgan qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilingani va ijro etilishiga katta ahamiyat beradi va bu muhitni har tomonlama tahlil qilish asosida investitsiya tavakkalchiligi aniqlanadi. Shu sababli investitsiya muhiti qanchalik qulay bo'lsa, investorning tadbirkorlik tavakkalchiligi shunchalik past darajada bo'ladi, ya'ni bu hol investorlarni jalb etishga va sarmoyaning kirib kelishiga imkoniyat yaratadi. Aksincha, agar investitsiya muhiti noqulay bo'lsa, tadbirkorlikning tavakkalchilik darajasi yuqori bo'ladi va investitsiyani bu davlatga kirib kelishi kamayib boradi.

Iqtisodiyotda investitsiya muhiti o'zining murakkabligi va mukammalligi bilan xarakterlanadi va investorlar hamda kapitalni qabul qiluvchi tomonlarning bo'lajak munosabatlariiga asos bo'ladi.

Hozirgi kunda investitsiya muhiti asosan davlat boshqaruvi organlari ta'siri ostida tashkil etilmoqda, bu shundan dalolat beradiki, investitsiya muhitini barpo etadigan va unga ta'sir etadigan asosiy omil bu davlatadir. Ammo bozor iqtisodi sharoitida bu masalani hal qilish, investitsiyalarni bevosita qabul qiluvchi korxonalar, tashkilotlar va xo'jaliklar tomonidan olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Davlatning investitsiya faoliyatiga ta'siri - investitsiya muhitini aniqlovchi muhim omillardan biri, shuning uchun davlat samarali investitsiya muhitini yaratishga harakat qiladi. Rivojlantayotgan davlatlar asosiy e'tiborni investitsiya muhiti va uning shakllanish holatiga beradi.

Har bir milliy iqtisodiyotni jahon talablariga asos ravishda rivojlantirishni oldiga maqsad qilib qo'yan davlat investitsiya muhitini shakllantirish va zamon talabiga javob beradigan muhitni yaratishga katta e'tibor bilan yondashish zarur.

Investitsiya muhitiga quyidagi omillar ta'sir etadi:

1. Siyosiy omillar:

- investitsiya davlat siyosati;
- xalqaro kelishuvlarga rioya qilish;
- iqtisodiyotga davlat aralashuv darajasi;
- xalqaro shartnoma va tashkilotlar tizimidagi ishtiroki;
- davlat apparatining ish faoliyi;
- hokimiyatning investitsiyaga moyilligi;
- huquqiy-qonunchilik bazasining yaratilganligi.

2. Iqtisodiy omillar:

- iqtisodiy umumiyl holat;
- valyuta kursining barqarorligi;
- intlyatsiya jarayoni va sur'ati;
- soliq imtiyozlari;
- kredit qiymati;
- bojxona tarkibi;
- ish kuchi qiymati va undan foydalanish tartibi;
- aniq mahsulot va xizmatlarga talab va taklif.

3. Ijtimoiy omillar:

- xususiy mulk va chet el sarmoyasiga jamoatchilik munosabati;
- jamiyatning ma'skuraviy birdamlik darjası;
- mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyotining asosiy masalalari bo'yicha kelishuvning mavjudligi.

Investitsiya jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, unga ta'sir etuvchi omillarning to'g'ri yo'naltirilishi bilan uzviy bo'g'liq va ijobjiy tashkil etilgan investitsiya muhiti, investitsiya loyihalarinining muvaffaqiyatlari amalga oshishi, xorijiy sarmoyalar iqtisodiyotga jalb etilishi davlat valyuta zaxirasining boyishi, ya'ni milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga olib keladi.

10.3. Investitsiya turlari va shakllari

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida va samarali investitsiya bozorini tashkil qilish hamda uni rivojlantirish jarayonida investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyotga jalb etilgan investitsiyalar moliyaviy va moddiy resurslar ko'rinishida amalga oshiriladi.

1. Moliyaviy resurslar ko'rinishida:

- naqd pullar;
- chet el valyutasi;
- xalqaro to'lov pullari;
- aksiyalar;
- korxonalar mablag'lari;
- amartizatsyon ajratmalar fondi.

2. Moddiy resurslar ko'rinishida:

- xomashyo resurslari;
- ko'chmas mulk;
- jamoa-shirkat xo'jalik mulki;
- fermerlar mulki;
- dehqon xo'jaligi mulki;
- tadbirkorlar mulki.

Investitsiya turli shakllarga ega bo'lgani uchun ularning iqtisodiyotdagi o'rni va harakati bir-biridan farq qiladi va o'z xususiyatlariiga ega. Shuning uchun har bir yo'nalishdagi mablag'larni, uning xususiyatlarini inobatga olgan holda, aniq investitsiya loyihalariga yo'naltirilishi lozim, chunki har bir investoring loyihani amalga oshirishidan maqsadi yuqori daromad olishdan iborat.

Investitsiya manbalari

1. Ichki mablag'lar:

- foyda;
- amartizatsiya ajratmalari.

2. Jalb qilingan mablag'lar:

- aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish orqali jalb qilingan mablag'lar.

3. Bank kreditlari:

- qisqa muddatli kreditlar;
- o'rta muddatli kreditlar;
- uzoq muddatli kreditlar.

4. Jamg'armalar:

- aholining pul jamg'armalari;
- tadbirkorlarning vaqtincha bo'sh pul jamg'armalari.

5. Chet el mablag'lari.

- xorijiy investitsiyalar;
- xorijiy kreditlar.

Investitsiyalarning turlari

Bozor iqtisodiyoti sharoyitida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida investitsiyalarning quyidagi turlari mavjud:

Investitsiyalar korxona faoliyatida hisob-kitob, tahlil qilish va rejalashtirishda quyidagi sifatlari bo'yicha tasniflanadi.

I. Pul mablag'larini obyektga qo'yish bo'yicha:

1. Real investitsiyalar (pul va kapital qo'yilmalar).

- pulni (kapital qo'yilmani) material va nomaterial aktivlarga avanslash.

Kapital qo'yilmalar quyidagi tizimga avanslanishi mumkin:

a) tarmoq tizimi bo'yicha (sanoat, transport, qishloq xo'jaligi va hokazo).

b) qayta tiklanish tizimi bo'yicha (yangi qurilish, korxonalarini kengaytirish, rekonstruksiya qilish).

c) texnologiya tizimi bo'yicha (qurilish va montaj ishlari uskuna va dastgohlar sotib olish va boshqa kapital xarajatlari).

2. Moliyaviy investitsiyalar:

- qimmatbaho qog'ozlarga investitsiyalar qo'yish.

a) ulushli (aksiyalar).

b) qarzli yoki nasiyal (obligatsiyalar).

II. Investitsiyalashda ishtirok etish xarakteri bo'yicha:

1. Bevosita investitsiyalar - investor bevosita ishtirok etadi (obyektni tanlashda).

2. Bilvosita investitsiyalar - moliyaviy vositachilar orqali sodir bo'ladi (tijorat banklar, investitsiya kompaniyalari, fondlar).

III. Investitsiyalash davriga ko'ra:

1. Qisqa muddatli qo'yilmalar 1 yilgacha.

2. Uzoq muddatli qo'yilmalar 1 yildan yuqori.

IV. Xususiylik shakli bo'yicha:

1. Chakana investitsiyalar - tadbirkorlik faoliyati.

2. Davlat investitsiyalari - davlat idora qiladigan korxonalarga federal va regional byudjetdan, byudjetdan tashqari fondlardan qo'yiladi.

V. Xorijiy va ichki pul qo'yilmalari bo'yicha:

1. Xorijiy pul qo'yilmalari - chet davlat yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan amalga oshiriladi.

2. Ichki pul qo'yilmalari – mamlakat fuqarolari va korxonalarining mablag'lari.

VII. Investitsiyalarning xavf-xatar darajasi bo'yicha:

1. Xavf-xatarsiz investitsiya – daromadni yoki kapitalni yo'qotish xavfi bo'lmaydi, real foyda olinadi.
2. Kichik xavfli investitsiya – kapital xavf-xatari o'rtacha bozor xavf darajasidan kichik obyektlarga qo'yiladi.
3. O'rtacha xavf-xatarli investitsiya – kapital xavf-xatari bozor o'rtacha xavf-xatariga teng obyektlarga qo'yiladi.
4. Yuqori xavf-xatarli investitsiya – kapital qo'yilmoqchi bo'lgan obyektlar xavf-xatari bozor o'rtacha xavf-xataridan yuqori.
5. Savdogarlik investitsiya – kapitalni xavf-xatari ko'proq bo'lgan aktivlarga qo'yish (maksimum darajada foyda olish maqsadida).

VIII. Investitsiya faoliyati subyektlari bo'yicha:

1. Loyiha buyurtmachilari.
2. Obyektdan foydalanuvchilar.
3. Moliyaviy vositachilar.
4. Shaxslar.
5. Xorijiy va qo'shma korxonalar.

VIII. Investitsiyalash maqsadi bo'yicha:

1. Strategik investorlar – kompaniyalarning aksiyalarini (nazarat) kontrol paketini sotib olish yoki ustav kapitalining katta ulushiga ega bo'lish nazarda tutiladi.
2. Portfel investorlari – o'z kapitalini turli xil moliyaviy investitsiyalarga qo'yish yoki kelajakda yuqori daromad keltiradigan firmalar aksiyalarini sotib olish maqsadida.

10.4. Korxonalarning investitsiya siyosati

Bozor iqtisodi sharoitida korxonalar, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, ishlab chiqarishni kengaytirish, mahsulot sifatini oshirish, mahsulot ishlab chiqarish, yangi bozorlarni egallash uchun samarali investitsiya siyosatini tuzish va unga amal qilishi zarur.

Investitsiya siyosatini tanlashda quyidagi asosiy prinsiplarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Ko'rilayotgan tadbirlardan (iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy) samara ko'rishni maqsad qilib qo'yish kerak. Bunda konkret iqtisodiy samarani aniqlash usulini tanlash, samara natijasiga qarab investitsiya loyihasini tanlab olish va hokazo.
2. Qo'yigan kapitaldan, minimum xarajat qilib maksimum soyda olishni ko'zlash.
3. Loyihalarni amalga oshirishda mablag'larni ratsional taqsimlash.
4. Davlat byudjetidan amalga oshiriladigan loyihalarga davlatning qo'llab-quvvatlash tizimi, ya'ni davlat kafolatidan samarali foydalanish.
5. Xalqaro moliya-kredit tashkilotlari va xorijiy jismoniy investorlar ajratgan subsidiya (qarzlar) va imtiyozli kreditlarni jaib etish va samarali ishlatish.
6. Konkret loyihalarni amalga oshirishda investitsiya xavf-xatarini minimallashtirishni ta'minlash.
7. Tijorat bilan bog'liq bo'lmagan xavf-xatarlarni (tabiiy ofat, avariya, tartibsizliklar va hokazolar) davlat kafolati yoki investitsiyalarni sug'urta qilish yo'li bilan bartaraf etishni ta'minlash.

Korxona investitsiya siyosatini ishlab chiqishda quyidagi omillar hisobga olinadi:

- korxonaning moliyaviy holati;
- ishlab chiqarishning texnikaviy darajasi, tugallanmagan qurilish va o'rnatilmagan dastgohlar mavjudligi;
- lizing bo'yicha dastgohlar olish imkoniyati;
- korxonaning o'z mablag'i mavjudligi, qarz va kreditalri jaib etish imkoniyati;
- kapital bozorida moliyaviy investitsiyalar sharti;
- investorlarning davlatidan olgan imtiyozlari;
- tanlab olingen loyihalarning byudjet va tijorat samaradorligi.

Tanlangan loyihani amalga oshirish natijasida ishlab chiqarilgan mahsulot uchun mahsulot bozorini aniqlash zarur, buning uchun:

- ushbu mahsulotni sotish geografiyasi;

- oxirgi uch yil ichida mahsulotni sotish hajmi va dinamikasi;
- investitsiya loyihasini amalgalash oshirish prognozi bo'yicha iste'mol talab dinamikasini aniqlash;
- aniq loyiha orqali mahsulotning iqtisodiy, texnikaviy va ekologik darajasini aniqlash ishlarini amalgalash ko'zda tutiladi.

10.5. Investitsiya loyihalari samaradorilgini baholash prinsipi

Korxona faoliyatida investitsiya yechimini qabul qilishda real investitsiyalarning (kapital mablag'larning) samaradorligini baholash.

Bu jarayonga to'g'ri yondashuv natijasida qo'yilgan kapitalni qaytarib olish muddatini va korxonaning kelajakdag'i rivojiga ta'sir etishni aniqlash mumkin. Buning uchun investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning xalqaro amaliyotda foydalanilayotgan prinsiplarini keltiramiz:

1-prinsip. Loyihaga qo'yilgan kapitalni, loyiha ekspluatatsiya qilish davrida olingan foya va amortizatsiya ajratmasi hisobidan qaytarib olish.

2-prinsip. Qo'yilgan capital va pul oqimini hozirgi qiymatga keltirish.

3-prinsip. Pul oqimini diskontlash jarayonida differensiyallangan loyihani (diskontini) tanlash (ya'ni pul oqimini hozirgi qiymatiga keltirish)

Bunda investitsiyadan olingan daromad hajmi quyidagi omillarga bog'liq:

- a) real diskont stavkasining o'rtacha qiymatiga;
- b) inflyatsiya tempiga;
- c) investitsiyalar pulga aylanishi pasayganligiga;
- d) investitsiya xavf-xatariga.

4-prinsip. Baholash maqsadida diskontlash foiz stavkalari har xil bo'lgan variantlar qo'llaniladi.

Loyiha samaradorligini aniqlashda diskont stavkasi sisatida quyidagilar tanlanadi:

- a) depozit yoki kredit stavkasining o'rtacha qiymati (pul yoki valyuta kreditlari bo'yicha)

- b) inflyatsiya tempi, xavf darajasi va investitsiyalar likvidlilagini hisobga olgan holda foydaning individual normasi.
- c) davlat qimmatbaho qog'ozlari bo'yicha daromad muqobil normasi.
- d) korxonaning joriy daromad normasi, (ekspluatatsiyadagi) daromad qiymatidan.

Real investitsiya loyihamining samaradorligini moliyaviy baholashda quyidagi usullar qo'llaniladi:

- a) oddiy (buxgalter) foya usuli.
- b) loyihaning sof joriy qiymati (SJQ) usuli.
- c) daromad indeksi orqali.
- d) qoplanish davri orqali.
- e) loyiha ichki foya normasi (IFN) orqali.

Amaliyotda investitsiya samaradorligi, olingan foya massasi investitsiya xarajatalari bilan solishtirib aniqlanadi.

$$I_s = \frac{F}{X} \times 100$$

bunda:

I_s - investitsiya samaradorligi;

F - loyihamdan kelgan foya;

X - loyihami amalga oshirishdagi xarajatlar.

MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. Investitsiya deganda nimani tushunasiz?
2. Investitsiya turlari va shakllari.
3. Portfel investitsiya deganda nimani tushunasiz?
4. Korxona investitsiya siyosati qanday ishlab chiqiladi?
5. Investitsiya muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar.

11-bob. LIZING

11.1. Lizing tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati

Lizing jarayoni - ishlab chiqarish vositalariga kiritiladigan investitsiya shakllarini lizing operatsiyalari asosida rivojlantirishdan iborat.

Lizing to‘g‘risidagi qonunda quyidagi asosiy tushunchalar kiritilgan:

- lizing - bu investitsion faoliyatning bir ko‘rinishi bo‘lib, jismoniy yoki yuridik shaxslar orasida shartnomada ko‘psatilgan shartlar asosida ma‘lum bir to‘lov, ma‘lum bir muddat va kelishilgan to‘lov asosida mulkdan foydalanish huquqi.

- lizing bitimi - lizing oluvchi, lizing beruvchi va lizing obyektni sotuvchisi orasida tuziladigan shartnomalar majmuasidir.

Lizing obyekti bo‘lib, iste’mol qilinmaydigan har qanday obyekt kirishi mumkin. Quyidagilar lizing obyektiga kiradi:

1. Korxona va boshqa inshootlar;

2. Binolar, inshootlar, dastgohlar, transport vositalari va shunga o‘xshash ko‘char va ko‘chmas mulklar.

Lizing obyektiga yer maydonlari, tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlar, shuningdek qonunchilik taqiqlagan obyektlar kirmaydi.

Lizing munosabati subyektlari:

- Lizing beruvchi – jalb etilgan yoki o‘z mablag‘lari hisobidan totib olib, ma‘lum bir to‘lov, ma‘lum bir muddatga va kelishilgan shartlar asosida lizing oluvchiga lizing asosida lizinglanayotgan obyektni foydalanishga beradigan yuridik va jismoniy shaxslar.

- Lizing oluvchi - jismoniy yoki yuridik shaxs bo‘lib, u ma‘lum bir muddat, ma‘lum bir to‘lov asosida lizinglanayotgan obyektni ishlatishga olishi mumkin.

- Lizing obyekti sotuvchisi – jismoniy yoki yuridik shaxs bo‘lib, lizing obyekti hisoblangan, o‘zi ishlab chiqargan mulknini kelishilgan muddat ichida lizing shartnomasi asosida lizing beruvchiga sotadi. Sotuvchi lizing obyektni oldi-sotdi shartnomasiga asosan lizing oluvchi yoki lizing beruvchiga yetkazib berishi shart.

Lizing kompaniyalari - respublika qonunchiligi doirasidan chiqmagan holda, lizing faoliyatini amalga oshirishga ruxsat olgan va o‘zining ta’sis hujjatlariiga binoan lizing beruvchi vazifasini bajarayotgan tijorat tashkilotidir. Ular O‘zbekiston Respublikasi rezidenti yoki norezidenti bo‘lishi mumkin.

Lizing kompaniyalari ta’sischiilar yuridik yoki jismoniy shaxslar, shuningdek mustaqil tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan fuqarolar bo‘lishi mumkin.

Lizing faoliyati - lizing beruvchini lizing shartnomasiga binoan o‘z vazifasini bajarish tushuniladi.

Lizing kompaniyalari, shuningdek mustaqil tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan fuqarolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko‘rsatilgan tartibdagisi ruxsatnomalar asosida lizing faoliyatini olib boradilar.

Nazorat qilinadigan lizing shakllariga ichki va xalqaro lizing kiradi.

Ichki lizing faoliyatini amalga oshirishda lizing beruvchi va lizing oluvchi hamda lizing sotuvchi O‘zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblanadi. Ichki lizing faoliyati O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida boshqariladi.

11.2. Lizing turlari

Xalqaro lizingni amalga oshirishda lizing beruvchi va lizingni oluvchi O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari hisoblanmaydi.

Lizingning asosiy toifalariga quyidagilar kiradi:

- Uzoq muddatli lizing - 3 yil va undan ko‘p muddatga;
- O‘rta muddatli - 1,5-3 yil mobaynida amalga oshiriladigan lizing;
- Qisqa muddatli - 1,5 yil mobaynida amalga oshiriladigan lizing.

Lizingning asosiy turlari:

Moliaviy lizing, qayta lizing va operativ lizing.

- Moliaviy lizing – shunday lizing turi bo‘lib, bunda lizing beruvehi lizing oluvchi ko‘rsatgan sotuvchidan lizing obyektini o‘z egaligiga sotib olib, uni lizing predmeti sifatida lizing oluvchiga ma’lum bir to‘lov, ma’lum bir muddatga va kelishilgan shartlar asosida vaqtinchalik egalik va foydalanishga berish ko‘zda tutiladi. Bunda lizing muddati lizing obyektingin to‘liq amortizatsiya muddatida bo‘lishi yoki undan davomiyroq bo‘lishi mumkin. Lizing muddatini tugashi bilan yoki lizing muddati tugamasidan lizing obyektingin to‘liq qiymati to‘langanda lizing oluvchini mulkiga aylanadi.

- Qayta lizing - moliyaviy lizing turi bo'lib, bunda lizing sotuvchi shuning bilan birgalikda lizing oluvchi bo'lib ham hisoblanadi.
- Operativ lizing turida lizing beruvchi o'z tavakkaliga mulk sotib olib, uni lizing oluvchiga ma'lum bir muddat, ma'lum to'lov va kelishilgan shartlari asosida vaqtinchalik egalik va foydalanishga beradi. Lizing muddati shartnomada belgilanadi. Muddat tugashi va shartnomada ko'rsatilgan barcha to'lovlari to'liq to'langanida lizing obyekti lizing beruvchiga qaytarilib beriladi, bunda lizing oluvchi lizing obyektiga nisbatan da'vo qilishga haqi yo'q. Operativ lizingda lizing obyekti amortizatsiya muddati to'liq kelguniga qadar bir necha barobar lizingga berilishi mumkin.

Lizing bitimi o'ziga xos qo'shimcha xizmatlarni ham qo'shishi mumkin. Qo'shimcha xizmatlar lizing beruvchi tomonidan ko'rsatiladi, ularga quyidagilar kiradi:

- uchinchi shaxslardan intellektual mulkni (nou-xau, litsenziya, tovar belgisiga litsenziya va boshqa) sotib olsh;
- uchinchi shaxslardan montaj va remont ishlarini olib borish uchun zarur materiallarni yetkazish;
- lizing obyekti bilan bog'liq bo'lgan montaj va remont ishlarini olib borish va xodimlarni o'qitish;
- joriy, o'rta va kapital remontlarni amalga oshirish;
- ishlab chiqarish maydonchalarini tayyorlash, aloqani o'rnatish, ishga tayyorlash va montaj ishlarini olib borish; lizing obyektini ishlatish uchun kerak bo'ladigan tayyorlov ishlari.

Ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatlar qiymati, hajmi va narxi shartnomada ko'rsatilishi kerak.

Sublizing - lizingning o'ziga xos turi bo'lib, lizing obyektidan uchinchi shaxs foydalanishga haqli bo'ladi. Bu o'z navbatida sublizing shartnomasida kuzatiladi. Sublizingda lizingni amalga oshirayotgan shaxs shartnoma asosida lizing beruvchidan lizing obyektini olib, uni lizing oluvchiga vaqtinchalik foydalanishga

beradi. Bunda lizing shartlarini bajarish lizing oluvchidan uchinchi shaxsga yuklatiladi.

11.3. Lizing to'lovlar

Iqtisodiy mazmunga ko'ra lizinglar to'g'ri investitsiyalarga kirib, lizing oluvchi lizing beruvchini barcha moddiy va moliyaviy xarajatlarini qoplashi va mukofot pulini to'lashi lozim.

- Moddiy va moliyaviy xarajatlar va mukofot puli summasi deganda lizing shartnomasining umumiy summasi tushuniladi.

Investitsion xarajatlar deganda, lizing beruvchining lizing obyektini sotib olish va ishlatish summasi tushuniladi.

Shuningdek,

- Lizing obyekti narxi.
- Mulk solig'i.
- Transportda tashish, o'rnatish, montaj ishlari, agar o'zga hol shartnomada ko'rsatilmagan bo'lsa.
- Lizing obyektiga bog'liq ishlarga xodimlarni o'qitish.
- Lizing obyekti bilan bog'liq bo'lgan bojxona to'lovlar, poshlinalari va yig'imlari.
- Lizing obyektini ekspluatatsiya qilishdan oldingi saqlash, qo'riqlash xarajatlar.
- Lizingning obyekti tashish davomida qo'riqlash va sug'ortalash bilan bog'liq xarajatlar.
- Xavfning barcha turlaridan sug'ortalash, agar o'zga hol shartnomada ko'rsatilmagan bo'lsa.
- Foydalanilgan vositalar foizini to'lash va muddatni cho'zish bilan bog'liq xarajatlar.
- Lizing obyektiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar.
- Lizing obyekti ro'yxatdan o'tkazish va topshirish bilan bog'liq xarajatlar.
- Lizing predmetini kapital ta'mirdan chiqarish uchun zarur zaxiralarni jamlash bilan bog'liq xarajatlar.
- Savdo agentining komission yig'imlari.
- Lizing predmetini topshirish xarajatlar.

- Lizing obyektini realizatsiya qilish davomida ko'rsatilgan qo'shimcha xizmatlar bilan bog'liq xarajatlar.

- Lizing obyektining normal xizmat ko'rsatishi uchun zarur xizmatlar bilan bog'liq bo'lган xarajatlar.

Lizing beruvchining mukofot puli – investitsion xarajatlardan tashqari va shartnomada ko'rsatilgan pul miqdori. Lizing to'lovi lizing oluvchini lizing beruvchiga lizing obyektidan foydalanganligi uchun to'laydigan to'lovlar yig'indisidan iboratdir.

To'lov miqdori, shakli va davri lizing shartnomasida ko'rsatiladi.

Lizing to'loviga mukofot pulidan tashqari lizing muddatiga teng amartizatsiya to'lovi, investitsion xarajatlar, lizing beruvchining lizing obyektini sotib olish uchun olgan mablag' foizi, lizing beruvchi tomonidan ko'rsatilgan qo'shimcha xizmatlar xarajati, qo'shimcha qiymat solig'i hamda lizing beruvchi tomonidan to'langan mulk solig'i ham kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan lizing to'lovlarini amalga oshirish metodik ko'rsatmalar ishlab chiqilgan.

Umumiy tushunchalar

Vazirlik ishlab chiqqan ko'rsatmalarga binoan, lizing to'lovi deganda - shartnomalar obyektidan foydalanganlik uchun lizing oluvchidan lizing beruvchiga to'lanadigan pul miqdori tushuniladi.

Quyidagilar lizing to'loviga kiradi: lizing obyektini lizing davomidagi lizing amortizatsiyasi, bankni qarz mablag'laridan foydalanganligi uchun to'laydigan foizlar, lizing beruvchi ko'rsatgan qo'shimcha xizmatlar bilan bog'liq xarajatlar, lizing shartnomasida lizing obyektini sotib olish ko'rsatilgan bo'lsa, lizing obyekting to'liq qiymatini to'lash.

Lizing to'lovlar alohida badallar shaklida to'lanadi. Shartnomalar tuzishda tomonlar to'lov shakli, davomiyligi, miqdori ketishib olinadi. To'lovlar pul ko'rinishida, mahsulot ko'rinishida, yoki aralash shaklda to'lanishi mumkin. Bunda to'lov narxi joriy qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda to'lanadi.

To'lovlar, pul ko'rinishida, kompensatsiya ko'rinishida (mahsulotlar yoki lizing oluvchining xizmatlari) va aralash ko'rinishda bo'ladi. Bunda mahsulot narxi yoki lizing oluvchi xizmatlari amaldagi qonunchilik bilan amalga oshiriladi.

Lizing to'lovlarini hisobga olish usuli bo'yicha tomonlar quyidagilardan tanlash mumkin:

- "Belgilangan umumiylar" usuli, bunda to'lovlarining umumiylarini butun muddat, tomonlar kelishgan davriylikda amalga oshiriladi.

- "Bunak" usuli, agar lizing oluvchi lizing beruvchiga kelishilgan hajmda bunak to'lasa, lizing to'lovchining qolgan qismi shartnomaga amal qilish muddatigacha to'lanadi va hisobga olinadi.

- «Minimal to'lovlar» usuli, bunda to'lovlar umumiylarini summasiga butun shartnomasi muddatidagi lizing mulki amortizatsiyasi, lizing beruvchiga foydalangan qarz manbalari to'lovi, komission mukofot va lizing beruvchining qo'shimcha xizmatlari uchun to'lov hamda sotib olinayotgan lizing mulkining qiymati, agar sotib olish shartnomada ko'rsatilgan bo'lsa, qo'shiladi.

To'lovlar davriyligi. Lizing shartnomasida to'lov davriyligi (yillik, kvartallik, oylik, haftalik) va to'lovning oy sanalaridagi muddati ko'rsatiladi.

To'lov usullari. Tomonlar kelishuviga binoan to'lov teng ulushlarda amalga oshirilishi mumkin, ya'ni o'suvchi va kamayuvchi o'chovlarda.

Lizing to'lovlarining hisobi.

Hisob algoritmi, lizing shartnomasidagi mulkni olish uchun lizing beruvchidan olingan kredit qarzlarini tufayli ishlataligan kredit to'lovi ham kamayadi, yana lizing beruvchiga beriladigan kelishilgan mukofot ham kamayadi. Agar to'lov stavkalari ikki tomon kelishuviga to'lanmagan mulk qiymati fondida bo'lsa, lizing to'lovlarini hisobi quyidagi ko'rinishda amalga oshiriladi.

- Lizing shartnomasida ko'rsatilgan lizing to'lovlarining o'chovlari yillar bo'yicha hisoblanadi.

- Yillik to'lov summasidek, lizing to'lovlarining o'chovi butun lizing shartnomasi muddati bo'yicha hisoblanadi.

- Tomonlar kelishuviga asosan to'lovlarining davomiyligi kelishilgan to'lov usullari va hisob-kitob metodlari bilan birgalikda lizing to'lovining o'chovi hisoblanadi.

Lizing to'lovlarining asosiy qiymati quyidagi formula orqali topiladi:

$$L_t = A_t + K_t + K_m + K_s$$

bu yerda: L_t – lizing to'lovlaring umumiyligi; A_t – joriy yilda lizing beruvchiga yuklanadigan amortizatsion ajratmalarining hajmi; K_t – lizing shartnomasidagi obyekt-mulk olish uchun foydalaniłgan kredit resurslari to'lovi; K_m – lizing shartnomasi bo'yicha taqdim etilgan mulk uchun lizing beruvchiga to'lov; K_s – qo'shilgan qiymat solig'i, lizing beruvchi xizmatlariga lizing oluvchi to'laydi.

MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. Lizing munosabatlari subyektlariga kimlar kiradi?
2. Lizingning qanday turlari mavjud?
3. Lizing faoliyati deganda nimani tushunasiz?
4. Lizing tushunchasi bilan investitsiya tushunchasining bog'liqligi.

12- bob. SOLIQNING IQTISODIY MOHIYATI VA MAQSADI

12.1. Soliqqa tortish tizimi

Rivojlanishning bozor munosabatlariiga o'tilishi yangi jarayonlarni iqtisodiy omillar, jumladan soliqlar orqali boshqarish muammosini birinchi darajali vazifa qilib qo'ydi. Soliqlar hozirgi taraqqiy etgan jamiyatlarda davlat daromodlarining asosiy shakli hisoblanadi.

Soliqlar – davlat va jamiyatning pul mablag'lariiga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida davlat byudjeti ixtiyoriga jismoniy va yuridik shaxslar amalga oshiriladigan majburiy to'lovlari. Soliq to'lash hamma uchun majburiy holatda bo'ladi. Soliqning ikki vazifasi mavjud:

Fiskal – bu davlatning pul daromadlarini shakllanishida muhim o'rinni egallaydi. Pul mablag'lari davlat apparati, armiya, fan va texnikani rivojlantirish uchun zarur.

Iqtisodiy vazifasi ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun muhim o'rinni egallab, korxonaning sotsial muamollarini hal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida umum davlat soliqlari; mahalliy soliqlar va yig'imlar amal qiladi.

Umum davlat soliqlari:

1. Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i.
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i.
3. Qo'shilgan qiymat solig'i.
4. Aksiz solig'i.
5. Yer osti boyliklardan foydalanganlik uchun soliq.
6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar:

1. Mof-mulk solig'i.
2. Yer solig'i.
3. Savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig'im, shu jumladan ayrim turlardagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'imlari.
4. Yuridik shaxslarni, shuningdek tadbikorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im.
5. Obodonchilik ishlari uchun yig'im.

O'zbekiston Respublikasining soliq to'g'risidagi qonunlari

Soliq solish yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiyidan qat'iy nazar, qonun oldida tenglik asosida amalga oshiriladi.

Olingen manbalaridan qat'iy nazar, barcha daromadlarga soliq solinadi. O'zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va yig'imlar O'zbekiston Respublikasining pul birligi - so'mlarda hisoblab chiqariladi.

12.2. Soliq turlari va tasnifi

Yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i.

Moliya yilida soliq solinadigan daromadga (foydagaga) ega bo'lgan yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'i to'lovchilar hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning soliq solinadigan daromadiga (foydasiga) eng yuqori - 9 foizlik stavka bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi quyidagi yuridik shaxslar uchun daromadga (foydasiga) solinadigan soliqning kamaytirilgan stavkalarini belgilashi mumkin.

- Chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslar uchun.
- Soliq to'lovchining geologik tadqiqotlar va tabiiy resurslarni qazib olishga tayyorgarlik ishlari uchun qilgan xarajatlari jami daromaddan amortizatsiya sifatida, amortizatsiya ajratmalari normasi bo'yicha - 15 foiz miqdorida chegirib tashlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i. Qo'shilgan qiymat solig'i tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) ularni realizatsiya qilish hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlar import qilish hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlar import qilish jarayonida qo'shilgan qiymatning bir qismini byudjetga ajratishdir.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisobda turgan yoki hisobda turishi shart bo'lgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar qo'shilgan qiymat solig'i 20 foiz stavka bo'yicha to'lanadi.

Mol-mulk solig'i. Yuridik shaxslar uchun asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik balans qiymati soliq obyekti hisoblanadi. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga 3,5 foizli stavka bo'yicha soliq solinadi.

Yer solig'i. Yuridik shaxslar uchun yer uchastkalari soliq solinadigan obyekt hisoblanadi.

- Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari.

• Korxonalar, binolar va inshootlar qurish uchun yoki qishloq xo'jaligiga taalluqli bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun berilgan yer uchastkalari. Yer solig'i stavkalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Yer ostidan foydalanganlik uchun soliq. Yer ostidan foydalanganlik uchun soliqni O'zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalar qazib olishni, shuningdek foydali qazilmalar qazib olish bilan bog'liq bo'lmagan yer osti inshootlarini qurish va ulardan foydalanish bilan shug'ullanuvchi jismoniy va yuridik shaxslar

to'laydilar. Yer ostidan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq. Ishlab chiqarish va texnika ehtiyoji uchun yer usti va yer osti manbalaridan foydanilgan suv resurslari hajimi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq obyekti hisoblanadi.

12.3. Soliqqa tortish - davlat byudjetining asosiy manbai

Iqtisodiyotni soliqlar orqali tartibga solish bir qancha afzalliklarga ega:

- soliqlar xo'jalik yurituvchi subyektning mustaqilligini ifodalaydi;
- soliqlar xo'jalik yurituvchi subyektni moliyaviy natijalarni ko'paytirishga rag'batlantiradi;
- to'lovning byudjetga tushishi kafolatlanadi.

Soliqlar davlat byudjetini moliyaviy resurslar orqali ta'minlash bilan birga, ijtimoiy ishlab chiqarishga, uning dinamikasi va tuzilishiga iqtisodiy ta'sir ko'rsatadi.

Soliq tizimi bozordagi erkin raqobatni rag'batlantirishi, fuqarolar daromadini adolatli qayta taqsimlashi, hozirgi iqtisodiy siyosat konyunkturasiga javob berishi, ya'ni aniq maqsadli xarakterga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga u xalq xo'jaligi tarmoqlarida sifat jihatidan o'zgarishlar yasashga, ular o'rtasida maqbul mutanosibliklar o'rnatishga, ishlab chiqarish fondlaridan samaraliroq foydalanish hissini uyg'otishga, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish layoqatiga ega bo'lishi kerak.

MAVZU BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. Soliqning iqtisodiy mohiyati va maqsadini tushuntirib bering.
2. Konchilik sanoatida soliq tizimi mohiyatini tushuntipib bering.
3. O'zbekiston Respublikasi soliq to'g'risidagi qonuniga asosan belgilangan korxonaning mulkchilik shaklidan qat'iy nazar bir xil soliq stavkalarini belgilanganmi?
4. Foydadan olinadigan soliq turi haqida tushuncha bering.
5. Bozor iqtisodiyoti sharoitida nima uchun soliqlar davlat byudjeti asosini tashkil etadi?

ATAMALAR LUG'ATI

Aylanma ishlab chiqarish aktivlari – ishlab chiqarishda foydalanuvchi mehnat predmetlari (xomashyo, metariallar, o'rov materiallari, ta'minlash uchun ehtiyoq qismlar va hokazo). Har bir ishlab chiqarish davrida to'liq sarflanadi hamda korxonaning aylanma mablag'lari hisobiga sotib olinadi.

Aylanma mablag'lar – ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, yangi mahsulotni o'zlashtirish xarajatlari, kelgusi davr xarajatlariga sarflanuvchi korxona mablag'larining pul shaklida ifodalanishi.

Aksiya – aksiyadorlik jamiyatni tomonidan chiqariluvchi hamda uning egasi, aksiyadorlik jamiyatining a'zosi jamiyatni boshqarish va foydadan dividend olish huquqini beruvchi qimmatbaho qog'oz.

Amortizatsiya – asosiy aktivlarning qiymatini asta-sekinlik bilan ular yordamida ishlab chiqariluvchi mahsulot yoki xizmatlarga o'tkazilishi; mablag'larning maqsadli ravishda jamg'arilishi va keyinchalik eskirgan asosiy aktivlarning o'rnnini qoplashga ishlatilishi.

Amortizatsiya fondi – asosiy aktivlarni oddiy va kengaytirilgan tarzda takror ishlab chiqarishga mo'ljallangan pul mablag'lari.

Asosiy ishlab chiqarish aktivlari – mahsulot ishlab chiqarishda foydalanuvchi mehnat vositalari (binolar, inshootlar, qurilma va asbob-uskunalar, transport vositalari va hokazo). Ular uzoq muddat xizmat ko'rsatib, ishlab chiqarish jarayonida o'zining natural shaklini saqlab qoladi hamda o'z qiymatini eskirish mobaynida asta-sekinlik bilan tayyor mahsulotga o'tkazadi. Kapital qo'yilmalar hisobiga to'ldiriladi.

Vaqt me'yori – mahsulot birligini ishlab chiqarish yoki muayyan operatsiyani bajarish uchun belgilangan vaqt (soat, minut, sekundlarda). Texnika, texnologiya va mehnat hamda ishlab chiqarishni tashkil etish takomillashib borgani sari mahsulot birligiga vaqt sarflari kamayib boradi.

Vaqt me'yori – muhandislik hisoblari, xronometraj o'lcovlari asosida belgilanib, mahsulot birligi yoki ish (biror buyumni ishlash, biror jarayon bajarish) birligi uchun joriy ish vaqt sarfini belgilaydi.

Yordamchi ish vaqtি – asosiy ishni amalga oshirish uchun yordamchi ish jarayoniga sarf bo'ladijan vaqtini bildiradi.

Ijara – mulkni ma'lum bir haq to'lash evaziga, vaqtinchalik foydalanishga berish to'g'risidagi shartnomaga asoslangan holda yollash.

Investitsiyalar – mamlakat ichkarisi va tashqarisida yangi korxona yaratish va mavjud korxonalarни zamonaviylashtirish, eng yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish, ishlab chiqarish darajasini oshirish va foya olish maqsadida uzoq muddatli mablag'lar kiritilishi.

Investor – biron-bir faoliyatga, korxonaga foya olish maqsadida uzoq muddatli kapital kiritishni amalga oshiruvchi xususiy tadbirkor, tashkilot yoki davlat.

Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish – ishlab chiqarish jarayonlarini bevosita xodim ishtirokisiz, uning nazorati ostida amalga oshirish imkonini beruvchi ishlab chiqarishni mashinalar, priborlar, asbob-uskunalar, turli xil qurilmalar bilan jihozlash.

Ish joylarini attestatsiyalash – zamonaviy talablarga muvofiq ravishda ratsionallashtirish, har bir ish joyini, texnika jihozini, texnologiyani, mehnatni tashkil etish va uning sharoitini, texnika xavfsizligini kompleks baholash.

Ishbay ish haqi – mehnatga haq to'lash shakli. Bunda ishlovchilarining ish haqi tarif stavkasiga yoki lavozim maoshiga va ishlangan soatlar va kunlarga bog'liq bo'tadi. Ishbay-mukofot ish haqi to'langanda ish haqiga individual va kollektiv yuqori ish ko'rsatkichlari qo'shiladi.

Ish joyi – ishchiga yoki ishchilar brigadasiga biriktirib qo'yilgan, tegishli mehnat vositalari bilan ta'minlangan va muayyan ishni bajarishga qaratilgan ishlab chiqarish maydoni uchastkasi.

Ishlab chiqarish usuli – ishlab chiqarish va shaxsiy iste'mol uchun kishilarga zarur moddiy ne'matlar yaratish usuli; jamiyatda hukmon bo'lgan ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari birligi.

Ish joyi – bu ishlab chiqarish maydonining chegaralangan uchastkasi bo'lib, ishchi yoki ishchilar brigadasiga biriktirib, tegishli mehnat vositalari bilan ta'minlangan va muayyan ishni bajariladigan ishlab chiqarish maydonining bir qismi hisoblanadi.

Ish joyini tashkil etish deganda, mehnat buyumlari va mehnat vositalari bilan jihozlash, ularning joylashishi. ish joyiga xizmat ko'rsatish va attestatsiyalash va **rejalashtirish** bo'yicha tadbirlarni o'tkazish tushuniladi.

Ish jarayoni – bu muayyan ish joyida bir yoki guruhi ijrochilar tomonidan bir yoki bir nechta mehnat qurollari yordamida bajariladigan mehnat jarayoni hisobiga amalga oshiriladi.

Ish joylarini to'g'ri rejalashtirish – bu jihozlarni, tashkiliy va texnologik uskuna va vositalar, yarim tayyor mahsulot va mahsulot detallarini oqilona joylashtirib, mavjud ishlab chiqarish maydonlaridan tejab foydalanib, normativlarga rioya qilgan holda xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini yaratish demakdir.

Ishlab chiqarish me'yori - bir yoki bir necha ishchi tomonidan muayyan sharoit va vaqt birligida ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan tayyor mahsulot hajmini bildiradi.

Ishlab chiqarish jarayoni - korxonaning murakkab va ko'p qirrali faoliyati asosida tashkil topgan bo'lib, uning asosiy vazifasi dastlabki xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirishdir.

Ish vaqtি deganda xodim ichki mehnat tartibi qoidalariga ko'ra mehnat burchlarini bajaradigan vaqt tushuniladi.

Mehnat intizomi – har bir xodimning mehnat jamoasida o'rnatilgan ish tartibiga qat'iy amal qilish, o'z ish joyida unumli mehnat qilishi uchun butun ish vaqtidan to'la foydalanishi.

Mehnatni mexanizatsiyalash – qo'l mehnatini mashinalar, mexanizmlar va mehnatni yengillashtiruvchi hamda uning unumdorligini oshiruvchi moslamalar yordamida mehnat bilan almashtirish.

Mahsulot rentabelligi – mahsulot sotishdan olingan foydaning mahsulot tannarxiga nisbati (foizlarda) sifatida aniqlanuvchi ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichi.

Mahsulot sifati – mahsulotning inson va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojlarini qondirish qobiliyatlarini belgilovchi foydali xisatlari majmui.

Mehnat unumdorligi – insonlar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligi; xodim moddiy ishlab chiqarish sohasida ish vaqtি birligida ishlab chiqargan mahsulotlar miqdori bilan o'chanadi.

Mehnatning ijtimoiy unumdarligi ishlab chiqarilgan milliy daromadning moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo‘lgan har bir xodimga nisbatan hisoblanadi.

Mehnatga haq to‘lashning ishbay shaklida – mehnat haqi ishlab chiqarilgan mahsulot yoki bajarilgan ish birligiga to‘lanadigan ish haqi miqdoridan iborat bo‘ladi.

Mehnatga haq to‘lashning vaqtbay shakli – bajarilgan ish uchun to‘lanadigan mehnat haqi ishlagan vaqtiga va malakasiga binoan belgilanadi.

Mehnatni tashkil etish deganda, mehnat jarayonida texnika va kishilarni birlashtirish shakl va usullari tushuniladi.

Mehnat sharoiti deb, ishlab chiqarish jarayonida insonni qurshab turuvchi tashqi muhit tushuniladi.

Operatsiya – ish jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, u bir ish joyida yakunlangan texnologik jarayonning tugallangan bo‘lagidir.

Tarif setkasi – turli malakadagi ishchilar mehnatiga to‘lanadigan haqning nisbati (tarif razryadlari va tarif koeffitsientlari). Tarif setkalari tarmoq xususiyati va ish sharoiti hisobga olingan holda tarmoqlar bo‘yicha tasdiqlanadi.

Tarif stavkasi – muayyan razryadli ishchining markazlashgan tartibda belgilangan soatlak, kunlik va oylik ish haqi. Mahsulot birligi uchun vaqtbay ish haqi va bahoni aniqlash uchun (ishbay haqida) asos xizmatini o‘taydi.

Texnik vaqt me’yori (Nv) – bu konkret tashkiliy-texnikaviy sharoitlarda mahsulot sifati talablariga rioya qilgan holda belgilangan ma’lum ishni (yoki operatsiya) bajarish uchun zarur bo‘lgan ish vaqtini sarfidir.

Tarif tizimi – mehnatning sifati va sharoiti, ishlab chiqarish tarmog‘ining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati hamda korxonalarining territorial joylashuviga binoan ishchilarning ish haqini tartibga soluvchi normativlar majmuasidan iboratdir.

Foya – korxona faoliyatining yakuniy moliyaviy natijalari; pul tushumi va xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Xizmat ko‘rsatish me’yori – ish zonasini yoki bir xodim yoki tegishli malakaga ega bo‘lgan ishchilar guruhi xizmat ko‘rsatadigan asbob-uskuna (ish joylari soni) birliklarining miqdori.

ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иктисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишининг йўллари ва чоралари. -Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Хусусий корхоналар тўғрисида»ги қонуни. Қонун ва қарорлар. -Т.: Ўзбекистон, 2004. - №3
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, тараккиёт шартлари ва Кафолатлари. -Т.: Ўзбекистон, 1997.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. -Т.: Ўзбекистон, 1999.
5. Экономика предприятия. Учебник для ВУЗов. 3-е издание /Под. ред. В.Я.Горфинкеля, В.А.Ивандара. - М.: Юнити-Дана, 2003.
6. Махмудов Э.Х. Корхона иқтисодиёти. Ўкув кўулланма. -Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамгармаси нашриёти, 2004.
7. Сенгэ Питер М. и др. пер с анг. Танетс перемен: новые проблемы самообучающихся организаций. -М.: ЗАО Дилимп-Бизнес, 2004.
8. Абдукаrimov И.Т. ва бошқалар. Корхона иқтисодий салоҳияти таҳлили. -Т: «Иқтисодиёт ва хукуқ дунёси» нашриёт уйи, 2003.
9. Аутсорсинг: Создание высокоеффективных и Конкурентоспособных организаций. Учебное пособие. /Под ред. Б.А.Аникина. -М.: Инфра-М, 2003.
10. <http://www.harvard.edu>.
11. <http://www.capitul.ru>.
12. <http://www.5b.ru>.
13. <http://www.audit-center.ru>.

Muharrir
Musahhih

Botirbekova M.M
Dexkanova Sh.S